



# **BOYLIK VA QASHHOQLIK FALSAFASI**

- Biznes qonunlari
- Qashshoqlik sabablari
- Muvaffaqiyat formulalari
- Boylik falsafasi
- Yangi hayot stsenariysi
- Boylikka erishish alifbosi

**TOSHKENT**

AYUPOV RAVSHAN HAMDAMOVICH

*«Bolam tutsin desang donolik yo’lin,  
Kichiklikdan tegiz bilimga qo’lin».  
«Qutadg’u bilig» dan*

**Tuzuvchilar:**

**AYUPOV RAVSHAN HAMDAMOVICH  
BOLTABOEVA GUZAL RAVSHANOVNA**

**«Boylik va qashshoqlik falsafasi»,**

Toshkent, 2018 yil, - 84 бет

**ANNOTATSIYA**

*“Kimdir odamlarga o’rgatish uchun  
ilmdan bir bobni o’rgansa,  
unga yetmishta siddiqning savobi beriladi”  
Rasululloh (s.a.v.)*

Qo’lingizdagi kitobchada boylikka erishishning fundamental qonuniyatları, hamda boy bolish usullari haqida gap yuritiladi. Bu ajoyib qonuniyatlar va tushunchalar qo’hna Xitoyda pul tushunchasi paydo bo’lgandan beri muttasil amal qilib kelmoqda. Bu qonunlarni bilasizmi, yoqmi – bu sizdan boshqa insonlar uchun ahamiyatli emas. Ular xuddi fizika yoki kimyo fani qonunlari kabi muqarrar va mavjud qonuniyatlar. Biz ushbu kitobchada “boylik”, “pul”, “badavlat” kabi atamalarni ko’p ishlatamiz. Balki bu amal ba’zilarga unchalik ma’qul kelmasdan, qandaydir moddiyat olamiga o’ziga xos da’vat bo’lib tushunilishi mumkin. Shuning uchun ham o’quvchilarga ushbu kitobchani taqdim etishdan ko’zda tutilgan asosiy maqsadimizni qisqacha bo’lsa ham aytib o’tmoqchimiz: biz o’z kelajagimizni va ona vatanimizni chindan ham buyuk va farovon xolda ko’rishni istaymiz. Bizning farzandlarimiz yanada bilimli, dono va hech kimdan xech qachon kam bo’lmasligini istaymiz. Undan tashqari, biz yoshlarimizning pul

AYUPOV RAVSHAN HAMDAMOVICH

topish uchun ertadan kechgacha boshqalarga, yirtqich kapitalistlarga va boshqa davlatlarga ishlab berishini emas, iloji boricha oson va qulay yo'llar bilan o'z vatanlarida moddiy mustaqillikka erishib, qolgan vaqtlarini o'z aqliy va jismoniy qobiliyatlarini takomillashtirish va ma'naviyatlarini boyitishga, ona Vatanni rivojlantirishga sarflashlarini xohlaymiz. Qo'llanmada bir qancha amaliy maslahatlar, ko'rsatma va ma'lumotlar beriladiki, ularning yordamida bu sehrli olamni yanada mukammalroq tushunib olish mumkin.

Ushbu kitobchani yozishdan asosiy maqsad – boshqa mualliflar yozgan kitob va risolalardan unumli foydalangan holda halqimizning biznes va tadbirkorlik bo'yicha bilim darajasini oshirish hamda biznez osti falsafiy qarashlarni ommalashtirishdir. Agarda biror bir muallif bu yerda yoritilgan masala va muammolarni o'ziga tegishli deb bilsa, buni albatta tan olamiz va shuni aniq-ravshan qilib aytamizki, biz bu yerdagi g'oya va fikrlarga mualliflik da'vo qilishdan hamda shuning natijasida qandaydir mablag' ishlab olishdan yiroqdamiz – ezgu vazifamiz va maqsadimiz birgina: halqimizga biznes va tadbirkorlik yuzasidan ayni «*Faol tadbirkorlik, innovatsion g'oyalar va texnologiyalarni qo'llab-quvvatlash yili*» da kerakli bo'lган madaniy-ma'rifiy ma'lumotlar berishdir holos. Demak, agarda mamlakatimiz rivojlanishini hohlasangiz, boy-badavlat yashashni istasangiz va barcha sizga havas bilan boqishini orzu qilsangiz – bu kitob huddi siz va sizga o'xshaganlar uchun!

*“Boy bo ’lishga intilganlarning  
 ba ’zilarigina badavlat bo ’ladilar,  
 ammo bunga intilmaganlar esa  
 hech qachon boy bo ’la olmaydilar”*

## MUNDARIJA

<b>KIRISH</b>	<b>5</b>
<b>1-BOB. Muvaffaqiyatning to’rt fundamental qonuni</b>	<b>8</b>
1.1. Qashshoqlik sabablari	10
1.2. Qashshoqlik va boylik	13
1.3. Qashshoqlik g’oyasi	14
1.4. Boylik va boylar haqida	18
1.5. Qashshoqlikka eltadigan eng to’g`ri yo`l	19
1.6. Kambag`allar falsafasi	20
1.7. Kambag’allikdan qutulish uchun “ <i>Nima qilmoq kerak?</i> ”	21
<b>2-BOB. Hayot muvaffaqiyati sirlari</b>	<b>25</b>
2.1. Boylik falsafasi	33
2.2. Boylikka erishish san`ati	35
2.3. Boylikka erishishda ishonchning kuchi	37
2.4. Boylikka erishish uchun “ <i>Nima qilmoq kerak?</i> ”	40
2.5. Boy bo`lish uchun nimalarga ahamiyat berish kerak	45
2.6. Pullarga qanday munosabatda bo`lish kerak	50
2.7. Muvaffaqiyatga erishish formulalari	59
2.8. “Hayoliy film” stsenariysi va mashqi	61
2.9. Ijobiy fikrlashni dasturlash	63
2.10. Yangi hayot stsenariysi	68
2.11. Tadbirkorlikda muvaffaqiyatga erishish alifbosi	69
2.12. Boylikka erishishning mahfiy quroli	72
Ilovalar	82
Foydalanilgan adabiyotlar	80

## K I R I S H

«*Iqboling uyg’onsa, davlat yor bo’lsa,  
Toqqa kesak otsang, toshni sindirar,  
Toleing ters kelsa, baxting sho’r bo’lsa,  
Palovning guruchi tishing sindirar».  
Maxtumquli*

Nega bir insonlar boshqalariga nisbatan ko’proq muvaffaqiyatlarga erishadilar? Nega bir xil odamlar tezlik bilan yuqori mansablarga erishadilar va boshqalarga nisbatan ko’proq pul ishlay oladilar? Nima sababdan bir xil insonlar o’zlarini o’tga va cho’qqa uradilaru, biror bir natijaga erisha olmay, baxtsiz, omadsiz va ilojsiz bo’lib yuradilar? Nima uchun ko’pchilik insonlar omadlari yurishmagach, bo’yinlarini ham qilib, chorasiz qoladilar? Boshqacha qilib aytganda – nega bir odamlar boshqalariga nisbatan omadliroqlar? Agar bu turli xil odamlarni bir-biriga solishtirib ko’rilsa, ular tashqi tomondan bir-birlaridan hech qanday jihatlari bilan farqlanmaydilar – barchasining aqli-xushi joyida, ikki qo’li va ikki oyog’i bor, ko’rinishlari ham risoladagiday! Lekin ularning hayoti va turmush tarsi yaxshilab, diqqat bilan o’rganilsa, bir qancha sabab va oqibatlar zanjirini topish mumkinki, xuddi shu sabablar qandaydir qonuniyatlarga ko’ra muvaffaqiyatga eirshishni ta’minlab berar ekan. Muvaffaqiyatga eirshishning bu qonuniyatini birinchi bo’lib grek olimi Aristotel aniqlagan va u real hayot qonunlar vositasida boshqarilishini ta’kidlagan. Uning aytishicha, real dunyodagi har bir voqeа-xodisalar biror bir sababga ko’ra ro’y beradi va u bizning uni bilish yoki bilmasligimizga umuman bog’liq emas. Agar bu qonunni tadbirkorlikka tadbiq etsak, u holda boylik, baxt, rivojlanish va muvaffaqiyatga eirshish konkret sabablar va xatti-harakatlarga bog’liqligini ko’ramiz. Ko’chilik xollarda muvaffaqiyat, omad ham, baxtning kulib boqishi ham qandaydir ajoyibot ham emas. Muvaffaqiyatga eirshish yaxshi yoki yomon, ijobjiy yoki salbiy sabablar oqibatida yuzaga keladi. Agar siz nimani xoxlayotganingizni aniq bilsangiz, o’zingizdan oldin shu sohada muvaffaqiyatlarga erishgan insonlarning xatti-harakatlari va amallaridan nusha olib, ular qilgan ishlarni aniq tartibda takrorlasangiz, siz ham albatta o’shalardek muvaffaqiyatlarga

erishasiz. “Nima eksang, shuni olasan” degan maqol ushbu qonuning mohiyatini boshqacha ko’rinishda aks ettiradi. Mexanikada esa bu qonun N’yutonning uchinshi qonuni orqali ifodalangan: “Har qanday kuch o’ziga teng va qaramaqarshi yo’nalgan kuchga ega bo’ladi”. Biz uchun esa sabab-oqibat universal qonunini quyidagicha ifodalash mumkin: “Fikr – sabab, hayotdagi shart-sharoitlar esa – oqibatdir”. Demak, biz fikrning yaratuvchanligini tan olamiz va uning hayotimizdagи eng asosiy yaratuvchan faktor yoki kuch deb xisoblaymiz. Agar biz o’zimizning fikrlash tarzimiz bilan o’z shaxsiy dunyoimizni yarata olsak, demak, hayotda duch kelinayotgan voqeа-xodisalar va insonlarga bo’lgan munosabat ham shunga mos ravishda o’zgaradi. Demak, agar siz o’z fikrlash tarzingizni o’zgartirsangiz, u xolda siz o’z turmush tarzingizni ham keskin o’zgartira olasiz. Shaxsiy hayotda va biznesda muvaffaqiyatga erishish printsipi quyidagi oddiy jumla orqali aniqlanadi: “Sizning kelajagingiz nima to’grisida ko’proq o’ylashingiz bilan aniqlanadi”. Sizning hayot tarzingizni tashqi muhit emas, balki ichki dunyoingiz aniqlab beradi va yaratadi. Bu qonunni hayotga tadbiq qilish uchun o’z hayotingizning asosiy tashkil etuvchilarini – oilaviy munosabatlaringizni, sog’ligingizni, ishingizni, moliyaviy ahvolingizni yahshilab o’rganing va ular orasidagi sabab-oqibat bog’lanishlarini yahshilab o’rganib chiqing. So’ngra ular bilan sizning fikrlashingiz, so’lashingiz, xis qilishingiz, ishingiz va erishilayotgan natijalar orasidagi sabab-oqibat bog’lanishlarini topishga harakat qilib ko’ring. Undan so’ng tamomila xaqqoniy ravishda siz o’zingiz yashayotgan dunyoda qanday ahamiyatga ega ekanligingizni tahlil qilib ko’ring. Hayotingizning biror bir jihatini yaxshi tomonga o’zgartirish uchun o’z fikrlash tarzingizga qanday o’zgartirishlar kiritishingiz mumkinligi xaqida o’ylab ko’ring. Endi hayot falsafasi xaqida biroz to’xtalib o’tamiz. Hayot – bamisoli qo’limizdagи besh barmoq kabidir desak, u xolda quyidagi o’xshatushlar o’rinli bo’lishi mumkin:

- Bosh barmoq – sog’liq.
- Ko’rsatkich barmoq - ish.
- O’rta barmoq – atrofdagilar bilan muloqot.
- Nomsiz barmoq – hayot mazmuni.

- Jimjiloq – moddiy ahvol

Masalan, jimjilog'ingiz og'rib qolsa: "Mayli, qolgan to'rt barmog'im sog'-ku" deb yuravermaysiz-ku. Butun qo'lingiz, butun tanangiz og'riydi. Xuddi shunday, pulingiz kam bo'lsa, bundan hayotingizning boshqa jabhalariga ham ziyon yetadi. Sifatli tibbiy yordam ololmaysiz, sevimli mashg'ulotingiz bilan shug'ullanolmaysiz, oxir-oqibat, shaxs sifatida rivojlanolmaysiz. Aynan pul yetishmasligi odamlarga o'zлari istagandek yashash imkonini bermaydi. Qashshoqlikdan qanday qutilish mumkin? Boylik jamg'arishni kim o'rgatadi? Albatta maktab yoki universitet emas. Tasavvur qiling-a, biror domla sizdan: "Qanday qilib qisqa vaqt ichida million dollar topish mumkin?" - deb so'rashi mumkin? Yoq, bizdan faqat allaqanday kimyoviy formulalar yoki falsafiy postulatlarni so'rashadi. Biz buyuk daholarning ismlari va yashagan davrlarini yoddan bilamiz. Qaysi jang qachon, qaerda bo'lgani va qanday natija bilan tugaganini ko'zimizni yumib aytib beramiz. Ammo hech kim yoshlarga qanday qilib pul topish, moddiy mustaqillikka erishish, kapital jamg'arish haqida saboq bermaydi. Xuddi biz o'sha formulalarsiz yashay olmaymizu, pulsiz yashayveramiz. Xuddi pul topish degan tashvishning o'zi yoq, pul hech kimga kerak emas. Bugun hatto jinsiy tarbiya haqida ham pul topishdan ko'ra ko'proq gapirilayapti. Bu tarbiyaga qarshiligimiz yoq, albatta. Ammo yuqorida keltirilgan besh barmoq falsafasini eslang. Pul topish, topganda ham tovlamachilik qilmay, qonunni buzmay halol topish va boyib ketish haqida yosh avlodga tinmay saboq berish kerak. O'shandagina biz sabrsizlik bilan kutayotgan **BUYUK KELAJAK** keladi! Qo'lingizdagи kitobchada boylik qonuniyatlar, boy bolish usullari haqida gapiriladi. Bu qonuniyatlar pul paydo bo'lgandan beri amal qilib kelmoqda. Ularni bilasizmi, yoqmi – bu sizdan boshqa uchun ahamiyatli emas. Ular xuddi tortishish kushi kabi muqarrar va mavjud qonuniyatlar. Biz kitobchada "boylik", "pul", "davlat" kabi atamalarni ko'p ishlatalamiz. Ba'zilarga bu ma'qul kelmasligi, moddiyatga da'vat bo'lib tuyulishi mumkin. Shuning uchun o'quvchilarga bu kitobni taqdim etishdan asosiy maqsadimizni aytib o'tmoqchimiz: biz kelajagimizni chindan ham buyuk va farovon ko'rishni istaymiz. Biz o'zimiz va

farzandlarimiz bilimli, dono va hech kimdan kam bo'lmasligini istaymiz. Yana biz yoshlarimizning pul topish uchun ertadan kechgasha boshqalarga, boshqa davlatlarga ishlab berishini emas, iloji boricha oson va qulay yo'llar bilan moddiy mustaqillikka erishib, qolgan vaqtlarini o'z shaxslarini takomillashtirish va ma'naviyatlarini boyitishga, ona Vatanni rivojlantirishga sarflashlarini xohlaymiz. Biz yosh avlodni qorin to'ydirish dardi emas, farovon va to'kis hayot orzusi harakatlantirishi tarafдоримиз. Kitob ikki bobdan iborat bo'lib, birinchi bobda kambag'allik, ikkinchisida esa tabiiyki, boylik haqida so'z boradi. Sizga, aziz o'quvchi - pul daryo bo'lib oqib kelishini va ulardan hech qayerga qochib qutula olmaslikni tilaymiz.

## 1 BOB

### MUVAFFAQIYATNING TO'RT FUNDAMENTAL QONUNI

*Kimki befoyda umrin o'tkazdi,  
Hech narsa olmasdan, oltin ketkazdi.  
Sa'diy Sheroziy*

Yuqorida aytib o'tilgan fundamental sabab va oqibat qonunidan biznesning yana to'rtta asosiy qonuni kelib chiqadi:

- ***Ishonish qonuni*** – ya'ni siz qat'iy ishonch bilan kutgan va haqiqatan ham qalb tubi bilan ishonganingiz sizning real hayotingizga kirib keladi. Masalan, agar siz o'zingizni biror bir narsaga qodir emas deb, bunga qattiq ishonsangiz, u holda siz haqiqatan ham bunday ishni xech qachon qila olmaysiz, chunki bu ishoch sizning imkoniyatlaringizni o'ziga xos tarzda shegaralab qo'yadi. Aksincha, agar siz o'zingizni barcha narsaga qodir va aqlli deb bilsangiz, asta sekin xuddi shunday bo'lib qolasiz va istagan narsangizga erisha olasiz. Ushbu qonunni amalda qo'llash uchun o'z hayotingizning asosiy tarkibiy qismlsmini, ya'ni, oilaviy munosabatlarni, salomatlikni, ish faoliyatingizni, moliyaviy ahvolingizni yaxshlab o'rganing va undan so'ng, erishayotgan natijalarining hamda o'layotganiningiz, gapirayotganiningiz, xis qilayotganiningiz va nimalarnidir qilayotganiningiz

orasida qanday sabab-oqibat zanjiri mavjudligini topishga harakat qiling. Ammo bu ishni amalga oshirayotganingizda o'z-o'zingizga nisbatan xaqqoniy munosabatda bo'lisingiz talab etiladi. Bu ishni qilib bo'lgandan so'ng, absolyut xaqgo'ylik bilan bu dynyoda yashashdan maqsadingiz nima va unda sizning qanday ahamiyatingiz borligi xaqida fikrlab ko'ring. Xozirgi axvoli-xolizingizni qanday fikrlaringiz paydo qilgan va qo'llab-quvvatlab turibdi? Hayotingizning biror-bir tarafini o'zgartirishingiz uchun siz o'z firklash tarzingizga qanday o'zgartirishlar kiritishingiz mumkin? O'zingizni ikkilanishlar va qo'rquv xislaridan ozod qiling. Sizni olg'a qarab intilishdan to'xtatib turgan tuyg'ularni uloqtirib tashlang. Agar sizga bu borada maslahat kerak bo'lsa, o'zingiz xurmat qiladigan va ishonadigan insonlardan nimalar sizni o'potensial imkoniyatlaringizni namoyon qilishdan to'xtatib turishi mumkinligi xaqida so'rang.

- **Kutish qonuni** – ya'ni, siz nimanidir komil ishonch bilan va intiqib kutsangiz, xuddi o'sha siz tomoningizdan amalga oshirilgan bashoratday sodir bo'ladi. Haqiqatan ham siz o'z hayotingizning yaratuvchisidirsiz, chunki har tomonlama o'ylagan va ijodiy fikrlagan xolda nimanidir bajarasiz yoki nimadir yaratasiz. Siz ishonch va e'tiqod bilan yaxshi narsani kutsangiz, qandaydir yaxshilikka duch kelasiz va aksincha. Sizning munosabatlaringiz esa sizning atrofingizdagi insonlarga chuqur ta'sir qiladi. Biror bir shart-sharoitlarda siz insonlardan nimalarni kutayotganingiz ularga bo'lgan munosabatingizni aniqlab beradi. Atrofdagilar esa bamisoli ko'zguda aks etganidek, xuddi shu salbiy yoki ijobiy munosabatni sizga ham qaytaradilar. Shaxsiy hayotingizda ham siz o'z xodimlaringizdan, xo'jayinlardan, mijozlardan va xattoki kelajak orzularingiz xaqidagi kutganlaringiz ham aksariyat xollarda birdaniga amalga oshirilib qoladi. Demak, sizni yaxshilik yoki yomonlik xaqidagi fikr-o'ylaringiz va kutilmalarining insonlarga va xodisalarga juda katta

ta'sir ko'rsatadi – shuning uchun juda ehtiyoj bo'ling! Ushbu qonunni hayotingizda qo'llash uchun faqat yaxshilik xaqida o'ylang va yaxshilknigina kuting. O'z xodimlaringiz siz xaqingizda eng yaxshi tarzda o'ylashlarini faraz qiling. Ular yaxshi ishlamoqchi ekanliklarini, yaxshi echimlar topishga harakat qilishlarini va yaxshi natijalarga erishishga harakat qilishlarini faraz qiling hamda bunga ishoning. Oilangiz a'zolariga ham doimiy ravishda ularga juda ham ishonishingizni aytib, ularni sevishingizni va ular bilan faxrlanishingizni uqtiring. Chunki olimlarning tadqiqotlariga ko'ra (*AQSH Garvard universiteti professori Devis Mak-Klelland*) eng ajoyib insonlar va olimlar «pozitiv kutishlar» xukmron bo'lgan oilalardan kelib chiqar ekanlar. O'zingizdan ham eng yaxshi narsalarni kuting – men chegaralanmagan imkoniyatlarga ega insonman va istagan ishni qila olaman deb fikrlang. Kelajagim faqatgina mening tasavvurim bilan chegaralanadi va xozirgacha erishganlarim men erishishim mumkin bo'lganlarning kichik bir qismidir xolos deb ishoning. Hayotimning eng asosiy xodisalari xali oldinda va xozirgacha erishganlarimning barchasi men kelajakda erishishim kerak bo'lgan ishlar uchun tayyorgarlik deb faraz qiling.

- **Tortilish qonuni** – Siz bamisolli jonli magnitdirsiz – siz o'z fikrlaringiz bilan mos bo'lgan insonlarni, holatlarni va imkoniyatlarni o'z hayotingizga qamrab olaverasiz. Bu qonun shaxsiy hayotdagi va biznesdagi ko'pchilik muvaffaqiyatlarni hamda muvaffaqiyatsizliklarni o'ziga xos tarzda tushuntirib beradi. Bu qonun xaqida bundan besh ming yil avval qadimgi misrliklar qo'lyozmalarida aytib o'tilgan. U shundayin kuchli, quvvatli, barchani qamrab oluvshi va borliqqa singib ketuvchiki, u sizning barcha xattiharakatlaringiz, so'zlaringiz, hayolingiz va xissiyotlaringizga ta'sir qiladi. Agar siz o'z fikrlash tarzingizni o'zgartira olsangiz, o'z hayotingizni va o'zingizni ham shunga mos ravishda o'zgartira olasiz.

«*O'xshash narsa o'xshashga tortiladi*», «*Baliqshi baliqshini uzoqdan ko'radi*» degan maqollar xuddi shu qonunning turli xil ifodalanishidir. Sizning fikrlaringiz juda katta kuchga ega va bu ruhiy quvvat yorug'lik tezligi bilan harakatlanadi. Masalan, ba'zida biror bir yaqin kishingizni eslab tursangiz, birdan u sizga qo'ng'iroq qilib qoladi va siz «*Xizirni yo'qlasam bo'lar ekan*» deb quvonasiz. Bu tasodify emas, chunki u inson sizning ruhiy tebranish chastotangizga mos bo'lgani uchun vaqt-fazo doirasida sizning ruhiy signalingizni qabul qilgan va darhol sizga qo'ng'iroq qilgan. Bu qonunni hayotingizda qo'llash uchun, o'zingizni-o'zingiz yaxshilab o'rganing va tegishli xulosalar chiqaring. Atrof-muhitga yaxshilab nazar tashlang va u sizning fikrlaringiz bilan qanchalik mos kelishligini tekshirib ko'ring. Siz bilan ro'y berayotgan barcha yaxshi-yomon voqeа-xodisalar uchun mas'uliyatni o'z zimmangizga oling. Bularning barchasini sizning o'zingiz o'z hayotingizga tortib olgansiz. Yomon voqeа-xodisotlarni aniqlang va ularni yo'qotish uchun nima qilmoqchi bo'lganligingizni o'ylang. O'z ichki dunyoingizga nazar tashlang va o'zingizga «*Mendagi bu holatni nimalar yuzaga keltirdi?*» degan savol bering. Bunda siz o'zingizning va o'z taqdiringizning yaratguvchisi faqat o'zingiz ekanligingiz tamoiliga tayaning. Endi ushbu savolga javob izlang: «*Men o'z hayotimni yaxshilash va unga o'zgartirishlar kiritish uchun fikrlash tarzimga qanday o'zgartirishlar kiritishim kerak?*»

- ***Mos kelish qonuni*** – Sizning ichki dunyoingiz, sizning tashqi dunyoingizning aks etishidir va u sizning fikrlash tarzingiz asosiy ko'rsatgishlariga aynan mos keladi. Xuddi shu qonun baxtlilik va baxtsizlikni, omad va omadsizlikni, ulug'lik va hayotning bo'm-bo'shligining sabablarini tushuntirib beradi. Demak siz o'z hayotingizdagi nimanidir o'zgartirmoqchi bo'lsangiz, o'zingizni ichki «*Men*» ningizning holatini o'zgartirishingiz kerak bo'ladi. Buni

ko'pincha «ruhyi ekvivalent» deb ataydilar. Sizning hayotdagি eng asosiy ishingiz – real dunyoda erishishni istayotgan holatlaringizning ruhiy ekvivalentini o'z ichki dunyoingizda yaratishdan iboratdir. Sizning ruhiy holatingiz, sog'ligingiz va moddiy ahvolingiz siz ko'pchilik vaqt mobaynidagi fikr-o'ylaringiz va orzularingizning aksidir. Bu holatni ko'pchilik tuchunmaydi yoki qabul qila olmaydi, chunki ular o'z hayotiy muammolari boshqa insonlar tomonidan va tashqi holatlar orqali vujudga kelgan deb xisoblaydilar. Agar ularga, siz bilan ro'y berayotgan barcha holatlar o'zingiz tufayli ro'y bergen, deyilsa, ular qattiq ranjib qolishlari mumkin. Ular boshqalarning o'zgarishlarini istaydilar va o'zlarining o'zgarishlarini hech ham istamaydilar. Faqatgina o'zingiz istayotgan holatlar xaqida fikrlash va so'zlash orqali hamda istamayotgan holatlar xaqida o'ylashdan voz kechish orqaligina siz o'z taqdiringizning yaratuvshisi o'zingiz bo'lisingiz mumkin. Bu qonunni o'z hayotingizda qo'llash uchun o'zingizning tashqi dunyoingiz bilan ichki dunyoingizni xaqqoniy tarzda solishtiring va ularagi o'xshashliklarni topishga harakat qiling. Sizning tadbirkorlik faoliyattingizdagi yoki ish joyingizdagi joriy holat - tashkilotga nisbatan, xodimlarga nisbatan, do'stlaringiz va ko'rsatilayotgan xizmatlarga nisbatan munosabatingizda qanday tarzda aks etadi? Shu bugundan boshlab, o'zingiz intilayotgan hayot tarzi ruhiy ekvivalentini iloji borisha to'liq xolda o'z tafakkuringizda yarating. Sizning biznesingiz va ish faoliyattingiz barcha jabhalarda ideal ekanligini aniq va yorqin holatda tasavvur qiling. Xaqiqiy hayotda erishishni istagan holatlarni ichki dunyoingizda yaratish uchun o'z fikrlash tarzingizga qanday o'zgartirishlar kiritishingiz kerak? Unutmang: Agar siz o'z fikrlashingizning sifatini o'zgartira olsangiz, demak siz o'z hayotingiz sifatini ham yaxshi tomonga o'zgartira olasiz!

## **1.1. QASHSHOQLIK SABABLARI**

«Yaxshilar yonida yurgil sen o'zing,  
Dur bo'lzin doimo so'zlagan so'zing,  
Olimlarni uqsang ochilar ko'zing,  
Johilni tinlasang, ko'rdek bo'larsan».  
*Maxtumquli*

Keling, siz bilan savol-javob o'ynini o'ynab ko'ramiz. Savollarni aziz o'quvshi, men beraman. Javoblarni esa siz menga emas, o'zingizga bering. Demak,

- Maoshdan maoshga yashash joningizga tegdimi?
- Topayotgan pulingiz ehtiyojlaringizni qondirishga yetmayaptimi?
- Yo'qchilik sabab oilangizda janjallar bo'lib turadimi?
- Pul yo'qligidan orzularingizni amalga oshira olmayapsizmi?

Agar ushbu savollarga 4 marta “ha” javobini bergan bo'lsangiz, bu kitobcha aynan siz uchun! Sotsiologlar qiziq bir holatni qayd etadilar: pul haqidagi suhbatlar odamlarda muhabbat haqidagi suhbatlardan ham ko'proq qiziqish uyg'otadi. Sabab nimada? 1998 yil Daniyalik sotsiologlar aholi orasida: “Pul siz uchun nima? U sizga nima beradi? Pul – ezgulikmi yoki yomonlik? ” – degan savollar bilan so'rov o'tkazishdi va shunday javoblarni olishdi:

- Pul – bu ozodlik, boshqa odamlarga qaram bo'lmaslik imkoniyati.
- Pul haq to'lanadigan emas, ko'nglingga yoqqan mashg'ulot bilan shug'ullanish imkonini beradi.
- Pul orzularni ro'yobga chiqarishga yordam beradi.
- Pul turli qulayliklar taqdim etadi, turmushni go'zallashtiradi.
- Pul qariganda farovon hayotni ta'minlaydi.
- Pul – bu yaqinlarimizga, ota-onamiz, farzandlarimiz, akakalarimiz va do'stlarimizga yordam berish imkoniyatini yaratadi.
- Pul farzndlarga yaxshi ta'lim berish imkonini yaratadi.

Shu bilan birga bir qancha salbiy fikrlar ham bo'lgan.

Masalan:

- Pul – bu johillik
- Pul yaqin insonlar orasiga nizo soladi.
- Pul nafsga erk beradi.
- Agar pul ko’p bo’lsa, halovat yo’qoladi. Ertayu kesh uni yoqotib qo’yishdan qurqib yashaysan.
- Pul boshqa hamma qadriyatlarni unutishga majbur qiladi.
- Pul odamlarni xasis va ochko’z qilib qoyadi.

Yuqorida keltirilgan ijtimoiy so’rov natijalarining hech biri haqiqatdan holi emas. Ammo bulardan quyidagi umumiy xulosaga kelish mumkin: pul – bu ko’zgu. Unda insonning yaxshi va yomon tomonlari aks etadi. Uning vositasida insondagi salbiy va ijobiy jihatlar yuzaga chiqadi. Bas, shunday ekan, fazilatlarimiz uqsurularimiz o’zimizniki va pulning ularga aslo aloqasi yo’q.

Hammamizning ichimizda bir vaqtning o’zida ham badavlat, ham qashshoq inson yashaydi. Biri “O’ladigan dunyoda yashab qolish kerak”, desa, boshqasi “O’pkangni bos, boridan ham ayrilib qolma” deya shivirlaydi. Ko’pchilik ana shu qarama-qarshiliklar orasida to’g’ri qaror qabul qila olmagani uchun ham omadsizlikka duch keladi. Ha-ha, lotoreyada omadi kelmagani, bankrotlikka uchragani, mahsulotiga haridor yoqligi, ishiga kam haq to’langani … uchun emas, aynan boylikning ruhiyatini tushunmagani, qabul qila olmagani uchun ham autsayderga aylanadi.

Ko’pchilik uchun pul – XX1 asrning sehrli tayoqchasi deyishimiz ham mumkin.

Bizda hamon ko’pchilik boylikni Yaratgan faqat suygan bandalariga beradi, degan fikrga qat’iy ishonishadi. Yaratganning: “Sendan – harakat, mendan - barakat”, - deganini ko’pincha ataylab e’tibordan qochiramiz.

Ammo so’zimiz avvalida Eynshteynning: “Xudo Olam bilan oshiq o’ynamaydi” degan fikrini bekorga keltirmadik. Puldor bo’lish yoki bo’lmaslik faqat sizning qaroringizga bog’lik. Xo’sh, kim bo’lishni istaysiz: badavlatmi yoki qashshoq? Ko’p narsa sizga va sizning yillar davomida shakillanib kelgan pul bilan munosabatingizga bog’lik. Siz nima deb o’ylaysiz? Siz bu munosabatni qanday

amalga oshirasiz? Bular pul bilan munosabatda ko'p narsani belgilab beruvchi savollardir.

Yodda tuting: boylikning o'ziga yarasha qonunlari bor. Bu qonunlarning ahamiyati butun olam tortishish qonuninikidan kam emas. Bu hukm bu yerda ham xuddi suddagi kabi yagona: qonunni bilmaslik javobgarlikdan ozod etmaydi. Boylik qonunlarini bilmaslik qashshoqlik balosidan xalos etmaydi. Dunyoda pul ko'p. Siz o'ylaganingizdanam ko'proq. Hamma gap ularning qanday qilib aynan sizning hamyoningiz va hisob raqamingizga kelib tushishini ta'minlashda.

Xa, ko'pchilikni o'sha mashhur savol hamisha qiynaydi: qanday qilib ko'p pul topish mumkin? Ammo bilibmi, bilmaymi, faqatgina boylik qonuniyatlariga amal qilganlargina bunga javob topa biladilar.

Prosper Merimening "Tamango" degan juda qiziq va ibratli hikoyasi bor. Unda quldorlik davridagi voqeа bayon qilinadi:

*"Qul savdogarlari bir guruh zanjilarni tutib, qul qilib sotish uchun kemada Afrikadan Amerikaga olib ketadilar. Ular orasida Tamango isimli zanjilar sardori ham bor edi. Yo'lda Tamango qullarni oyoqqa turgaizib, isyon ko'taradi va ekipaj a'zolarini mahv etib, boshqaruvni qo'liga oladi. Endi ular orqaga – Vatanga qaytib ketishi mumkin edi. Tamango kemani boshqarmoqshi bo'ladi. Ammo bu borada hech qanday bilimi va malakasi yo'qligidan, boshqarish qonuniyatlarini bilmaganidan, oz bo'lmasa kemani cho'ktirib yuboray deydi"*

Xuddi shunday, boylik dengiziga safarga shiqqanlar ham ko'pincha zarur qonuniyatlarini bilmaganlarini uchun muvaffaqiyatsizlikka uchraydilar. Mutaxassislar buni Tamango sindromi deydilar. Bunga duchor bo'lmaslik uchun bilmagan ishingizga qo'l urmang, aksincha, avvalo nima qilishingiz kerakligini yahshilab bilib oling.

Nima deb o'ylaysiz, avtomobil uch, ikki va hatto bir g'ildiragi bo'lmasa, harakatlana oladimi? Jamiyat hayoti, inson hayoti ham avtomobil kabi va moddiyat uning bir g'ildiragidir.

Shuningdek, pul ishlab topishning o'zi ham alohida bir mashina. Uning **birinchi g'ildiragi** – ichki ishonch va safarbarlik. Aynan shu ishonch sizning

kelajak amallaringiz muvaffaqiyatini ta'minlaydi. Faqat iqtidorli bo'lish, hatto o'ta iqtidorli bo'lish ham maqsadga erishish uchun yetarli emas. O'zingizga ishonishingiz, qa'tiyatli va sabrli bo'lishingiz, maqsadga tomon dadil harakatlanishingiz va xuddi ilon kabi egiluvchan bo'lishingiz kerak.

*"Bir kuni bir donishmand do'stinikiga mehmonga kiribdi. Do'sti sharob ichib o'tirgan ekan, unga ham quymoqchi bo'libdi. Shunda donishmand piyolasini tortib olibdi va bir necha tomshi sharob dasturxonga to'kilibdi. Do'sti: "Nima gap?" – dep so'rabdi. Shunda u: "Bilib quy, quyadigan idish bo'lmasa, sharobni qancha quyganning bilan befoyda – baribir men uni icholmayman. Bu sharob ichmaslikning eng to'g'ri yo'li" – debdi".* Agar bu rivoyatga biz so'ylayotgan mavzu nuqtai nazaridan qarasak, o'zimizga yarasha xulosani chiqarishimiz mumkin. Inson o'zini yaxshi bilmasa, hech qachon o'zini yaxshi nazorat qila olmaydi. Demak, muvaffaqiyatga erisha olmaydi. Unda boylik quyiladigan piyola bo'lmaydi. Yoki o'zi bilib-bilmay bu piyolani oqib kelayotgan boylikka tutmaydi.

Mashinaning **ikkinchi g'ildiragi** - pul bilan to'g'ri muloqot qila bilish qobiliyati. Nega ko'p tadbirkorlar ish boshida ko'p mablag'ga ega bo'la turib, tez orada sinadilar? Chunki ular pul bilan muloqotning oddiy qoidalarini bilmaydilar.

**Uchinshi g'ildirak** – atrofdagilarga ta'sir o'tkaza bilish qobiliyati. Pulni havodan emas, o'zimizga o'xshagan odamlardan olamiz. Qanday qilib? Buning uchun ular bilan to'g'ri muloqot qilish, ularga ta'sir o'tkazish usullarini bilishimiz darkor. Boylik ulovining **to'rtinshi va eng so'nggi g'ildiragi** – o'ylash san'ati. Taqdir hech kimga davlatni shunchaki berib qo'ymaydi. Pul rivojlangan aql va sog'lom fikrni qadrlaydi. Haqiqatda aqli odamlarga hamisha omad yor bo'ladi. Miyangizni ishlating, kelajagingiz albatta farovon bo'ladi! Va nihoyat, yodda tuting, mashina faqat to'rt g'ildirakda yuradi. Yuqorida aytib o'tilgan to'rt omilning hech birini e'tiborsiz qoldirmang.

**Harakat qiling!** Harakat qilish – muvaffaqiyatning birinchi va asosiy sharti. Pul o'z-o'zidan kelmaydi. Qo'rquv va dangasalikni bir chetga yig'ishtirib qo'yib, sizga atalgan millionlar tomon harakatni boshlang. Shu payitgacha sizni chalg'itayotgan fikrlar, odatlar, afsonalardan voz keching. Betakror va o'ziga xos

bo'ling. Xatolardan qo'rwmang, ulardan o'rganishga odatlaning. Imkoniyatlarning esa, bitta qo'y may hammasidan foydalaning.

## 1.2. QASHSHOQLIK VA BOYLIK

«*Kimga yoshligidan berilmas odob,  
Ulg'aygach bo'ladi baxtsiz, dili g'ash.  
Ho'l novda egilar qay xilda egsang,  
Quruqni to'g'rilar faqat o't-otash».  
Sa'diy Sheroziy*

Nega endi boylik haqidagi kitobni aynan qashshoqlik to'g'risidagi gaplar bilan boshladik? Chunki aynan ochlik va yupunlik hislari odamzodni harakat qilishga, o'zi uchun ilk qulayliklarni yaratishga, ya'ni olovni kashf etishga, qo'liga tayoq olib ovga chiqishga majbur qilgan. Faqat shunung uchungina u yashab qolgan va bugungi kunda bizning ajdodimizga aylangan. Qashshoqlik qadimgi zamonlardan mavjud holat. Qashshoq odam – bu “start” yozuvi oldida turgan yuguruvchiga oxshaydi. Yoki uni boyish usullarini topa olmayotgan omadsiz insonga o'xshatish mumkin. Demak, hammasi uning o'ziga bog'lik. U istalgan vaqtida vaziyatni o'z foydasiga o'zgartirishi mumkin.

Ko'pchilikka qashshoqlikda yashash va boylik haqida orzu qilish yoqadi. Ha, shunaqa paradoks mavjud. Chunki kambag'al bo'lish oson – hech narsang yoq, demak, hech qanday harakat qilish ham kerak emas. Kambag'allar hamisha liberal bo'lishadi. Ularadolatsizlik, olamning nomikammalligi haqida gapirishni yahshi ko'rishadi. Ularning butun hayoti “uchma-uch yashash” prinsipida kechadi.

Yana kambag'allar kam xato qilishadi. Chunki kam harakat qilishadi-da. Xatosi kam odam esa ko'pchilikka yoqadi. Mana, “nega boylarni yomon ko'ramiz” degan savolga ham javob chiqdi. Kambag'allarni Xudo asraydi, boylar esa o'zlarini asrashlari kerak. Ammo bir narsaga tuchunmayman: O'z-o'zingizni asrash imkoniyatingiz mavjud bo'la turib, nega endi bu vazifani ham Xudoning zimmasiga yuklaysiz? Dunyoda gunohkorlar – “millionerlar”ni sanab chiqish mumkin. Nega ular buncha kam? Nahotki hamma gunohdan qo'rqqani uchungina boyimayotgan bo'lsa? Nega ular qatoriga qo'shilish buncha qiyin? Nega hamma ham boyish imkoniyatidan foydalanmaydi? Axir boy bo'lish hammaning ham qo'lidan keladi-ku? Bu savollarimizga keyingi bobda javob qidirib ko'ramiz.

### **1.3. QASHSHOQLIK G'YASI**

«Aytadilarki, pulga hirs qo'yish barcha balolarning boshidir.  
Ammo xuddi shu fikrni pulsizlik haqida ham aytish mumkin».

S. Batler

Agar kambag'al odamdan: “Nega farovon yashashni uddalay olmayapsan?”, - deb so'rasangiz, savolningizga yaxsигina javob topib beradi. Har bir kambag'alning o'zini oqlash uchun bahonasi bor. Kimdir: “Taqdirim shu ekan. Omadim kelmayapti!”, - deydi. Yana birov mamlakatdagi ahvolni ro'kach qiladi. Uchinchisi boy bo'lish istagi yo'qligini aytadi. Kimdir ota-onasiga aybni yuklaydi, menga yaxshi ta'lim-tarbiya bera olishmagan deydi. Ko'pchilik mакtabda berilayotgan ta'limning no-to'g'riligidan noliydi: axir u yerda pul topishni o'rgatishmaydi-da! Kambag'allar orasida o'zining ayanchli ahvolini oqlash borasida professional darajasiga ko'tarilganlar ham bor. Ular bu haqida kitob yozsalar ham arziydi. Masalan, mana bundaylar:

*Pessimist, daydi va qo'rqoq uchrashib qolishibdi. Gap aylanib boy bo'lish naqadar qiyin, degan mavzuga kelib taqalibdi.*

*Pessimist aytarmish:*

- *Nima desalar ham, men boshlang'ish kapitalsiz halol yo'l bilan boyib ketish mumkinligiga ishonmayman.*

*Bunga javoban qo'rqoq:*

- *Xa, yana soliqlar, qurollangan bosqinchi-o'g'rilar... Naqadar qo'rqinchli!*

*Daydi ularni eshitib turib, shunday dermish:*

- *Men umuman pul topishni istamayman. Ahvolim shudog'am yaxshi.*

Ha, odam harakat qilmayman desa, bunga istaganicha bahona topishi mumkin. Yana inson tabiat shundayki, u boshiga yog'ilgan balolarda hamisha boshqalarni ayblaydi, zinhor o'zini emas. Ho'sh, odamlarning kambag'al yashashiga kim ayibdor? Agar kimdir boyib ketmayotgan ekan, bunga birinchi navbatda mamlakatdagi muammolar, ta'lim tizimidagi kamchiliklar emas, avvalo o'zining tafakkuridagi tartibsizliklar sababdir. Qolgan sabablar keyingi o'rinda turadi.

Pulga munosabat qanday shakillanadi? Ko'pincha u ota-onangiz va atrofingizdagilarning sizga ko'rsatgan ibrati orqali tarbiyalanib boradi. Ularning pul haqida qanday o'yashlari va uni qanday sarflashlari bolaligingizdanoq sizda pulga munosabatni shakillantirib boradi. Va albatta, o'zingizning orzularingiz va shaxsingizga bergan bahongiz, ishonchingiz ham bu borada muhim ahamiyatga ega. Pul masalasida farzandlarga uch xil tarbiya beriladi:

1. "Pul yomon narsa. Usiz ham yashasa bo'laveradi".
2. "Pul? U nima o'zi?" (ya'ni ota-onalar ma'lum yoshga yetguncha bolalar pul nimaligini umuman bilmaganlari ma'qul, deb hisoblaydilar, xuddi jinsiy tarbiya kabi)
3. "Pul – bu jiddiy masala. Uni ishlatalishni bilish kerak". Bu – eng to'g'ri tarbiya.

Ko'p insonlarning ongi yoshligidanoq qashshoqlikga taylorlanib boriladi. Maktabda "pul qayerdan paydo bo'ladi?" degan savolga javob berilmaydi. Shuning uchun bola maktabni pul haqida unga qadam qo'yanidagi kabi sodda va ko'pincha noto'g'ri tasavvurlar bilan bitirib ketadi. U butun umr pul haqidagi oddiy, ammo juda muhim tushunchalardan bexabar yashayverishi mumkin. Oqibatda nima xoxlayotganini o'zi ham bilmaydigan noshudga aylanadi-qoladi. Nima xohlashini bilmagan odam, nima qilishni ham bilmaydi. Natijada, boshqalar uchun ishlab o'taveradi.

*Bir kambag'al dehqondan kuzda qancha hosil olganini so'rashibdi.*

- *Hech qancha – javob beribdi u. – Bahorda menga yozda qattiq do'l bo'lishi mumkinligini aytishgandi. Shuning uchun hech narsa ekmadim.*
- *Xo'sh, do'l bo'ldimi?*
- *Bo'ldi-yu, ammo xosilga yomon ta'sir etadigan darajada emas.*
- *Unda qishga nimani g'amlading?*
- *Ochlik va sovuqni.*

Tagi teshilgan etikda yurib, haroba uyda yashab, inson asta-sekin qashshoqlikka ko'nikib qolishi mumkin. O'zining qashshoqligiga dunyoni va odamlarni ayblaverib, oxiri o'zi bilan o'zi ovora maydakash, alamzada insonga aylanadi.

Kuzatib turib, odamlarning ko'pchiligi butun umr o'zini-o'zi qashshoqlashtirib borayotganiga guvoh bo'lismumkin. Ular g'ayrishuuriy tarzda kambag'allik odatlariga amal qilib boradilar. Arzimas haq to'lanadigan ish uchun jonlarini jabborga berib ishlaydilar. Aslida esa aksincha bo'lib, o'ynab-kulib qilgan ishlari uchun katta pul olishlari lozim edi. Ular keng tarqalgan, ammo noto'g'ri bir qoidaga amal qiladilar, ya'ni "boshqalar mening mehnatim bahosi qanchaligini biladilar" deb o'ylaydilar. Ular pul jamg'arish nima ekanligi haqida umuman tasavvurga ega emaslar. Topilgan mablag'ni darhol joy-joyiga sarflash – mana ularning asosiy shiorlari. Pulni biror ishga jalb qilish, aylantirib, foyda olish haqida-ku, umuman gapirmasa ham bo'ladi. Pulini topgan zahoti mayda-chuydalarga sarflab yuboradiganlarda moliyaviy investisiya uchun imkon ham bo'lmaydi-da! Qashshoq odam aqli bo'lishi ham mumkin, ammo uning aqli teskari ishlaydi. Qashshoqlik psixologiyasiga ega odam "bugun yoki kelajakda nima qilaman?" deb emas, "O'shanda (o'tgan zamonda) nima qilishim kerak edi-yu, qilganimda nima bo'lardi?" tarzida, ya'ni kelajak haqida emas, ko'proq o'tmish haqida o'ylaydi (*regressive tafakkur*). Eng yomoni, bu vaziyat uni butkul qoniqtiradi ham. Ko'pchilik ana shunday xato fikrlar sabab hayot ummonidan chetga chiqib qoladi. Aslida mablag'ni kun sayin ko'paytirib borish juda ham mushkul ish emas. Ammo hech narsa qilmay, qo'l qovushtirib o'tirish baribir osonroq-da! Har oyda ma'lum mablag'ni tejab borish nahotki shunchar qiyin bo'lsa? Yo'q, unday emas. Ammo bir necha lahzalik lazzat uchun pul sarflash osonroq-da... Millioner odam hech qachon "katta pul topish mumkin emas", deb o'ylamaydi. Kambag'al odam esa kichik miqdordagi pulni topish osonroq, deb o'ylaydi. Bir kuni internetdan qiziq bir voqeani o'qigandim.

*Bir Meksikalik ishchining oldiga amerikaliklar kelib, uni qurilish ishlariga yollamoqchi ekanliklarini aytishibdi. Ish u qadar qiyin emas, bor-yo'g'i sement, qum, taxtalarni tashib keltirish kerak edi. Buning uchun yaxshigina haq*

*to'lashga va'da berishibdi. Shunda haligi Meksikalik xotiniga yuzlanib, so'rabdi:*

- *Xotin, uyda mosh, loviya bormi?*
- *Ha.*
- *Go'sht-chi?*
- *Ozroq bor.*
- *Unda ishlamasam ham bo'lar ekan.*

Ammo ertaga mosh ham, go'sht ham tugashi mumkin. Unga taklif etilayotgan o'rinda esa endi boshqa birov bo'ladi. Qashshoqlik psixologiyasi bungacha o'ylash imkonini bermaydi. Asosiysi, qora qozoni qaynab tursa bo'ldi.

O'ylab ko'ring, so'nggi yil davomida ko'proq pul topish uchun, daromadingizni orttirish uchun nima qildingiz? So'nggi oy davomida-shi? Men aynan amaliy harakatni nazarda tutayapman, orzularu rejalarini emas. Eslay olmayapsizmi? Mana sizning muammoingiz qayerda! Mana – ichingizdagি sizni tark etishni istamayotgan qashshoqlik! Siz o'zingizni boylikdan ayirib turgan to'siqdan hatlab o'ting. Kimlargadir nisbatan ahvolingiz yaxshiligi haqidagi hayollarga chek qo'ying. Endi sizning shioringiz: "Ulardan nimam kam?" bo'lmog'i kerak. Hayot tarzingizni tubdan o'zgartirishga jazm eting. Yodingizdam, bolaligingizda ilk qadamlaringizni qo'yayotganingizda ko'p qoqilib, yiqilgandingiz. O'shanda biror yeringiz ko'karishi yoki tilinishidan qo'rwmagandingiz-ku. Aksar boylar hammasini "nol" dan boshlashgan. Ular o'z maqsadlariga yetgunlaricha uzoq va qiyin yo'lni bosib o'tganlar. Ammo ular o'sha boshlang'ish nuqtadan ilgarilay oldilar va endi cho'qqida turibdilar. *Bo'lajak milliarder Rokfellerning ko'chadan bir dollar topib olgani haqida yarim afsonaviy hikoya bor. U bu dollarni yeb yoki ichib yubormadi, unga oyoq-kiyim tozalaydigan cho'tka sotib oldi. Keyin badavlat odamlarning oyoq kiyimlarini tozalay boshladi. Shunday qilib u boshlang'ich kapitalini jamg'argandi.* Bu tasodifan paydo bo'lgan pullarni qanday sarflash kerakligi haqida ibratli hikoyadir. Qo'lingizda kutilmaganda katta mablag' paydo bo'lib qolishi mumkin. Xalqda buni "ahmoq pullar" deyishadi. Asosiysi, ularni to'g'ri ishlata biling. Boshlang'ich katta kapitalga ega bo'lganlarning ko'pchiligi

bugunga kelib hech kim emas. Chunki ular qo'llarida bor imkoniyatini, boshlariga qo'ngan omad qushini uchirib yuborganlar, ya'ni pul sarflashni bilmaganlar. Sportchi, fotomodel, estrada qo'shiqchilarni oling. Bu kasblarning umri uzoq emas, ammo daromadi katta. Lekin katta daromad olish, bu hali badavlat turmush kechirish degani emas. Dunyo tajribasidan ma'lumki, bunday yulduzlarning ko'pchiligi umrlarini ayanchli bir tarzda tugallaydilar. Chunki ular pul sarflashni bilishgan, uni ko'paytirishni esa bilishmagan. *Pele bilan bir komandada Garincha ismli bir futbolchi ham o'ynardi. Uning Peledan hech kam joyi yo'q, ba'zi o'rinnlarda undan ustun ham edi. Ammo Pele futbolni tugatib, nafaqaga chiqqach, pullarni foydali biznesga jalg qildi ("Caffe Pele"ning reklamasini eslaysizmi?) va farog'atda yashab yuribdi. Garincha esa pullarni ichib tugatdi va umrining oxirini ko'chalarda daydib o'tkazishga majbur bo'ldi.* Teng imkoniyatlarga ega bo'la turib, ularning biri pul topishni va ishlatishni bildi, boshqasi esa faqat sarflashni. Xa, odam qashshoqlik psixologiyasiga ega bo'lsa, hech nima qila olmas ekan. Faqat pul sarflashi mumkin holos. Pullarni saqlab qolish uchun ularga munosabatingizni o'zgartirishingiz lozim. Faqat sarflash mumkin emas. Shuningdek, ko'proq olish imkoniyati bo'lgan joyda kamiga qanoat qilmaslik kerak. Tasavvur qiling, yer ostida pul dengizi bor. Undan pul buloqlari oqib chiqmoqda. O'zingizning bulog'ingizni toping va uning yonida quduq hosil qiling. Endi shu tasavvurni hayotga tadbiq etib ko'ring. Shunda ko'p o'tmay sizda nafaqat pul qudug'i, balki pul ombori ham paydo bo'ladi. Menga atrofdagilar yoki xukumat yordam beradi deb o'ylayapsizmi? Bekorga umid qilayapsiz! Pul topish – sizning muammoingiz. Sizning farovon yashashingiz o'zingizdan boshqa hech kimga kerak emas. Ha, boshida yolg'iz bo'lasiz. Ammo... kuchingizni to'plang va oyoqqa turing!

## **1.4. BOYLIK VA BOYLAR XAQIDA**

«Dangasalik boylikning qizi va  
qashshoqlikning onasidir».  
Pyer Dekursel

Bir tarafdan qarasangiz, kambag’al yashash hech kimga yoqmaydi. Ammo ikkinchi tomondan, bizda azaldan badavlat kimsalarga allaqanday shubha bilan qarash odat tusiga kirgan. Keling, ana shu qiziq holatni bir o’rganib ko’ramiz.

Men ham Qashshoqlik, ishsizlik muammolarini o’rganish jarayonida ko’pgina yurtoshlarimizning badavlat, mulkdor kimsalarga nisbatan salbiy munosobatda ekanliklariga guvoh bo’lganman. Chunki odamlar ularni muttaham, yolg’onshi, firibgar, ko’pshilikning haqini yeydigan odam deb o’ylashadi. Mayli, har kimning gunoh-savobi o’ziga. Biz hozir boylarga nisbatan salbiy munosabatning sabablarini qidirib ko’ramiz.

- O’zbeklar – bag’r keng, mehribon halq. Hasad, ichqoralik dinimizda ham, urf-odatlarimizda ham salbiy baholanadi. Lekin boylarga nisbatan salbiy munosabat baribir mavjud. Buning bиринчи sababi, uzoq muddat davomida boybadavlat kimsalarning xalq ko’zi oldida turli xil noma’qul ishlarni qilayotganlari bo’lsa, ikkinchi sababi, ular bilan bogliq bo’lgan va yumushlarini bajaradigan savodsiz hamda omi kimsalarning xaddidan oshishidir.
- Biz O’zbekistonni ma’danlarga, yer osti va usti boyliklariga kon o’lka deb maqtanamiz va o’zimizsha bu ma’danlar, boyliklar har bir fuqaroga o’z-o’zidan foyda olib kelishi kerak, deb o’ylaymiz. Lekin hech qachon, hech narsa o’z-o’zidan kelmaydi. O’z-o’zidan kelgan boylik esa o’z-o’zidan yo’qoladi.
- Inson o’z muvaffaqiyatsizliklariga kimnidir ayibdor hisoblashi kerak. Yana unda doimo o’ziga nisbatan muxolif bir kimsani ko’rish extiyoji mavjud. Shunga ko’ra u moddiy jihatdan o’ziga o’xshamagan odamni dushman sifatida ko’radi. Ya’ni: “*Men bilan emasmisan, demak, menga dushmansan!*” Bu ham boylarni yomon ko’rishning bir sababidir.
- Xalqimizning serialarga o’chligi barchaga ma’lum. Ammo bizda yaratilgan va chet eldan oqib kelingan bir qancha teleseriallar tufayli boylar haqida biroz

noto'g'ri tasavvur paydo bo'ldi. Bunday seriallarni ko'ganda, boylik to'plash uchun albatta jinoiy faoliyatga qo'shilish kerak ekan, degan tushuncha paydo bo'lishi mumkin.

- Bizda shou biznes yulduzlari yoki mashhur sportshilarni hamma taniydi. Ammo katta tadbirkorlar haqida juda kam narsa bilamiz. Kim o'zi ular? Qanday qilib muvaffaqiyatga erishdilar? Bu savollarga javoblarni ko'pchilik bilmaydi. Tadbikorlarning o'zлari ham muvaffaqiyatlarining ommaga ko'rsatishni istamaydilar. Biznes sirimi yoki ko'z tegib qolishidan cho'chishmi – har holda bu sirlilik oqibatida ham odamlar boylik va boylar tuchunchasiga shubha bilan qaraydilar.
- Hayotiy misollar bilan Uzbekistonda o'z mehnati orqali boy bo'lganlar xaqidagi adabiyotlarning yo'qligi ham ular xaqida noto'g'ri tasavvurlarning tarqalishiga sabab bo'ladi.

Shunday bo'lsada, esi-xushi joyida bo'lган одам boylarni qanchalik yomon ko'rmasin, hech qachon katta pul topish imkoniyatidan voz kechmaydi. Demak, boylarga munosabatning o'zgarishi muqarrar. Chunki badavlat insonlar ko'payishi bilan, jamoatchilik fikri ham tubdan o'zgara boradi. Axir odam o'zini o'zi yomon ko'rishi mumkin emas-ku! **Shunday ekan, “boy” so'zini eshitib ijirg'anishni bas qiling-da, o'zingiz ham boyish harakatini boshlang!**

### ***1.5. QASHSHOQLIKKA ELTADIGAN ENG TO`GRI YO`L***

«Kambag'allik insonning qadrini shunchalik yerga uradiki,  
u hatto o'z fazilatlaridan ham hijolat tortadigan bo'lib qoladi».  
Vovenarg.

Har bir davlatda qashshoqlik bilan kurashishning o'ziga xos usullari bor. AQSHda 60-yilarning o'rtalarida kambag'allikka barham berish dasturi ishlab chiqilgan edi. Uning asosiy g'oyasi: kambag'allarga pul berish edi! Berishdi. Ammo kambagallar soni kamaymadi. Kamayishi mumkin ham emasdi. Shundagina AQSH jamiyati odamlarining pulga munosabatini to'g'ri yo'lga qo'yish orqaligina qashshoqliknii tugatish mumkinligini anglab yetdi.

Yevropada “kafolatlangan qashshoqlik” tushunchasi bor, ya'ni ishsizlik nafaqasi. Masalan, bunday nafaqaga kun ko'ruchchi Germaniya fuqarosida hamisha

uy-joy, televizor, bir shisha pivo va gamburger bo'ladi. Istanasang, qashshoq yashayver. Istamasang, yaxshiroq yashash uchun kurash. Ammo bu nafaqa joriy qilinishi bilan Yevropada ham qashshoqlar soni kamaymadi. Tayyor tekin tomoq insonni dangasa qilib qo'yadi, undan ma'suliyatni soqit qiladi.

### **Xo'sh, nega siz hamon qashshoqsiz?**

- Hamon vaziyatni o'zgartirish yo'lini topa olganingiz yo'q.
- Mavjud vaziyat sizni qoniqtiradi, hech nimani o'zgartirmoqchi emassiz.
- Xozirgi xolatingiz xaqida va kelajagingiz qanday bo'lishini yaxshilab fikrlamadingiz yoki buni istamaysiz.
- Axvolingizni yaxshilash borasida oldingizga aniq maqsadlar qo'yaningiz yo'q.

Bular qashshoqlikka eltadigan eng to`g`ri va magistral yo`ldir. Biz sizga bu yo`lni imkoniyat darajasida ko'rsatdik. Qaysi yo`ldan yurishni esa o'zingiz hal qilasiz albatta!

## **1.6. KAMBAG'ALLAR FALSAFASI**

«Ehtiyoj – bu bizning oltinchi hissimizdir.  
Ko'pincha u qolgan besh hisni bosib ketadi».  
*Moris Safr*

“Boylikning asosiy sharti – og'ir mehnat”. Shunga ko'ra qancha-qancha odamlar ertadan kechgacha tinim bilmay mehnat qiladilar va arzimas pul oladilar. O'qituvchilar, dehqonlar, shifokorlar dam olish kunlarisiz, ikki stavkalab ishlaydilar, ammo baribir farovon yashay olmaydilar. Albatta, mehnatsiz millionlarni topib bo'lmaydi. Ammo boshqalar uchun emas, o'zingiz uchun ishlamog'ingiz kerak. Yana sizni chalg'itayotgan afsonalardan xalos bo'lish va o'z qashshoqligingizni oqlashni bas qilishingiz kerak. Keling, boyib ketishingizga to'sqinlik qilayotgan ayrim xato qarashlarni aniqlashtirib olaylik.

### **1- afsona. “Toma-toma ko'l bo'lur”**

Xo'sh, ko'l bo'lib qoldimi? Hech bo'lmasa qozoningiz to'lgandir? Aniq bilamanki, yo'q. “Toma-toma ko'l bo'lur” maqoli kundalik turmushni amal – taql o'tkazish uchun qo'l keladi, shubhasiz. Lekin, harakat qilib, tomchini kuchli oqimga aylantirish imkonи har doim mavjud. Tomchiga tikilib o'tirish esa

odamzodni o’z taqdirining yaratuvchisiga emas, tomoshabinga aylantiradi. Hayot tomchilab o’tmaydi, oqadi-ketadi. Qozoningiz to’lib ulgurmasligi mumkin. Bu bilan maqsadni kattaroq qo’yavering, demoqchimiz.

**2-afsona. “Hamma narsaning to’lovi bor. Boylar ham yig’lashadi.”**

Qachon, qay holatda, asosiysi, nega yig’lashadi? Albatta, har doim emas. Qolaversa, ularning yig’isi qashshoqlarniki kabi mayda, kundalik tashvishlar oqibati emas. Asosiysi, pulingiz bo’lsa, hech bo’lmasa pulsizlik tashvishidan qutulasiz. Demak, yig’i uchun bitta sabab kamayadi. Siz hamma narsaning to’lovini o’ylab, qa’tiy tadbirdarga qo’l urishdan qo’rqasiz va oxir-oqibat yutqizasiz: butun umr tinmay ishlab, evaziga tiyin sanab yuraverasiz. To’lovlardan qo’rqmang. To’lash majburiyati yanada ko’proq ishlash va daromad topish ehtiyojini yuzaga keltiradi. Ehtiyoj esa ko’p narsaga qodir, ishonavering.

**3-afsona. “Qancha ko’p harajat qilsang, shuncha ko’p daromad topasan”**

Ochig’I, bu afsonaning haqiqatga yaqin jihatni bor. Buni avvalgi afsonaga raddiya berayotganimizda tilga oldik. Albatta, kerakli, yoqimli narsalar uchun pul sarflar ekansiz, g’ayrishuuriy tarzda pul topish payiga ham tushib qolasiz. Daromadning yangi manbalarini qidira boshlaysiz. Ammo harj qilayapmanmi, demak, daromad ham bo’ladi, qabilida yashashning bir xavfli jihatni bor: tez orada bir tiyinga zor bulib qolishingiz mumkin. Shuning uchun me’yorni unutmang.

**4-afsona “Xozir menga pul kerak emas, shuning uchun tavakkalchilik qilishni istamayman. Kerak bo’lganda amallab topaman”.**

Shunday hayollar bilan o’zini ovutib yashovchilar katta xato qilishadi. Chunki qashshoqlarning asosiy qo’rquvi – yangiliklar, o’zgarishlar. Ular tavakkal qilishdan, yangi ish boshlab, chuv tushib qolishdan, qisqasi, yutqazishdan qo’rqishadi. Axir, ish o’xshamay qolsa, shaxsiyatlarga zarba yetadi. Ishtiyoqlari battar so’nadi. Bora-bora oddiy ehtiyojkorlikdan yuzaga kelgan bu qo’rquv fojiyaga aylanib qoladi, hech qanday asos bo’lmasa ham, inson qo’rquvdan tashabbuskorlikni boy berib qo’yadi. Omadli bo’lishni xohlaysizmi? Unda qo’rquvingizni qo’rqiting, toki u sizni boshqa o’z domiga tortmasin.

**5-afsona. “Men taqvodor odamman. Boylik esa gunohlarni yetaklab keladi”.**

Ko'pchilikning fikrisha, islomda tilga olingan faqirlik, kamtarlik aynan moddiy ahvolga ta'alluqlidir. Ya'ni pul nafsni qondiruvshi vosita, nafsning kuyida yurish esa – gunoh. Xa, nafsning kuyiga yurish gunoh, lekin pulga boshqacha nazar bilan ham qarash mumkin-ku. Olaylik, mакtabda oquvchi faqat besh bahoga o'qishga intilsa, buni hech kim gunohga yo'ymaydi-ku. Pulga ham hayot maktabining iqtidor, tadbirkorlik, mahorat, professionalizm kabi fanlardan qo'yiladigan bahosi sifatida qarang. Qolaversa, hech bir diniy ta'limot, ayniqsa Islom, pulni qoralamagan, unga sig'inishni qoralagan. Pulga sig'inish esa odamlar bilan, yanada aniqrog'i, o'zingiz bilan kelisha olmaganingiz oqibatida yuzaga keladi. Demak, munosabatlarni to'g'ri yo'lga qo'ying va boying. Xudo sizni qo'llagay, albatta.

**6-affsona. “Boyish uchun o'lib-tirilib ishlash kerak. Men esa sog'lig'imni juda ham qadrlayman”.**

Albatta, mehnatsiz bir tiyin ham topib bo'lmaydi, millionlarni esa, ayniqsa. Oddiy ishchi ham, tadbirkor ham ertadan kechgacha tinmay mehnat qiladi. Lekin birinchi vaziyatda aziyat ko'proq. Bu borada shunday maqol bor : “Agar bir burda non yemoqchi bo'lsang, ertadan kechgacha ishla. Agar bir burda nonga moy surtib yemoqchi bo'lsang, ertadan kechgacha aql bilan ishla”. Mana – farq qayerda! Har nima bo'lganda ham o'zi uchin ishlash bilan birovning ishini qilish orasida farq katta. Sog'lik esa qimmbatbaho lazzat. Uning uchun ham haq to'plash kerak.

**7-affsona. “Men kamtar odamman. Mehnatimni atrofdagilarning o'zlarini baholashadi”.**

Xo'sh, mehnatni kim qilayapti, sizmi yoki “atrofdagilar”?! Nahotki, bahoingizni o'zingiz bilmaysiz, belgilay olmaysiz? Bilib qo'ying, odamlar o'z bahosini bilmaydiganlarga hamisha jon-jon deb kam haq berishadi.

**8-affsona. “Boy bo'lish uchun daromadli kasbga ega bo'lish kerak. Menda esa o'z vaqtida yaxshi o'qish imkoni bo'lмаган”.**

Boylig kasbga qarab kelmaydi. Dunyoda millioner advokatlar qatorida millionlab omadsiz huquqshunoslar ham ishlab yurishibdi. Shuningdek, qizil diplom bilan bozorda savdo qilayotgan mutaxasislaru, “Mersedes”da yurgan

ikkichilar ham talay. Muvaffaqiyat ko'proq sizning aqlingiz, qobiliyattingiz va mehnatsevarligingizga bog'lik. Buni aslo unutmang!

**9-afsona. “Pul – yovuzlikdir. Qancha ko’p pul topsak, shuncha ko’p boshqalarning rizqini qiyamiz”.**

Bu – noto'g'ri qarash. Aksincha, pul topish bilan biz atrofdagilarga yordam berish ikmoniga ega bo'lamiz. Yurtimizdagi turli xil jamgarmalarni, Nobel mukofotini, Kennedi jamg'armasini yoki Tereza ona xayriya tashkilotini eslang. Agar ular pul topmaganlarida nima bo'lar edi?

**10-afsona. “Biror ish boshlash uchun albatta katta miqdordagi merosga ega bo'lish kerak”.**

Bo'limgan gap, chunki boy bolish uchun merosning o'zi kifoya emas. Amalda hammasi boshqacha bo'ladi: qashshoq ruhiyatiga ega inson katta pulga erishganida ham hech narsa qila olmaydi. Aksincha, hamma ishni chippakka chiqaradi yoki boshqalarning chippakka chiqarishiga yo'l qo'yib beradi. Va natijada tez orada avvalgi qashshoq ahvoliga qaytadi. Xech qanday pul mablag'isiz, ajoyib g'oyasi bilangina boy-badavlat bo'lganlar yurtimizda ham, chet ellarda ham bisyor!

Mana sizni boy bo'lish imkoniyatidan ayirib turgan ruhiy to'siqlardan bir qanchasini tahlil qilib chiqdik. E'tibor bergen bo'lsangiz, bu hayollarning hech bo'lmasa bittasi boshingizdan kechgan. Siz ularni yenga olsangizgina, muvaffaqiyatga erishishingiz mumkin. Yo'qsa millionlar, milliardlar ham (ular xoh dollar shaklida bo'lsin, xoh yevro shaklida) sizni qashshoqlikdan qutqara olmaydi. Kambag'allik romantikasidan keskin ravishda voz keching, uning davri o'tdi. Xozirgi davrda biznes infratuzilmalari va kommunikatsion texnologiyalar shu qadar rivojlanganki, boy bo'lish ilgarigi davrlardan ko'ra ancha oson bo'lib qolgan. Yarating, jamg'aring, boying va o'zingizga, atrofdagilarga huzur baxsh eting. Bu sizning qo'lingizdan keladi!

## 1.7. Kambag'allikdan qutulish uchun “Nima qilmoq kerak?”

«*Shaxsan men qulupnayni qaymoqqa botirib eyishni yaxshi ko'raman,  
ammo baliqlar nimagadir chuvalchanglarni sevishadi.  
Shuning uchun baliq oviga qaymoq va qulupnay emas,  
chuvalchang g'amlab boraman».*  
*Deyl Karnegi.*

Keling, bolalikka qaytib, ertaklar olamiga biroz sayohat qilamiz:

*Yodimda o'sha damlar  
O'zi uchar gilamlar  
Tohir, Zuhra, yoriltosh,  
Oyni yaltirgan qosh . . .*

Yodingizdami? Sehrli tayoqcha-chi? Ertaklarda bular juda go'zal tasvirlanadi. Real hayotda esa hammasi biroz boshqacharoq, ya'ni xech narsa o'z-o'zidan paydo bo'lib qolmaydi. Ha, bu – noxush xabar. Ammo na iloj ...

Mana bunisi esa xushhabar: siz – o'zingiz uchun sehrli tayoqchasiz! Rost-da! Yana kim sizni omadli tadbirkor yoki hurmatga sazovor firma boshlig'i qilishi mumkin? Aristotel Onassis va Genri Ford, Este Lauder va Bill Geyts, Jon Rokfeller va Uorren Baffet – bugun dunyo taniydigan bu insonlar o'z-o'zlari uchun sehrli tayoqcha bo'la olgan edilar. Albatta, katta pulni topish uchun yaxshigina malaka va tayorgarlik zarur. Ammo natija bunga arzimaydimi?

Tasavvur qiling-a ...

- Sevgilingizga olmos ko'zli uzuk sovg'a qilganingizda, uning ko'zlarini...
- Ota-onangizni hajga olib borganingizda, ularning duoga ochilgan qo'llarini ...
- Farzandlaringizga: “Qayerda o'qishni istaysan: New Yorkdami yoki Garvardda? Balki Kembrijdadir? Tanla!” deganingizda, uning quvonchini ...
- Do'stlaringizni xashamatli uyingizda mehmon qilganingizda, ularning naqadar minnatdorligini ...

Tasavvur qilidingizmi? Ana shu daqiqalar uchun ham yashasang arziydi! Ammo bularning bari uchun pul kerak. Ka-a-a-atta mablag'!

Xo'sh, bu mablag'ni topish uchun nimangizni qurban qilishga tayyorsiz? Ummon ortiga xazina izlab safarga chiqa olasizmi? Bir ko'zingizga qora tasma bog'lab, qaroqchilik qilasizmi yo? Albatta bu bilan muammoni hal etolmaysiz. Ammo davlatga yetishish uchun bundan ham ko'proq shijoat va qattiyat talab qilinadi. Siz hali hayolingizga ham kelmagan sinovlarga duchor bo'lasiz: to'siqlar, shuhbalar va hatto ortga qaytish istagi. Bularni yengib o'tishga tayyor turing. Har qanday davlatda ham insonlarni ishga munosabatda 3 asosiy turga bo'lish mumkin:

1. ISHSIZLAR. Bu guruh har bir davlatda mavjud bo'lib, rasmiy statistika uni 8-10 foyiz atrofida belgilaydi. Norasmiysi biroz ko'proq. Mayli, hozir muhimi bu emas. Muhimi - ularni boqish uchun, masalan, AQSHda ishlab shiqilgan dastur nega kutilgan natijani bermadi? - degan savol.

2. JUMA SINDROMI EGALARI. Ya'ni ular ishsiz emaslar, ishlaydilar. Ammo amallab jumaga yetib olish, dam olish kunlari maza qilib hordiq chiqarish uchun shunchaki ishga borib-keladilar.

3. MEHNATKASHLAR. Ular ertadan kechgasha mehnat qiladilar va hayotlarini ishsiz tasavvur ham qilolmaydilar. Faqat kimdir o'zi uchun ishlaydi, yana kimdir esa birov uchun. Kimdir aql bilan, yana birov shunchaki ...

Biz aytgan potentsial boylarni ana shu oxirgi guruh orasidan topish mumkin.

Yana odamlarni pulga munosabatda quyidagi to'rt guruhga ajratish mumkin:

- Istamaydigan va uddalay olmaydiganlar;
- Uddalay olsalar-da, istamaydiganlar;
- Istaydigan, ammo uddalay olmaydiganlar;
- Istaydigan va uddalay oladiganlar

Bizning maslahatlarimiz oxirgi ikki guruh uchun. Boshqalar esa bu kitobni o'qib ovora bo'lishmasin.

Yana bir bor: "Pul topish uchun nimani qurban qila olaman?" degan savol ustida jiddiy bosh qotirib ko'ring. Farovonlik uyiga eltuvshi yo'l qisqa va oson emas. Pullar issiqligina uyingizdan tashqariga chqishingizni, qashshoq barqarorlikni tark etib, noqulayliklarga qaramay harakat qilshingizni talab etadi. Siz nimani

tanlaysiz: “och qornim – tinch qulog’im” mi yoki “jondan kechmasang, jonona qayda”? Tanlang!

Bordiyu farovon hayot tomon harakat qilishga qaror qilgudek bo’lsangiz, qiyinchiliklarga taylor turing. Birinchi martada o’hshamasligi ham mumkin. O’shanda yana qayta boshlashga kuch topishingiz kerak. Omad kulmasa, yana boshlang. Maslahatlarimizga amal qilib, aql bilan ish yuritsangiz, ijobiy natija albatta bo’ladi. Yillar davomida bor kuchingiz bilan ishлаshingizga to’g’ri keladi. Bunga tayyormisiz? Katta mablag’ topish – bu sizga sevgilingiz bilan istirohat bog’ida sayr etish emas. U sizni butkul o’zgarishga majbur qiladi. Bu – qonuniyat. Bugun farovon yashayotganlar ham bu kunlar uchun o’tmishda yaxshigina haq to’laganlar. Omad – bozordagi sotuvchi emas va u siz bilan savdolashib o’tirmaydi. Bu savdoda bayram munosabatlari bilan chegirmalar bo’lmaydi. Siz peshona teringiz va o’rni kelganda ko’z yoshlaringiz bilan uni sotib olasiz. Xa, yana bir gap: g’alaba uchun haq to’lar ekansiz, qaytimini kutmang! Xo’sh, bu savdoga tayyormisiz? Yuz yillar avval Amerika, Hindiston, Braziliyani kashf etgan kashshoflarni eslang. Ular ko’p qiyinchiliklar evaziga o’sha yerlarga etib borganlar. Bugungi kunga kelib esa ularning avloldlari bobolari qoldirgan merosga ega bo’lib, badavlat yashab yuribdilar. Ko’rib turganingizdek, pullar barcha zamonlarda ham faqat kuchli, tadbirkor, sabrli, va harakatchan odamlarni sevganlar. Yodda saqlang: nima yaxshiyu, nima yomon? - degan mulohazalar bilan bosh qotirib o’tirish orqali millionlarni jamg’arib bo’lmaydi. Siz maqsad tomon intiling, xatolardan qo’rqmang, ulardan saboq chiqaring. Maqsadga erishib, muvaffaqiyatli shaxs sifatida e’tirof qozonganingizdan so’ng qilgan ammallaringizning yaxshiyu yomon tomonlari haqida mushohada yurituvchilar ko’p topiladi. Balki siz haqingizda kitob ham yozishar. Mayli, bular hozir muhim emas. Muhimi ayni damdagи harakatingiz. Yodda tuting: pul nozli yorga o’xshaydi. Ozgina e’tiboringiz bo’lindimi – tamom! Sizdan yuzini o’giradi.

Qashshoqlik botqog’idan chiqib ketish uchun o’zingizga nisbatan biroz shafqatsiz bo’lishingiz, ozgina joningizni koyitishingiz kerak. Faqat mo’ljalni baland olgan odamgina oxir-oqibat millioner, milliarder bo’lishi mumkin.

“Xudoyimdan tuya so’ragan edim, echkilik bo’ldim”, degan gap bor. Buning mazg’ini chaqing. Ammo faqat maqsadning o’zi kifoya emas. Unga eltuvshi yo’llarni, ya’ni boylik qonuniyatlarini ham o’zlashtirish kerak. Bu kitobchada katta mablag’ orttirish qo’l yetmas orzu emasligini isbotlashga harakat qilayapmiz. Faqat ularni ko’ra bilish va qo’lga kiritish uchun intilish kerak. Ishni boshlab olsangiz bo’ldi, katta kapital yetib bo’lmas sarob emasligini anglay borasiz. Bora-bora pulning o’zidan ham ko’ra uni ishlab topish jarayoni muhimroq bo’lib qoladi. Biznes ham sport kabi: yo muttasil ishlab, natijaga erishasan yoki umuman ishlamaysan va hech narsaga erishmaysan. Biznes doimiy rivojlanib borish xususiyatiga ega. Shuning uchun: “Yana bir million topay, shu bilan to’xtataman”, - degan hayol behuda. Amerikalik milliarderlarning keksayib qolganlarida ham ofislariga kelib turishlarini bilasiz-a? endi siz ham bu dard bilan bir umrga og’riysiz. Bunga ham tayormisiz? Shu daqiqaning o’zidayoq harakatni boshlashga nima xalaqit berayapti? Dangasalikmi? Qo’rquvmi? Balki bilimsizlikdir? Bularning baridan kechib o’ting va yangi hayot boshlang. Qanday hayot deysizmi? O’zingizga munosib hayot! FAROVON HAYOT!

## 2 BOB

### HAYOT MUVAFFAQIYATI SIRLARI

«Biznes nima? Juda oddiy:  
Biznes bu - boshqalarning puli».  
Aleksandr Dyuma.

Hayotdagи muvaffaqiyat nima? Muvaffaqiyatni «Siz o’zingiz ega bo’lgan narsalar bilan qoniqqanligingiz darajasi» deb ham aniqlash mumkin. Muvaffaqiyat doimo moddiy narsalar va qilingan ishlar bilangina aniqlanmaydi, albatta. O’z hayotingizdan madaniy-ma’rifiy jihatdan batamom qoniqishingiz va boshqa narsalarga ehtiyojingiz bo’lmasligi ham sizning hayotda muvaffaqiyatga erishganingiz deb tushuntirilishi mumkin. Aristotelning yozishicha, har qanday holat maqsad sari yo’naltirilgan bo’ladi va bizning barcha xatti-harakatlarimizni boshqaradigan birdan-bir faktor – oldingidan ko’ra yaxshiroq va to’kisroq hamda ma’naviy boyroq yashashga intilishdir. Shuni ham ta’kidlash kerakki, siz maqsadga va aqlga muvofiq tarzda xatti-harakat qilsangiz, doimo o’z oldingizga

qo'ygan maqsadlaringizga erishasiz. Masalan, sizning maqsadingiz muvaffaqiyatga erishish, xurmatga sazovor bo'lish yoki moliyaviy mustaqillikka erishish bo'lsa, siz unga ham albatta erishasiz. Sizning ongingiz maqsadni qidirish va unga etishishning kibernetik mexanizmiga egadir. Agar siz ongingizda biror bir maqsadning yoki xoxishning dasturini tuzsangiz, sizning miyangiz va ongingiz boshqaruvni o'ziga oladi hamda maqsad qanday bo'lishidan qat'iy-nazar sizni kun sayin ushbu maqsadga yaqinlashtira boshlaydi. Demak, siz qo'yilgan maqsadga salkam avtomatik ravishda yaqinlashaverasiz! Maqsadni avtomatik ravishda qidirish qobiliyati bamisol nafas olish kabi tabiiy bo'lib, ammo uning asosiy qiyinshiligi - aniq maqsadlar qo'yishga layoqatlilikdir. Muvaffaqiyatga erishish qonunlarining faollashtirilish kaliti – nimalarni xoxlashingizni aniq bilish va agarda istaganingizga erishganingizda nimalar o'zgarishini aniq va ravshan tasavvur qila olishdir. Xuddi uyni rejasiz qurish mumkin bo'limganidek, yaxshi hayotga ham aniq maqsadlar ruyxati va ularga erishishning yozma rejasisiz erishish mumkin emas. Siz oliy darajada ta'minlangan insonlar sirasiga kirish uchun, erishishingiz kerak bo'lgan maqsadlarni yozma ravishda ifodalab olishingiz va ularga hayotingiz davomida qat'iy rioya qilishingiz kerak bo'ladi. Agar siz shu ishni to'rt-besh yil muddat uchun qila olsangiz, u xolda bunga og'ishmay rioya qilish sizning hayotingizni tubdan o'zgartirib yuboradi. Maqsadni aniqlab va yozib olganingizdan so'ng, siz butunlay boshqa odamga aylanib qolasiz va kelajagingizga nisbatan munosabatingiz ijobiylar tarzda tubdan o'zgaradi. Siz o'ziga ishongan va optimist insonga aylanasiz hamda hayotingizni nazorat qilish va boshqarish mumkinligiga to'la ishonch xosil qilasiz. Maqsadlaringiz va rejalarining yozganingizdan so'ng, ularning amalga oshirilish ehtimolligi salkam o'n marta ortadi. Endi juda ham oddiy, ammo juda foydali bo'lgan mashqni bajarib ko'ring – bir varaq qog'oz oling va keyingi o'n ikki oy davomida erishishingizni istagan o'nta maqsadingizni shoshilmay yozib shiqing. Maqsadlarni xozirgi zamonda yozing va bunda yil o'tib bo'ldi hamda maqsadlarni amalga oshirib bo'lganman, deb faraz qiling. Har bir maqsadni yozayotganingizda uni sizgagina tegishli ekanligini ko'rsatish uchun «**Men**» so'zini ishlating. Masalan, «*Men bir*

*yilda 20 million so'm mablag' topayapman», «Men qandaydir sotuv xajmiga (yoki daromadga) erishayapman».* Sizning ongingiz faqatgina shaxsiy, pozitiv va xozirgi zamonda ifodalangan maqsadlarnigina qabul qila oladi. Bu mashq juda ajoyib, xuddi sehrliga o'xhash bo'lib, agar siz bu yozgan maqsadlaringizni biror bir joyga yashirib qo'ysangiz ham, o'n ikki oydan so'ng, bu maqsadlarning ba'zi birlari amalga oshganini ko'rib, juda ham xayron bo'lib qolasiz. Quyida siz uchun muhim bo'lган muvaffaqiyatga erishish qonunlari va ularga qisqacha sharxlar (tuchuntirishlar) keltiriladi:

- ***Nazorat qonuni*** – Siz o'z hayotingizni qanchalik darajada nazorat qilayotganingizni sezishingiz darajasida o'z-o'zingizda qoniqish xis qilasiz. Bu qonundan bir qancha xulosalar kelib chiqadi. Ulardan birinchisi – o'zgarishlar albatta ro'y berishidir va ulardan aslo qochib bo'lmaydi. Ikkinci xulosa – nazorat qilinadigan o'zgarishlar nazorat qilinmaydiganlarga nisbatan kattaroq muvaffaqiyatlarga olib keladi. Uchinchi xulosa – siz o'z hayotingizni nazorat qilish uchun, avvalo o'z ongingizni nazorat qilishni boshlashingiz kerak.
- ***Tasodifiylik qonuni*** – Hayot tasodifiy voqeа-xodisalar zanjiri bo'lib, undagi barcha xodisalar tasodifiy ravishda ro'y beradi. Demak, siz rejalashtirishni bilmasangiz, muvaffaqiyatsizlikni rejalashtirgan bo'lasiz. Shuning uchun ham ko'pchilik insonlar qarilikda o'zлari uchun moliyaviy mustaqillikka erishishni biror bir lotoreyada katta miqdordagi pul yutib olish bilangina ta'minlash mumkin deb xisoblashadi.
- ***Mas'ul bo'lishlik yoki javobgarlik qonuni*** – Siz o'zingizning xozirgi hayotingiz va kelajagingiz uchun to'liq va batamom javobgarsiz. Bu qonundan birinchi xulosa shuki, siz o'z fikrlassingiz va xattiharakatlaringizda doimo ozod insonsiz. Ikkinci xulosa - mas'uliyatlilik yoki javobgarlik sizning o'z ongingizni to'liq nazorat qilishingizdan boshlanadi. Uchinshi xulosa – o'zingizdan boshqa hech kim sizga yordam bera olmaydi. Shuning uchun biror bir ishni qilayotganda barcha mas'uliyatni o'z zimmangizga oling.

• ***Yo'naltirilish qonuni*** – Muvaffaqiyatga erishgan insonlar o'z hayotlarining barcha yo'nalishlaridagi maqsadlarini aniq xis qiladilar. O'z oldiga hayotning barcha jahbalariga ta'alluqli bo'lган konkret va aniq maqsadlar qo'ya olish boshqa sifat va ko'nikmalarga nisbatan yuqori darajadagi muvaffaqiyatlarga erishishni ta'minlab beradi. Agar o'z faoliyatingiz doirasida maqsadlar va yo'nalishlarni aniq belgilab olsangiz, sizga barcha masalalar bo'yicha optimal qarorlar qabul qilish ancha engillashadi. Quyida maqsadni qo'yish va unga erishishning oddiy, aniq va tekshirilgan usulini keltiramiz. Uni avvalo o'zingiz o'rganing va so'ngra boshqalarga ham buni tushuntiring:

1. O'zingiz uchun nimalarni istayotganingizni yaxshilab aniqlab oling – ko'pchilik insonlar bu ishni hech qachon qilmaydilar.
2. Buni aniq, ravshan va tushunarli tarzda yozib qo'ying.
3. Rejalashtirilgan ishlarning bajarilish muddatlarini belgilab oling. Agar maqsad katta bo'lsa, ko'p vaqt talab qilsa yoki ko'plab bosqichlardan iborat bo'lsa, u xolda oraliq muddatlar belgilang.
4. O'z maqsadlaringizga etishish uchun kerakli bo'lган barcha ishlarning ruyhatini tuzing.
5. O'z ruyxatingizni ma'lum ketma-ketlikka ega bo'lган va afzalliklarga (prioritetlarga) ega rejaga aylantiring.
6. Zudlik bilan tuzilgan rejaga mos ravishda harakatni boshlang. Bu ishni zinhor keyinga qoldirmang.
7. Sizni ko'zlagan maqsadingizga erishishga yaqinlashtiradigan ishlarni har kuni oz-ozdan bo'lsa ham muttasil ravishda bajaring. «*Har kuni maqsadga erishish uchun qandaydir ishlarni bajarish*» g'oyasi juda ajoyib g'oya ekanligiga amin bo'lasiz deb ishonamiz.

• ***Kompensatsiya qonuni*** – Siz o'zingizning barcha xatti-harakatlaringiz uchun, ular ijobiy yoki salbiy bo'lidan qatiy-nazar, to'liq mas'uliyatlilidirsiz, ya'ni, ularga mos ravishda to'liq miqdorda to'lov olasiz. Ya'ni, siz qancha ko'p bersangiz, shuncha ko'p olasiz. Bu qonunni oratorlik ustasi Zig Zagler nomi bilan ataladi va uni quyidagicha ifodalash mumkin: «*Agar siz boshqa*

*insonlarga ular istagan narsalarni olishlariga yoki ko'zlagan maqsadlariga erishishga etarli miqdorda yordam bersangiz, hayotda ham o'zingizning barcha istalgan orzularingizga erishishingiz mumkin». Boshqacha so'zlar bilan aytganda, bu qonun «*Nima eksang, shuni o'rasan*» degan ma'noni ham anglatadi.*

- **Xizmat ko'rsatish qonuni** – Sizning hayotdan olgan mukofotlaringiz sizning boshqalarga ko'rsatgan xizmatlaringiz qiymatiga to'g'ri proportsional bo'ladi. Bu qonundan birinchi xulosa – har qanday boylik xizmatlar sotishdan boshlanadi deb atalishi mumkin. Ikkinci xulosa esa quyidagisha ifodalanishi mumkin: Agar siz olinayotgan mukofot miqdorini ko'paytirmoqchi bo'lsangiz, u xolda avvalo ko'rsatilayotgan xizmatlarning soni va sifatini oshirishingiz kerak bo'ladi. Uchinshi xulosa – har bir inson komission to'lovlar uchun ishlaydi deyish ham mumkin. Agar siz o'z mijozlaringizga boshqalarga nisbatan yaxshiroq xizmat ko'rsatib, ularni yanada baxtliroq qila olsangiz, demak siz o'z kelajagingizni to'liq nazorat qila olasiz.
- **Harakat qilish qonuni** - har qanday aytarli muvaffaqiyatga ham qattiq mehnat tufayli erishiladi. Boshliqlar ham ter to'kib ishlayotgan tirishqoq xodimlariga ko'proq ahamiyat beradilar va ularni o'zlariga yaqin qilishga harakat qiladilar. Sizning intensiv va boshqalardan ko'proq ishlappingiz katta mansablarga erishishingizda juda muhim bir faktor bo'lib xizmat qiladi. O'z ishingizga va shaxsan o'zingizga bilim yoki ko'nikmalariningizni rivojlantirish uchun sarf qilayotgan har bir soatingiz o'zingizning kelajakdagi muvaffaqiyatingizga bo'lgan investitsiyadir desak, unchalik yanglishmagan bo'lar edik. Har xaforda qancha muddat ijodiy ishlappingizni xisoblab, o'zingizning keyingi 4-5 yilda nimalarga erishishingiz mumkinligini aniqlash qiyin emas. Ushbu qonundan birinchi xulosa – har qanday katta muvaffaqiyatga aniq maqsadga erishish yo'nalihidagi rejali va uzoq muddatli intensiv mehnat orqali erishiladi. Bunda siz doimo «*Men nima qilmoqchiman?*» va «*Men buni qanday qilib bajarmoqchiman?*» deb o'zingizdan-o'zingiz so'rashingiz lozim bo'ladi. Siz o'zingiz uchun muhim bo'lgan maqsadlarga erishish yo'lidagi masala va

muammolarni xal qilishga qodir bo'lishingiz kerak bo'ladi. Ikkinci xulosa – Siz qanchalik intensiv ravishda ishlasangiz, sizning shunchalik ko'p omadingiz keladi. Qanchalik tirishqoqlik bilan ishlasangiz, sizga shunchalik ko'p imkoniyatlar yaratiladi va siz uchun o'zingiz kutmagan insonlar yordam beradilar va kerakli bo'lgan zahiralar sehrli tarzda jalb etiladilar. Sizning mehnatsevarligingiz atrofingizda musbat quvvat manbaini yuzaga keltiradi va u sizning hayotingizga ijobiy insonlarni va kattadan-katta imkoniyatlarni jalb qiladi. Uchinchi xulosa – o'rtacha odam erishishi mumkin bo'lgnlardan ko'proq narsalarga erishish uchun, siz o'rtacha odamga nisbatan ko'proq va intensivroq ravishda ishlashingiz talab etiladi. Yoki boshqacha qilib aytganda, qancha ko'p tiksangiz, shuncha ko'p olasiz. Ushbu sabab va oqibat qonuni absolyut ko'rinishga egadir, chunki qancha ko'p harakat qilsangiz, shuncha ko'proq muvaffaqiyatga erishasiz.

- **O'ta qoplanish qonuni** – Agar sizga xozirgi paytda to'lashganiga mos bo'lgandan ko'ra ko'proq ish qilsangiz, sizga doimo xozirgi olayotganiningizdan ko'ra ko'proq to'lashadi yoki qo'shimcha imkoniyatlar yaratishadi. Muvaffiqayatga erishish uchun sizdan talab qilayotganlaridan ko'ra ko'proq ish qilish imkoniyatini izlashingiz zarur. Agar bu qonunga og'ishmay rioya qilsangiz, keljakda sizga chegarasiz bo'lgan imkoniyatlar yaraladi.
- **Tayyorgarlik qonuni** – Samarali natijaga erishish uchun unga juda katta diqqat-e'tiborlilik bilan tayyorlanish kerak. Har bir xaqiqiy mutaxassisning har qanday ishdagi boshqalardan ajralib turadigan siyoshi shundan iboratki, u biror-bir ishni qilish uchun tayyorgarlik ko'rishga o'rtacha insonga nisbatan ko'proq vaqt sarf qiladi. Bunga misol sifatida Avraam Linkol'nning quyidagi so'zini keltirish mumkin: «*Men o'qiyveraman, bilim egallayveraman va tayyorlanaveraman – bu qachonlardir menga ham albatta imkoniyat va omad olib keladi*». Bu qonundan birinchi xulosa – Sizga o'z ishingizda doimiy ravishda xalaqit berayotgan barcha mayda-shuyda muammolarni uyda yaxshilab fikrlang va ularga mos echimlar topishga harakat qiling. Ushbu muammolarning echimi sizga katta muvaffaqiyatlar keltirishi mumkin. Ikkinci

xulosa – barcha muvaffaqiyatsizliklarning sababi – o'ylamay qo'yilgan qadam va xatti-harakatlardir. Shuning uchun ham barcha ishlarni yaxshilab o'ylab va fikr tarozusidan o'tkazgan xolda bajaring.

- **Samaradorlik qonuni** – Siz chegaralangan vaqt mobaynida qanchalik ko'p ishlarni bajarishingiz lozim bo'lsa, eng muhim masalalar bilan shunchalik ko'p vaqt mobaynida ishlashga majbur bo'lasiz. Ya'ni, hamma ishni ham qila olmaysiz, ammo eng muhim ishlarni bajarishga vaqtingiz etadi. Bu qonundan birinchi xulosa shuki, sizga doimo barcha kerakli ishlarni qilishga vaqtingiz etmaydi. Demak, qandaydir ikkinchi darajali ishlarni boshqalarga topshirishingiz va ularning bajarilishini nazorat qilib turishingiz kerak bo'ladi. Ikkinchi xulosa – faqatgina qat'iy xatti-harakatlar orqali siz o'zingizning xaqiqiy imkoniyatlaringizni ro'yobga chiqarishingiz mumkin. Iloji boricha ko'proq ish qilish sizga o'z potentsialingizni ruyobga chiqarishga imkon beradi. Siz o'z yaxshi ko'rgan ishingizni qilishingiz kerak va qilayotgan ishingizni sevib, unga chin dildan berilib ishлаshingiz zarur. Uchinchi xulosa – ish faoliyatingizda o'z imkoniyatingizning cho'qqisiga chiqish uchun o'z vaqtingizni o'ta foydali tarzda taqsimlay olishingiz kerak. Siz har doim o'zingizdan «*Xozirgi damda men o'z vaqtimni o'ta foydali tarzda qanday qilib sarf qilishim mumkin?*» deb so'rashingiz lozim.
- **Qat'iy bo'lislilik qonuni** – Hayotdagi har bir diqqatga sazovor bo'lgan o'zgarishga aniq qo'yilgan maqsad va o'z ishiga sadoqat sabab bo'ladi. Muvaffaqiyatga erishgan insonlarning aksariyati o'z fikrlarida qat'iy va sobitqadam bo'ladilar. To'g'ri qarorlar qabul qilish va uni zudlik bilan hayotga tadbiq qila olish muvaffaqiyatga erishgan insonlarning eng muhim xislatlaridan biridir. Agar ular nobop qarorlar qabul qilgan taqdirlarida yangi ma'lumotlar asosida tezkorlik bilan yangi va to'g'ri bo'lgan qarorlar qabul qila oladilar. Xuddi shu qat'iylik ularni boshqalardan ajratib turadi. Bu qonundan birinchi xulosa shuki, agar siz qat'iylik bilan va mardona harakatlar qilsangiz, siz uchun ko'zga ko'rinasim imkoniyatlar paydo bo'ladi va qaerdandir kutilmagan xolda ko'mak olasiz. Sizni jim turmasligingiz va harakat qilishga tayyorligingiz siz

uchun jami koinotning kuchlarini safarbar qiladi. Ikkinchi xulosa – Siz o’zingiz uchun muvaffaqiyatsizlik bo’lishi mumkin emasday xatti-harakatlar qiling va haqiqatan ham siz uchun ushbu ishonchingizga monand ravishda muvaffaqiyatsizlik mumkin bo’lmay qoladi. Agar siz komil ishonch bilan harakat qilsangiz va muvaffaqiyatga erishishingizga qat’iy ishonsangiz, u xolda maqsadga erishdim deyavering! Uchinchi xulosa – Shu ishni qilavering! O’z oldingizga maqsadni qo’ying, rejalar tuzing, qaysi ishnig qachon bajarilishini belgilab oling, muvaffaqiyatsizlikka erishishim mumkin emas deb faraz qiling va o’z ishingizni davom ettiring. O’zining “Makbet” asarida ulug’ Willyam Shekspir aytganidek «*O’ylash, faraz qilish va shubhalar - ularni uloqtiring. Tezroq qo’shinni harakatga keltiring va janggoh barcha muammolarni xal qiladi*».

- **Ijodiy fikrlash qonuni** – Insonning hayotidagi har bir qadam uning miyasida tug’ilgan g’oya tufayli paydo bo’ladi. Foya – keljakning kalitidir, uningsiz biror bir muvaffaqiyatiga erishish mumkin emas. Ushbu qonundan birinchi xulosa – inson uning ongi tasavvur qila oladigan va u ishona oladigan barcha narsalarga erisha oladigan mavjudotdir. Agar miyangizga biror bir g’oya kelib qolsa, demak siz uni amalga oshirish imkoniyatiga egasiz. Ammo bunda siz quyidagi savolga javob bera olishingiz kerak bo’ladi: «*Men bu g’oyaning amalga oshirilishini qanchalik darajada istayman?*» Ikkinchi xulosa – Sizning istalgan yo’nalishda samarali g’oyalarni generatsiya qilish qobiliyatingiz chegara bilmaydi va demak, sizning potentsialingiz ham chegarasizdir. Uchinchi xulosa – tasavvur qilish dunyonи boshqaradi. Atrofga bir nazar tashlang, har bir narsa yoki predmet oldin biror bir insonning kallasidagi g’oya bo’lgan va uning natijasida qurilgan yoki paydo bo’lgan. To’rtinshi xulosa – tasavvur dalillardan ko’ra muhimroqdir. Ma’lum bir vaqtda paydo bo’lgan g’oya yoki echim sizning hayotingizdagи burilish nuqtasi bo’lib qolishi mumkin. Agar siz to’g’ri tasavvur qila olsangiz va tasuvvuringizga chegaralanishlar qo’ymasangiz, u xolda sizning ijodiy imkoniyatlaringiz chegara bilmaydi.

- **Moslashuvchanlik qonuni** – Agar siz maqsadni aniq ko’rib tursangiz va unga erishish jarayonida moslashuvchanlikka rioya qilsangizgina muvaffaqiyatga erishishingiz mumkin bo’ladi. Bu qonundan birinchi xulosa sifatida shuni qayd qilish mumkin: agar sizning say’i-harakatlaringiz biror bir muddat davomida samarasiz bo’lsa, bu sizning nimanidir noto’gri qilayotganingizni bildiradi. Demak, siz o’z rejalaringizni qaytadan ko’rib chiqishingiz va kerak bo’lsa, unga tegishli o’zgartirishlar kiritishingiz kerak bo’ladi. Balki sizni tanlagan strategiyangiz nobopdir, balki sizning maqsadingiz oldingisidan biroz o’zgarib qolgandir yoki siz bu ishni bajarish uchun mos bo’limgan yo’lni, resurslarni va insonlarni noto’g’ri tanlanadirsiz? Shularni xisobga olgan xoldagi moslashuv jarayoni maqsadga erishishni ancha osonlashtiradi. Ikkinchi xulosa – hayotda sizning tanlov imkoniyatlaringiz qanchalik ko’p bo’lsa, shunchalik ko’proq ozodsiz. Ya’ni, sizning omad, baxt va ozodligingiz agar birinchi reja amalga oshmagan taqdirda tanlay olishingiz mumkin bo’lgan al’ternativ variantlar bilan aniqlanadi. Bunday imkoniyatlar qanchalik yaxshi o’ylab qo’yilgan bo’lsa, siz shunchalik ko’proq ozodlik darajasiga ega bo’lasiz. Al’ternativ variantlarni o’ylab va fikrlab chiqish jarayoni sizdagi fikr tiniqligini rivojlantiradi. Uchinchi xulosa – *krizis* – sharoitlar va yangi imkoniyatlar yaralishi uchun yuz berayotgan potentsial o’zgarishdir. Agar krizis ishda ro’y bersa, salomatligingizda ro’y bersa yoki tadbirkorlik faoliyatiningizda ro’y bersa, bu sizga nimadir noto’g’ri ekanligini ko’rsatadi va siz bundan tegishli xulosalar chiqarib, to’g’ri yo’lni tanlab olishingiz kerak bo’ladi. Qonundan to’rtinshi xulosa esa bunday deb ifodalanishi mumkin: Har qanday muvaffaqiyatsizlikning asosida noto’g’ri va asossiz qabul qilingan farazlar yotadi. Demak, siz muvaffaqiyasizlikka uchragan taqdiringizda, farazlaringizni yana bir marta vazminlik bilan aql tarozusidan o’tkazib chiqigshingiz kerak bo’ladi. Masalan, agar biror bir mahsulot ishlab chiqarish yoki xizmat ko’rsatishni tashkil qilishdan avval asossiz ravishda bu xizmat va mahsulotlarga katta talab bo’ladi deb faraz qilsangiz, xonavayron bo’lishingiz tayin bo’ladi.

• *Qaysarlik qonuni* – bu sizning muvaffaqiyatsizliklar va yutqizuvlardan cho'shimasdan ishni davom ettira olishingiz va o'zingizga hamda o'z ishingizga ishonchingiz darajasi bilan aniqlanadi. Qaysarlik – maqsad sari harakat qilayotgandagi o'z-o'zini tartibga sola olish meyyoridir. Hech qachon, hech qanday sharoitda va hech kimga taslim bo'l mangiz! Shundagina sizning yuksak orzularingiz haqiqatga aylanadi. Chunki siz ertaklarni hayotiylikka aylantirish uchun bu dunyoga kelgansiz!

Muvaffaqiyat tasodifiy holat emas, u berilgan maqsadga etishish yo'nalishidagi tinimsiz va qat'iy xatti-harakatlar natijasidir. Millionlab erkak va ayollar o'z hayatlarida ushbu qonunlarga mos ravishda harakat qilib muvaffaqiyatlarga erishganlari siz uchun bamisoli mayoq singari xizmat qiladi. Agar bunga unchalik ishonmagan bo'lsangiz, kitobcha so'ngidagi adabiyotlar ruyxatidan bir qancha taniqli insonlarning hamda milliarderlarning hayat tarzlarini va muvaffaqiyatga erishish usullarini ko'rib hamda o'rganib chiqishingiz mumkin.

## 2.1. BOYLIK FALSAFASI

*«Ish boshlayotganda uni qanday qilib muvaffaqiyat bilan boshlasam ekan, deb emas, qanday qilib muvaffaqiyat bilan yakunlasam ekan, deb o'yla».*  
Vitelo

Yuqoridagi bo'limda qashshoqlik muamosini har tomonlama o'rganib chiqdik. Endi farovon va to'kin kelajak yaratish yo'llari haqida gaplashamiz. Aslida bu borada o'rganadigan yangilikning o'zi yo'q, faqat shu paytgasha sizga uqtirib kelingan ba'zi noto'g'ri fikrlarni unutishingiz lozim – bori shu. Aks holda miyangizni egallab olgan talaygina befoyda va o'lik axborotlar bora-bora shuuringizni shu qadar o'tmaslashtirib qo'yadiki, alal-oqibat, voqelikni tanqidiy idroq etish, demakki ahvolingizni to'g'ri baholash imkonidan ayrilib qolasiz. Muvaffaqiyatga erishish, o'zlikni topish, chinakam badavlat va baxtli inson bo'lish uchun ularni aynan BUGUN unutishingiz kerak. Bordiyu buning uddasidan chiqolmasangiz, o'tmish botqog'ida qolib ketaverasiz. O'sha keraksiz va noto'g'ri axborot sizni bir umr qashshoqlikning domida ushlab turaveradi. Demak, zudlik bilan harakatni boshlang. **Paysalga solgan har bir daqiqangiz aslida ko'p narsani hal qilishi mumkin.** Zamonaviy voqelik yangi tabiiy tanlashni taqozo

qilmoqda – endi kuchlilar emas, aqlilar uzoq va baxtli umr ko'rishmoqda. Sodda qilib tushuntiradigan bo'lsak, bugun aqlilar axmoqlardan ko'ra yashovchanroqdirlar. Shunday ekan: "Zamon senga boqmasa, sen zamonga boq" – degan dono fikrga og'ishmay amal qiling. Bu boradagi nasihatlardan birini ulug' shoir Sa'diy Sheroyi ham aytib o'tganlar:

*Harchand o'qibsan, bilimdonsan,  
Agar amal qilmasang, nodonsan.  
Ustiga kitob ortilgan eshak,  
Na olim va na donodir be shak.  
Bu miyasiz qaydin topadi xabar,  
Ustida o'tinmi yo kitob-daftар.*

Albatta, shoir – haq, uni hech kim inkor etolmaydi. Ammo paradoksnii ko'ringki, ko'pchlik ko'rib-bila turib, hayot haqiqatlariga umuman rioya qilmaydi. Shunday ekan, qisqagina va shirin bu hayotda faqat va faqat baxt uchun kurashing, buning uchun hech nimani ayamang. Hayot bitta, va u albatta go'zal va farovon kechmog'i darkor. Aks holda dunyoga kelib nima ham qilardik?! ***Esingizda tursin: Siz yayrab-yashnab yashashingiz kerak. Ayni zamonda va ayni makonda.*** Agar boylik va kambag'allik orasida tanlov qilish zarur bo'lsa, xech ikkilanmay boylikni tanlang. Kerak bo'lsa uning uchun tog' oshing, suv keching. Shunaqasi qaytanga qadrli va shirin bo'ladi! Moddiyat umrni sarflash uchun arzimaydi deyishadi. Lekin kim aytadi boylik faqat moddiy foyda keltiradi, deb? Siz nimagadir ahd qildingiz va unga erishdingiz – bu o'ziga xos ma'naviy qoniqish hissini ham olib keladi. Bu muvaffaqiyat dollar shaklida keldi nimayu, jahon adabiyoti durdonalaridan sanalmish kitoblar shaklida keldi nima? Biri ikkinchisiga xalaqit bermaydi, ko'p o'rnlarda esa ular bir-birini taqozo qiladi ham.

### **Siz istaysizmi yoki yo'qmi – dunyo shunday tuzilgan!**

Demak u bilan chiqishib yashamasangiz, hech ilojingiz yo'q. Avvalgi boblarda ta'kidlaganimizdek, nimagadir erishish uchun, albatta, pul kerak. Xo'sh, uni qayerdan olasiz? O'g'irlik qilmaysiz-ku axir, to'g'rimi?

Pul hammada bor! Men gapimga qo'shilganlardan 10 so'mdan, qo'shilmaganlardan esa 20 so'mdan yig'ib oldim, deylik. Odamlar bu bilan kambag'allashib qolmaydilar, ammo men millioner, hattoki milliarder bo'lishim

mumkin. Shunday bir sistema zarurki, u ko'pshilikdan oz-ozdan pul yig'ib olish imkonini bersin. Asrlar davomida tadbirkorlar shu usulni qo'llab millionlarni jamg'arib kelishgan. **Endi biz ham shunday qilmog'imiz kerak!**

## 2.2. BOYLIKKA ERISHISH SAN`ATI

«*Hech qanday harakat qilmayotgan odamgina  
hech qachon hato qilmaydi.*»  
Franklin Ruzvelt.

Xa, boylik jamg'arish xuddi fizika yoki arifmetika kabi aniq fandir. Pul to'plash hamda ko'paytirishning o'z qonuniyatlari bor va bu qonunlarni yaxshi o'rGANIB olib, ularga amal qilgan odam albatta badavlat bo'ladi. Aks holda, ertadan kechgasha ishlasangiz ham, boylik yuzini ko'rmaysiz. Pul va mulkka egalik qilish imkoniyati bevosita sizning amallaringizga bog'liq.

Hamisha sabab oqibatni keltirib chiqaradi, bir xil sabablar bir xil oqibatlarga olib keladi. Bu – tabiyat qonuni. Shunday ekan, badavlat odamlarning tajribasini o'rGANISH katta ahamiyatga ega. Buni o'zingiz ham anglagan bo'lsangiz kerak.

Ko'pchilik mol-davlat to'plash uchun muhitning ahamiyati katta, deb hisoblaydilar. Ammo agar shu mantiqdan kelib chiqadigan bo'lsak, olaylik, ma'lum bir shahar aholisining 100%i badavlat, boshqa bir shahar aholisi esa butkul kambag'al bo'lMOG'i kerak edi. Lekin aslida unday emas. Atrofga razm solsak, boylar va kambag'allar yonma-yon, bir shaharda, bir rayonda yashayotganini, hatto ularning bir sohada faoliyat yuritayotganini ham ko'rishimiz mumkin. Demak, bir joyda yashab, bir xil faoliyat bilan shug'ullanayotgan ikki shaxsning biri boy, boshqasi esa kambag'al ekan, sababni muhitdan emas, insonning o'zidan qidirish kerak. Albatta, ma'lum bir mamlakatdagi sharoyit boshqasiniKIDAN yaxsiroq bo'lishi mumkin. Lekin har qanday sharoyitda ham boylar va kambag'allar mavjud. Qaysi guruhg'a mansub bo'lismi esa bizning zamonimizda faqat insonning o'zi tanlaydi. Bundan tashqari, boy bo'lish uchun alohida iqtidor ham zarur emas. Atrofga bir boqing, qanchadan-qancha iqtidorli insonlar kambag'allikda kun kechirishmoqdalar. Demak, ular boy bo'lish uchun nimadir qilishmayapti. Balki bu ularning tanlagan yo'lqidir. Axir kimningdir olim bo'lgisi keladi, boshqa birovning esa kosmonavt. Boy bo'lish ham xuddi shunday insonning xohish-irodasi va

bajarayotgan amallariga bevosita bog'liq kasbdir. Badavlat insonlarni bir o'rganib ko'rsangiz, ularning ko'p ma'noda o'rtacha shaxslar ekaniga amin bo'lasiz. Ular boshqalardan ortiq iqtidor va iste'dodga ega emaslar. Ammo ular to'g'ri qaror qabul qilganlar va maqsadga yetish yo'lida to'g'ri harakat qilganlar. Boylik aslo xasislikning natijasi emas. Aksincha, ko'pgina "tejamkor" insonlar kambag'al hayot kechiradilar. Pulni og'rinmay sarflaydiganlar esa, badavlat yashayaptilar. Boylik jamg'arish bu boshqa birovlar qila olmayotgan ishni qilish degani ham emas. Bu hammaning qo'lidan keladi. Ammo ko'pincha, bir xil sharoyitda, bir xil imkoniyatlar bilan bir sohada ish boshlagan ikki biznesmenning biri katta boyga aylangani holda ikkinchisi sinishi mumkin. Yuqorida keltirilgan faktlar boylik to'plash muhit, iqtidor, imkoniyat kabi shartlarga emas, ma'lum amallar tizimiga bog'likdir, degan xulosaga olib keladi. Demak, bir xil usulda harakat qilish bir xil natijaga olib kelar ekan, boylik jamg'arishni bemalol aniq fan deyish mumkin.

Ana shu yerda bir savol tug'iladi: "Hammasi insonning harakatiga, qilayotgan ishiga bog'liq ekan, demak, o'sha ishning o'zi shu qadar qiyindirki, uni hamma ham eplay olmayapti"? - bu juda to'g'ri savol. Iqtidorlilaru ahmoqlar ham, kuchlilaru zaiflar ham, sog'laru dardmandlar ham boyishlari mumkin. Albatta, qandaydir sifatlar kerak buning uchun, ammo bu sifatlarni Alloh hammaga bergen. Faqat nima qilishni bilish va uni qilish kerak. Boylikka erishishning asosiy shartlaridan biri – odamlar bilan ishlay olish va albatta, buning uchun odamlar bor joyda bo'lishdir. Agar muhitning qandaydir ahamiyatlari bo'lsa, ana shu ma'noda ahamiyatlidir. Ya'ni siz jamiyatda, insonlar orasida bo'lishingiz, yana u yerda shunchaki mavjud bo'lishingiz emas, faol harakatlanishingiz kerak. Yana gap ma'lum biznes turida ham emas. Kimdir savdo bilan shug'ullanib, boyib ketadi, boshqa birov esa sinadi. Gap o'zingizning qo'lingizdan keladigan va o'zingizga yoqadigan ishdan pul topa bilishingizda. Ishonning, har kimning nimagadir iqtidori bor. Ana shu iqtidordan pul qilish kerak. Yana siz tanlagan biznes turi yashayotgan xududingizga mos kelishi kerak. Masalan, issiq iqlimda, olaylik, bizning O'zbekistonda muzqaymoq ishlab chiqarish juda foydali biznes. Ammo Grenlandiyada bundan foyda olish mushkul. Shu kabi ayrim umumiylar chegaralarni

hisobga olmaganda, boylikka erishish biznes turiga emas, siz amalga osirayotgan harakatlarga bog'liqdir. Agar yoningizda yana kimdir siz qilayotgan ishni qilib rivojlantirayotgan bo'lsayu, sizning ishingiz hech yurishmasa, bunda raqobatchini ayiblashga shoshilmang. Demak, u emas, siz nimanidir noto'g'ri qilayapsiz. Kapital yo'qligi hech qanday to'siq emas. Albatta, boshlang'ich kapitalingiz bo'lsa, uni ko'paytirish tez va oson kechadi. Lekin tanganing ikkinchi tomoni ham bor: kapitalingiz bo'lmasa uni topishga harakat qilasiz. Bo'lsa, balki harakatlaringiz bunchalik qat'iy va shiddatli kechmas. Har holda ehtiyoj eng katta harakatlantiruvchi kuchdir. Qashshoqlikning qaysi darajasida turganingiz ahamiyatsiz, inson har qanday choxdan ham shiqib ketishi mumkin. Asosiysi, to'g'ri harakat qilsa bo'ldi. Kapital albatta paydo bo'ladi. Yodingizda bo'lsin, siz qit'adagi eng qashshoq odam bo'lganingiz ham, atrofingizda yordam beradigan hech kim bo'lmasa ham, ma'lum bir harakatlarni amalga oshirib, to'g'ri yo'lni tanlab olsangiz, albatta boyib ketasiz. Biznesni noto'g'ri tanlagan bo'lsangiz, o'zgartiring, noqulay joyda yashayotgan bo'lsangiz, qulay yerga ko'chib o'ting. Bilmasangiz, so'rang. Kuzating, o'rganing. Asosiysi, to'g'ri qaror qabul qilib, to'g'ri harakat qilsangiz, kifoya. Unutmang, bir xil sabablar bir xil oqibatlarga olib keladi – bu Olamni va biznesni harakatlantirayotgan qonundir.

### **2.3. BOYLIKKA ERISHISHDA ISHONCHNING KUCHI**

«*Jannatga kirish hayratlanarli muvaffaqiyat emas,  
Ma'rifat – dunyoning o'zida jannatga erishish demakdir».  
Hazrat Ali (r.a.)*

Odamlar “yo'qdan bor bo'lmaydi, bordan yo'q”, hech narsa g'oyibdan paydo bo'lmaydi, deya qat'iy ishonishadi. Ammo bu – noto'g'ri, deyishga jur'at etaman. Quyida bu fikrni isbotlashga harakat qilamiz. Nima u – “HECH NARSA”? Bu – moddiy bo'limgan bir narsa. Xo'sh, axborot moddiymi yoki nomoddiy. To'g'ri, u moddiy shaklida taqdim etiladi – ya'ni yoziladi, eshittiriladi, namoyish etiladi. Ammo o'z holicha u – nomoddiy. U narsaning, moddaning holat shakli haqida gapiradi, ammo o'sha narsa moddaning o'zi bo'lolmaydi. Endi xuddi shu nazariyani pullarga nisbatan tadbiq etib ko'ramiz. Pul – bu qog'oz ham, metal ham emas. Pul – bu axborot. Axborot esa nomoddiydir. Demak, g'oyibdan kelajak

iborasi bema'nilik emasligini isbotladik. Siz bu hol bilan kunda to'qnashasiz, ammo e'tibor bermaysiz. Har kuni ko'z-o'ngingizda millionlab so'mlar, dollarlar g'oyibdan paydo bo'ladi va yana g'oyibga yo'qoladi. Siz avtobusga chiqasiz va tannarxi bir necha tiyin turadigan qog'oz parchasi – shipta uchun ma'lum summani to'laysiz. Bu qog'oz siga nimaga kerak? Aslida qog'ozning o'zi emas, u tashiyotgan axborot sizga avtobusda ma'lum manzilga yetib olish huquqini beradi. Yoki, siz bir necha oy o'qisiz, falon pul to'laysiz, imtihonlarni topshirasiz va ya'na bir parcha qog'oz – haydovchilik guvohnomasiga erishasiz. Ammo u tashigan ahborot muhim – u sizga avtomobil boshqarish huquqini beradi. Bunday misollarni ko'plab keltirish mumkin. Aslida nomoddiy axborot moddiy bir tashuvchida aks ettiriladi va siz shuning uchun pul to'laysiz. Biznes olamida qiymatga ega yagona narsa – bu axborot. Qog'oz, kasseta, disket, kompakt-disk, kredit kartochkasi – bularning bari ana shu axborotning tashuvchilaridir. Buni anglab olganingizdan keyin, axborotlarni pulga aylantirshingiz oson kechadi. Pullarni esa aql bilan, arziydigan axborot uchun sarflay boshlaysiz.

Insonga Olloh tomonidan tug'ilishi bilan beriladigan yagona hazina – vaqtdir. Asta sekinlik bilan umr o'ta boradi va biz bu hazinani sarflab boramiz. Ammo nimaga sarflaymiz? Kimdir vaqt ni boylik va shon-shuhratga almashtirib ulguradi. Yana kimdir esa uni bo'lar-bo'lmas narsalarga sarflab, keyin pushaymon bo'ladi. Qani eslab ko'ringchi, oxirgi marta kelajak haqida qachon reja tuzgandingiz? Men orzu qilgandingiz, deb so'ramadim, aynan aniq reja tuzgandingizmi, deb so'radim. O'z oldingizga aniq maqsad qo'yganmisiz? Ko'pchilik kelajakni rejalarshirish befoyda, deb o'ylaydi. Aslida inson qaysi tomonga harakatlanishi kerakligini aniq bilishi kerak. Dunyoda bo'sh joyning va bo'sh vaqtning o'zi yo'q. Masalan, kelasi shanba qayerga borishingizni rejalarshirmas ekansiz, albatta buni boshqa birov qiladi. Lekin o'z manfaatlariga moslab qiladi. Demak, kelasi shanba baribir nima bilandir mashg'ul bo'lasiz, ammo o'z rejangiz bo'limganligi uchun, boshqalarning rejasini bajarshingizga to'g'ri keladi. Xo'sh, sizga hamisha boshqalarning stsenariysi bo'yicha yashash yoqadimi? Boylik sir-sinoatlarini o'rganib olganingizdan so'ng, oldingizda,

albatta, aniq maqsad paydo bo'ladi. Va unga erishganingizda, o'zingiz orzu ham qilmagan muvaffaqiyat, mukofotga ega bo'lasiz. O'shandagina insonga baxt hadya etuvshi sog'lik, karyera, aloqalar – hammasi o'zi keladi. Odamzod, o'zgarishlar, islohotlardan qo'rqiadi. Ammo Olloh bizni o'zgarishlar, islohotlar uchun moslab yaratgan. Moslashuv qobiliyati insonda boshqa jonzotlarga nisbatan kuchli. Shuning uchun o'zgarishlar insonga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Ular insonga o'zini o'zi uchun kashf etish imkonini beradi. O'zgarishlar – bu o'zini kashf etish yo'lidagi yo'l ko'rsatkichlardir. Albatta, har qanday o'zgarishda nimanidir yo'qotish xavfi bor – hech narsa bekordan bekorga berilmaydi. Ammo hayotingizni yaxshilashni istar ekansiz, bu xavfni kechib o'tishingizga to'g'ri keladi. Busiz biror narsaga erishish imkonni yo'q. Bajarayotgan ishingizga o'ta jiddiy yondoshing, shundagina 100% muvaffaqiyatga umid bog'lasingiz mumkin bo'ladi. Hayot – bu o'yin va unda faqat qoidaga rioya qilib o'ynaganlargina g'olib chiqishadi. Va asosiysi, yolg'on kamtarlikdan voz keching. Hech qachon kamiga rozi bo'l mang, hamisha yuqoriga intiling.

## 2.4. BOYLIKKA ERISHISH UCHUN "NIMA QILMOQ KERAK?"

«*Biznes – bu birovlarining cho'ntagidagi pulni zo'rlik ishlatmay olish san'atidir».*  
Shota Rustaveli.

**1. ISHLAB TOPING.** Istalgan vaqtida, istalgan yerda va istagancha pul ishlab topish mumkin. “*Bir mevani savatga solar ekanman, ikkinchisini uzamanu, uchinchisiga nazar sola boshlayman*”. Ana shu usulda ishlab toping. Siz boshqalar qila olmaydigan ishni qilishingiz kerak. Siz boshqalar qilmayotgan ishni qilishingiz kerak. Biror sohada monopolist bo'lib olsangiz bo'ldi, boyib ketaverasiz. Agar ayni zamonda qilayotgan ishingiz, topayotgan pulingiz sizni qoniqtirmayotgan bo'lsa, ko'proq ishlab topish yo'llarini izlang, bir paytning o'zida bir necha yo'naliшda ishlab ko'ring va kelajakda nima bilan shug'ullanishingiz haqida ham bosh qotiring.

**2. AYLANTIRING.** Istagan shaklingizda, istagan vaqtingizda va istaganingizcha pul aylantirishingiz mukin. Ya'ni: “*Bir ishga pul tashlayman, ikkinchisini o'r ganib boraman va uchinchisini qidiraman*”. Daromadingiz

harajatingizga nisbatan ortib bormoqdam, ortiqcha mablag'ani yana foyda keltiradigan ishga tashlang. Ammo foydasini yaxshilab hisob-kitob qiling. Bordiyu, foyda sizni qoniqtirmaydigan bo'lsa, yana boshqa bir ishni izlang. Pulni avvalo sog'ligingizni yaxshilashga, ta'lif olishga, mulkka va albatta, xususiy ishga yo'naltiring. Iloji boricha o'zingizning ishingizga, uzingiz rivojlantiradigan biznesga ega bo'ling.

**3. JAMG'ARING.** Istagan narsani, istagan vaqtda va istagancha jamg'arish mumkin. Qancha ko'p jamg'arsangiz, shuncha yaxshi. Jamg'armangiz ortgani sayin, pul topish imkoniyatingiz ham ortadi. Ko'chmas mulk, qimmatbaho metallar va toshlar, antikvariant, qimmatbaho qog'ozlar, bankdagi hisob raqami - bularning bari pul jamg'arishning eng ishonchli usullaridir.

Biznesda aktiv va passiv tushunchalari bor:

**Aktivlar** – bu sizga foyda keltiradigan narsalar.

**Passivlar** – bu sizdagi mablag'ni yeydigan narsalar.

Sog'lik, ta'lif olish, intellektual mulk, g'oyalar, kashfiyotlar, mehnatkashlik va albatta foyda keltiradigan mol-mulkni aktivlar deymiz. Passivlar esa shunchaki yotadi, sizga hech qanday foyda keltirmaydi. Faqat turmushni biroz bezashi mumkin, holos. Shuningdek, qimmatbaho uy jihozlari, maishiy texnika, kiyim-kechak, taqinchoqlar va hokazo – bular pulni shunchaki yeb yuboruvchi ashqoldashqollardir. Lekin inson tabiatida passivlarga o'chlik bor. Bu hirs bizni isrofgarchilik tomon yetaklaydi va o'z pullarimizning dushmaniga aylantiradi. Ba'zida passivlarni sotib olish uchun ham ancha jiddiy sabablar bo'ladi. Masalan, oliymaqom kasb egalari, katta tadbirkorlar, siyosatchilar, ishbilarmonlar atroflariga ishda foyda beruvchi tanish-bilishlarni jalb qilish va ularda ma'lum ta'asurot qoldirish uchun qimmatbaho uy jihozlari, kiyim-bosh, avtomobil va oltin soatlarni sotib oladilar. Ammo bular vaqt o'tishi bilan o'zini oqlamog'i va sarf etilgan mablag'ni foydasi bilan qaytarmog'i kerak. Bunda, albatta, shaxs, uning imkoniyatlardan foydalana bilish mahorati asosiy ro'l o'ynaydi, aslo buyumlarning o'zi emas. Passivlarni ham pul ishlashga jalb qiling. Bordiyu buning uddasidan chiqa olmasangiz, ularni sotib yuboring. O'rniga foyda keltiradigan

narsalarni sotib oling. Harajatlar daromadlarga mutanosib ravishda o'sish odatiga ega. O'z harajatlaringizni daromadlaringiz bilan muvofiqlashtirib boring va aslo passivlarga ruju qilmang. Yodda tuting, har qanday buyum sotib olingenining ertasigayoq ishlatilgan hisoblanadi va o'z qiymatini yo'qotadi. Xech qachon biror narsani sotib olib, keyin kerak bo'limganligi uchun sotib yuborishga urunmaganmisiz? Agar omadingiz kelsa, yarim bahosiga pullashingiz mumkin. Shuning uchun qimmatbaho narsani sotib olayotganda: "*Bu chindan ham menga kerakmi?*", - deya yana bir bor o'ylab ko'ring. Yana shuni unutmangki, yangisining o'rniga ishlatilganini olsangiz, 50% pulni iqtisod qilib qolishingiz mumkin.

Bir aksiomani hech qachon unutmang: odamlarning ehtiyojlari muttasil ortib boradi. Bundan foydalanib qoling, odamlarga hali hech kim taklif etib ulgurmagan narsalarni taklif eting. Boylik qonunlari hamma zamonlar uchun bir xil va hech o'zgarmasdir. Ular hamma zamonda va makonda, har qanday jamiyatda va iqtisodiy sharoitda amal qilaveradi. Bu moddiy muvaffaqiyatga erishishi istagida bo'lgan har bir insonning bilishi lozim bo'lgan aksiomalardir. "Millionni jamg'argunimcha, eh-he, qancha vaqt o'tib ketadi" deyishadi ba'zilar. Ular katta xato qiladilar. Badavlat bo'lish uchun, avvalo, harakat qilish kerak. Natija esa siz o'ylagandan ko'ra tezroq ko'rina boshlaydi. Yuqorida boylik qonuniyatlarini bayon qilgan edik. Ulardan tashqari biznes olamiga qadam qo'yishingiz bilan amal qilishingiz lozim bo'lgan qoidalar ham bor. Quyida ularni sanab o'tamiz:

1. Avvalo, "pul – nima?" degan savolga javob topib oling. Bunda chuqr falsafiy mushohodalarga berilish zarur emas. Asosiysi, aynan o'zingiz uchun uning qanday ahamiyatga egaligi va nima uchun kerakligini aniqlashtirib oling va oldingizga "albatta erishaman" degan maqsad qo'ying.

2. Orzularingizni be'e'tibor qoldirmang. Iloji bo'lsa, bir kichkina quticha yoki albomga ularni yig'ib boring. Ammo shunchaki orzuga berilavermay, hamisha "Unga etish uchun nima qilish kerak?" degan savolga ham javob izlab yuring.

3. Nima uchun daromadim yuqori bo'lsa ham, pulim ko'paymayapti? - degan savol ustida bosh qotiring.

4. Siz uchun yana bir muhim savol: “Maqsadingizga yetish yo’lidan sizni hech nima aynita olmasligi uchun nima qilish kerak?”

5. Unutmang, har doim ham oson bo’lavermaydi.

6. O’zingizga ishonch katta ahamiyatga ega.

7. Sevimli mashg’ulotingiz (xobbi) ni pul topish manbaiga aylantira olsangiz, natijaga erishishingiz oson kechadi, natija ham salmoqli bo’ladi.

8. “Muhim” va “tez” atamalari orasidagi farqni anglab oling. Ba’zida o’zingiz uchun muhim bo’lgan ishni tashlab, boshqa tezroq bajarilishi lozim bo’lgan amalga qo’l urushingizga to’g’ri keladi. Shunda o’sha tez bajariladigan ishdan oladigan foydangiz muhim ishni bir chekkaga surib turishga arziydimiyo’qmi? Ana shu savolga to’g’ri javob toping. Agar arzimasa bu ishga qo’l urmang.

9. Muhim qoida: 72 soat ichida amalga oshirish.

10. O’ynab turib ko’p pul topish. Ya’ni pul keltiradigan ishni yoqtirib va o’ynab qilayotgan ishingizdan iloji borisha ko’p pul topish.

11. Ishlab topgan pulningizning o’ndan bir qismini jamg’arib borib, o’zi va oilasi uchun farovon keljakni ta’minlaydiganlar tomonga pullar o’z-o’zidan oqib kelaveradi.

12. Pul o’zini aql bilan aylantira oladigan dono kimsalar uchungina yaralgan.

13. Pul himoyaga muhtoj. Shuning uchun ehtiyyotkorlik va dono maslahatlarni ma’qul ko’radi.

14. Pul bilmaydigan sohasiga o’zini uruvchilarni yoqtirmaydi.

15. Pul uni tovlamachilik yoki puxta o’ylanmagan ishlarga jalb etishlarini istamaydi va bunday qilganlarni tez orada tark etadi.

16. Pul jamg’arisning oddiy qoidalarini yaxshi biladiganlar tomon intiladi:

- hamyoningizni to’ldirish harakatini boshlang.

- harajatlarni nazorat qiling.

- mablag’ingizni ko’paytirib boring.

- jamg’armangizni ehtiyyot qiling.

- turar joyingizni foydali tashkilotga aylantiring.

- kelajak uchun daromad qiling.

Mana bular boylik to'plashning qoidalari. Shuningdek, ahamiyati bulardan kam bo'limgan bir qancha amaliy maslahatlarimiz ham ham bor. Ularni ham yodda saqlang:

- Boyish imkoniyati bo'la turib, kambag'allikda yashash – uyat. Kerak bo'lganda biladigan odamlardan maslahat so'rang. Pulning faqat siz uchun ishlashini ta'minlang. Oldingizga qo'yilgan maqsadga albatta erishing. Ammo maqsadni aniq va oddiy shaklda qo'ying. Hamma narsaga birdaniga emas, bosqichma-bosqich erishiladi. Shuning uchun maqsadni ham bosqichma-bosqich qo'ying. Yana ichingizdagi dushman – dangasalikni yenging. Boylik isni paysalga soladiganlar, bo'lar-bo'lmasga keyinga suradiganlarni yoqtirmaydi.
- Agar birovga, hattoki eng yaqin do'stingizga ham, yordam bermoqchi bo'lsangiz, bu ishni o'zingizni qiynamay amalgalash oshiring.
- Qaytarib berishlariga zarracha shubhangiz bo'lsa, aslo qarz bermang.
- Birdagina va katta foyda olamiz, deydigan dangasa hayolparastlarning chiroqli rejalariga uchmang.
- O'z muvaffaqiyatsizligingiz va xatolaringizda Xudoni ayblamang!

Mana, qonun-qoidalar bilan tanishib chiqdingiz. Endi paysalga solmay, ularga amal qilishni boshlang. Ko'p zamonlar avval faylasuf Seneka shunday degan edi: “*Biz biror ishni qiyin bo'lgani uchun boshlamadik, deb o'ylaymiz, aslida esa boshlamaganimiz uchungina bu ish qiyin tuyuladi*”. Uzoqqa borib nima qilamiz, o'zimizda ham “*Ko'z qo'rqaq – qo'l botir*”, degan maqol bor-ku.

## **2.5. BOY BO'LISH UCHUN NIMALARGA AHAMIYAT BERISH KERAK**

«*Biz go'yo pullarni ishlatayodgandek bo'lami, ammo aslida ko'pincha ular bizni ishlatayotgan bo'lib chiqishaqadi. Buast*».

**Boylikka xizmat qiling.** U ham sizga albatta xizmat qilajak. Iloji boricha hozirdanoq atrofdagilarga o'zingiz haqingizda boy odam ta'asurotini qoldirishga harakat qiling. Eng yaxshi kiyimingizni kiying, iloji boricha kundalik mayda-

chuyda harajatlarni qisqartiringu, kechki ovqatni yaxsi restoranda qiling. Kino, teatr yoki konsertga tushing. Magazinlarni sayr qiling – biror narsa sotib olishingiz shart emas. Shunchaki, sotuvchidan imkon bo’lishi bilan sotib olgingiz kelayotgan buyumingizni ko’rsatishini so’rang. Oq ko’ngil bo’ling. Esingizdan chiqmasin, yomon hayollar qachondir o’z ijodkorlariga qaytadi. Bu yaxsi fikrlar va pullarga ham tegishli. Bu hammaga ma’lum bulgan bumerang (qaytib kelish) qonunidir. Haqiqatdan ham yordamga muhtojlarga moddiy va ma’naviy yordam ko’rsating. Har bir yaxshililingizning javobi bo’ladi, bu koinot qonuniyatlaridan biridir. Bergan pullaringiz yana ko’payib sizga qaytadi. Qilgan savoblarining yana o’zingizga qaytadi. Shunday qilib, siz o’zingizni oliyjanob va badavlat his eta borasiz va albatta, shunday odamga aylanasiz ham.

**Yangi hamyon sotib oling.** Hamyoningiz beli bukilmagan pullarga to’la bo’lishini hohlaysizmi? Balki bankda salmoqli summaga ega hisob raqamini istarsiz? Ikkovi ham bo’lsa – yana yaxshi, biri ikkinchisiga xalaqit bermaydi. Ammo: “*Pul – qo ’lning kiri, bugun bor, ertaga yo ’q*” deb o’ylamang. Bo’lmagan gap! Hoziroq bu salbiy fikrni qayta ko’rib chiqib, isloh qiling. Boshlanishiga, mayda bo’lsa ham, bir necha qog’oz kupyuralarni oling. Hamyoningizga belini bukmay, g’ijimlamay solib qo’ying. Pul pulni chaqiradi – mana eng to’g’ri fikr! Agar hamyoningiz bo’lmasa, darhol chiroylisini sotib oling. Maqsad – pullarga bo’lgan munosabatingizni o’gartirilgan xolda ko’rib chiqish. Kambag’allik ayb emas, degan fikr noto’g’ri. Bu noshud odamlarning hayotga noto’g’ri munosabati oqibatida yuzaga kelgan yanglishishdir. Siz o’zingizni, oyilangizni, farzanlaringizni farovon hayot, mustahkam sog’lik, sifatli ta’lim va baxtli keljakdan mahrum etsangiz, o’zingiz istagan ish bilan shug’ullanish o’rniga boshqalarga yollanib ishlasangiz – buning nimasi “ayib emas”? Bundan ortiq ayib bo’ladimi jahonda?! Kambag’allik – bu moddiy ahvol emas, ruhiy holat, kayfiyatdir. Aynan shu holat sabab boylar yanada boyib boradi, kambag’allar esa kambag’allahib ketaveradi. O’zingizni badavlat va omadli his eta boshlashningiz bilan siz noshud va tashabussuz odamlardan farqli tarzda fikrlay boshlaysiz.

Kambag’al emas, badavlat odamdek fikrlay boshlashningiz bilan qo’lingizda pul paydo bo’la boshlaydi. Qashshoqlikdan qutilishning ko’p usullari bor. Avvalo, siz dunyoqarashingiz, mulohazalariningiz, o’y-hayollariningizni bir nazardan o’tkazib, ular orasidan boyishingizga xalaqit berayotgan salbiy va sustkashlarini terib tashlang. Agar kambag’allik nonini tatib ko’rmagan bo’lsangiz ham, kamharj tanishlaringizni kuzatgan bo’lsangiz, ular hech qachon o’z moddiy ahvollarini yaxshilash haqida o’ylamaydilar, aksinsa, kambag’allar bir umrga kambag’al bo’lib yashashga mahkum, deb ishonadilar. Ishonch esa ko’p narsani belgilaydi.

Xech qachon pul va puldorlar haqida yomon gapirmang, ayniqsa, yomon hayollarga bormang. Puldan va puldorlardan hazar qilar ekansiz, kambag’allik chohiga botib boraverasiz. Chunki siz g’ayrishuuriy tarzda ularga intilmay, aksincha, o’zingizni tortib yurasiz. Bunday yashab, siz o’z-ingizni o’marib borasiz.

Biz avvalgi bobda kambag’allarning boylarni yomon ko’rishi haqida gaplashgandik. Kambag’allar ko’pincha “boylarning dardi-fikri pul”, deb o’ylaydilar. Ammo aytingchi, hayotdan lazzatlanish va aqliy rivojlanish imkoniyati kimda ko’proq? Ertadan kechgacha arzimas oylik uchun ishlaydiganlardami? Yoki moddiy mustaqillikka erishib, har daqiqada maosh haqida o’ylash azobidan qutilganlardami? Ma’lum miqdorda kapitalni jamlaganingizdan keyin biznes haqida qayg’urmay qo’yishingiz ham mumkin. Chunki ish bir yo’lga tushib olgandan keyin o’zi ketaveradi, vaqtı-vaqtı bilan bir qarab qo’ysangiz bo’ldi. Endi sizda o’zingiz sevgan mashg’ulot bilan shug’ullanish, masalan, sayohat qilish, rasm chizish, sport bilan shug’ullanish, she’r yozish, ilmiy ish qilish ... imkoniyatlari tug’iladi. Muvaffaqiyat va moddiy farovonlikka shubha bilan qarovchi olamondan ajralib chiqing. Siz – SHAXS siz. O’z ishiga ega, farovon yashayotgan odamlarga havas qiling. Ular sizga o’ziga hos mayoq bo’lishsin!

Agar o’zingizni yaxsi ko’rmasangiz va o’zingizga yetarli darajada yuqori baho bermasangiz, ota-onangizning moddiy ahvoldidan qat’iy nazar, hech qachon boy bo’lolmaysiz. Albatta, manmanlik, haddan ortiq o’zidan ketish yaxshi emas. Ammo qilayotgan ishingiz, erishgan natijalaringizning qadriga yeting. Xech

qachon vaqtini bekor sarflamang, boshlagan ishingizni oxirigacha yetkazing va natijalardan zavqlaning.

**Qaddingizni tik tuting.** Doimo qaddingizni tik tutib yuring. Shunda ishlaringiz ham yuqoriga ko'tarilib boradi. Ammo haddan oshib ketmang, hammasi tabiiy bo'lishi kerak. Bunda me'yorni bilmaslik, atrofdagilarni sizdan itarib, muloqot doirangizni toraytirib qo'yishi mumkin. Bu esa biznesda zarar keltiradi. Yelkalarlingizni biror orqaga tashlang, ammo boshingiz oldinga chiqib ketmasin. Buning uchun dahaningizni biroz ichkariga torting. Maslahatlarga amal qilsangiz, ruhan yengillik his etib, o'zingizga ishonch paydo qilasiz. Shu zahotiyoy hayotga zavq ortadi, o'zingizni yuqori baholay boshlaysiz. Bu esa, o'z navbatida, atrofdagilarning siz haqingizdagi fikrlariga ijobiy ta'sir qiladi.

**Pullarni behuda yo'qotishdan qo'rqing.** Siz ma'lum miqdordagi pulni yo'qottingiz, olaylik, o'g'irlatdingiz, biror buyumni qimmatroqqa sotib oldingiz yoki birovga qarz berib qaytarib ololmadingiz. Katta pulmi yoki arzimas summami, qat'iy nazar, bir yo'qottingiz, tamom, pullar o'z-o'zidan sizdan qocha boshlaydi. Bu shunchaki irim emas, asosli fakt. Chunki pul yo'qotganingizda tanangiz chuqur stress holatiga tushadi, ular haqida o'ylab, achinganingiz sayin bu tushkunlik ortib boraveradi. Buni hayotingizdagi qora yo'lak deyish mumkin. Ammo bu yo'lakdan tezroq chiqib ketish yana o'zingizga bog'lik. Chunki pul yo'qotganingizda ichingizda pul topish uchun yo'naltirilgan harakat o'z-o'zidan ketgan pulni qaytib olish va qolganini saqlash harakatiga aylanib boradi. Pullarni esa shunchaki saqlab qolib bo'lmaydi. Pul jamg'arish va borlarini asrashning yagona yo'li yana pul topishdir. Demak, birinchi qiladigan ishingiz, pullarning bekordan bekorga hamyoningizni tark etishiga yo'l qo'y mang. Bordiyu bir omadsizlik sababli moddiy yo'qotishga uchraguvdek bo'lsangiz, avvalo yana pul ishlab topishga harakat qiling. Ketgan pulni faqat shu yo'l bilan qaytarish mumkin. Pulni faqat pul chaqiradi. Shuningdek, pulni qanday va nima uchun yo'qotganingizni o'ylab ko'ring. Bunga olib kelgan qadamlarni yana hayolan tiklang va endi bu yo'lni qayta shunday bosib o'tingki, avvalgi hatolar takrorlanmasin.

**Tejamkorlik va xasislikning farqiga boring.** Agar hayotingiz cheksiz yorug' yo'lakdan iborat bo'lismeni istasangiz, biz aytgan maslahatlarga amal qiling. O'zingizni bekordan-bekorga hayot lazzatlaridan mahrum etmang. Ba'zilar boylik to'plash yo'lida ortiqcha tejamkorlikka berilib ketib, o'zlarini ham, atrofdagilarni ham hayot quvonchlaridan mahrum etib qo'yadilar. Yodda tuting, har qanday tejamkorlik va uning ortidan keladigan moddiy muvaffaqiyatlar faqat siz va yaqinlaringiz uchun, ularning hayotini bezash uchun xizmat qiladi. Sizning xasisligingizdan azob chekkan atrofingizdagilar boylikni yomon ko'rib qoladilar. Boylik esa o'zini yomon ko'rganlardan qochadi. Shu jumladan, sizdan ham.

Agar siz pul topish mexanizmini yaxshi o'zlashtirib, vaziyatni boshqarish qobiliyatingizni shakillantirib olsangiz, har qanday vaziyat faqat sizning foidangizga ishlaydi. Agar ichingizda bir ovoz, biz uni intuitsiya deymiz, ma'lum ishni amalga oshirayotganingizda, yaxshi foyda olishingiz haqida xabar bersa, ayni damda sizga bu pul kerak bo'lmasa ham, shu ishga qo'l uravering. Yodda tuting, siz boylikning sarbonisiz. O'zi oqib kelayotgan pullarning qo'lingizdan o'tishini istamasangiz, o'z-o'zidan bu oqimni boshqa sarbonlar tomonga burib yuborgan bo'lasiz. Tabiiyki, bu oqim endi qaytib orqaga – siz tomonga oqmaydi. Ijobiy fikrlang va ijobiy fikrlaringizni tasdiqlovshi amallarga qo'l uring. Boylikni topish bilan birga, undan me'yorida lazzatlanishni ham biling. O'rni kelganda birovning o'rniga haq to'lang (bu albatta sizga foyda shaklida qaytib keladi). Iloji bo'lganda ayrim to'lovlarini kechiktiring (Pulning, bir kun bo'lsa-da, sizning qo'lingizda aylangani foyda). Xayriyani ham yodda tuting. Agar bu ishlarni hech bir og'rinishsiz qila olmas ekansiz, ishingizda hamon farovon yashashingizga xalaqit berayotgan to'siq bor. Uni yiqiting!

**Boylikka erishish uchun nafaqat aytganlarimizni yaxshi anglamog'ingiz, balki ularga qat'iy amal ham qilmog'ingiz kerak!**

## **2.6. PULLARGA QANDAY MUNOSABATDA BO`LISH KERAK**

*«Jannatda ham huru ham may bo'larmish,  
Hammasi mo'l-ko'lu mo'may bo'larmish,  
Biz mayu-ma'shuqni sevsak arziydi,  
Chunki oqibat ham shunday bo'larmish».*

*Umar Hayyom*

Biz ularni qancha ko'p bo'lsa, shuncha sevamiz. Ular uchun hamma narsaga tayyormiz. Aynan ular bizning ijtimoyiy mavqeimizni belgilaydi. Xo'sh kim ular yoki nima? DO'STLARMI? OILAMI? AYOLLARMI? YO'O-O-Q . . . . . BU – PULLAR, PULLAR VA YANA PULLAR!

Pul kam bo'lsa - bir balo, ko'p bo'lsa – yana bir balo! Yetarli bo'lsa-chi? Lekin shunday bo'lishi mumkinmi? Qachon pulim yetarli, boshqa pul kerak emas, degan odamni ko'rgansiz?

Unda pullar ezgulikmi yoki yomonlik? Bilasizmi, pullar o'z holicha yaxshi ham, yomon ham bo'lishi mumkin emas. Pul – bor-yog'i rasmlar chizilgan qog'ozcha. Biz insoniylikka mos bo'gan ezgu qadriyatlarni rad etuvshi xatti harakatlarimiz, noto'g'ri amallarimiz, foyda ko'rish yo'lidagi nohalol ishlarimiz bilan pullarning u yoki bu rangda nomoyon bo'lishiga sabab bo'lamic.

Pul – bu moddiylashtirilgan energiya. Bu energiya har birimizda bor. Faqat kimdir uni moddiylashtira oladi, kimdir esa yo'q. Ichki energiyani moddiylashtirishning yagona yo'li – mehnat. Mehnat bo'lganda ham, o'zingiz sevib va qoniqib qiladigan, nafaqat moddiy, balki m'anaviy foyda beradigan mehnat. Aksincha bo'lsa, bu mehnatdan hech qanday naf bo'lmaydi. Yaratuvshi, quvonsh-baxsh, qiziqarli va sevimli, asosiysi ilhom beruvshi va hayolan osmonlarga olib chiquvchi ish bizga baxt va farovonlik hadya etadi. Inson faqat salomat bo'lganida, sevganida va baxtli bo'lganidagina hayot mazmunini to'la anglaydi. Shundagina u bekorga yashamayotganini his etadi. Jannat aslida YER yuzidadir, uni toping, yani o'z mehnatingiz va aqlingiz bilan yarating. Moddiy qiyinchiliklar aslida omadsizlik emas, ruhiy qashshoqlik, kaltabinlik va irodasi sustlikning natijasidir. Albatta, nafaqalar, maoshlar, imtiyozli chegirmalar bir muncha yordam berishi, ya'niki ochdan o'lmasligingiz uchun ozuqa berishi

mumkin. Ammo ular vaziyatni tubdan o'zgartirmaydi, sizni o'zingiz istagan farovonlikka yetkazmaydi. Xozir moliyaviy masalalarda amaliy maslahatlar beruvshi qo'llanmalar chop etilmoqda. Ularni bir ko'zdan kechirib chiqing. Yana mamlakatdagi qonunlarni, soliq tizimini, buxgalteriya hisob-kitobini o'rganib oling. Ozingizcha, bu hisobchi va huquqshunosning ishi, ularni yollasam, masala hal deb o'ylamang. Avvalo, bor-yog'i uch oyda buxgalteriga hisob-kitoblarini o'rganib olishingiz mumkin. Qolaversa, har qancha professional buxgalter va hisobchini yollamang, pullar sizniki va ularni asrash mas'uliyati birinchi o'rinda sizning zimmangizda bo'ladi. Faqat moliyaviy savodxonlikkina kichik biznesni rivojlantirish va foydani imkon qadar ko'paytirishga garov bo'la oladi. Nega? Chunki biznesning asosida pulni to'g'ri aylantirish yotadi. Xo'sh, endi pullar bilan to'g'ri muloqot qilish u qadar qiyin muammo emasligini angladitingizmi? Anglash – bu hali ishning yarimi. Qolgan yarimi – anglaganlarni amalga oshirishdir. Umuman, bu haqida yuqorida juda ko'p gapirdik. Omad sizga yor bo'lsin, azizlar!

*Quyida hayotingizni maqsadga muvofiq ravishda ruhiy dasturlash uslubiyati va bu bilan bog'liq bo'lgan mashg'ulotlar ketma-ketligi keltiriladiki, agar siz ularni kundalik faolitingizda sobitqadamlik bilan qo'llasangiz va doimiy ravishda ulardan foydalasangiz, hayotda kattadan-katta muvaffaqiyatlarga, ruhiy hotirjamlikka hamda chiroylı hayot tarziga erishishingiz imkoniyati yaratiladi.*

## **2.7. MUVAFFAQIYATGA ERISHISH FORMULARI**

«*Har sirdan ogohsen, ey do'stim, sen ham,  
Na uchun behuda chekasan alam.  
Ixtiyoring bilan yurishmas hech ish,  
Xursand bo'l, tiriksan, seniki bu dam».*

*Umar Hayyom*

*(bu mashqlarni har kuni hotirjam va sokin tarzda hamda tinchlik bo'lgan shart-sharoitda yolg'iz o'zingiz ikki martadan qaytarishingiz sizga ruhiy hotirjamlik bag'ishlaydi va sizni muvaffaqiyat sari yetaklaydi)*

- Men boy bo'lishga qaror qildim.
- Men muvaffaqiyatga erishishga qaror qildim.
- Men moliyaviy mustaqil bo'lishim kerak!
- Men har bir insonga boylik va omad tilayman. Shunday qilish orqali men o'z aqlu-xushimni tugalmas Universal boylik manba'iga qarataman.

- Men boshqalarga boylik va muvaffaqiyat tilash bilan o'zimga ham foyda olaman.
- Boshqa insonlarda boylik va muvaffaqiyatga erishish xissiyotini kuchaytirsam, men uni o'zimda ham yanada kuchaytiraman.
- Men o'zim uchun kerak bo'lган bilimlarni eng yaxshi usulda boshqalarga o'rgatsam, ularni o'zimda ham yanada kuchaytiraman.
- Pullar – mening do'stimdir!
- Pulim bo'lsa, men hotirjamman.
- Endi men o'zimni muvaffaqiyatga erishayotgan inson sifatida ko'rayapman.
- Menga juda katta miqdordagi pullar oqib kelayapti.
- Pullar menga suv to'lqinlari qirg'oqqa kelganday juda oddiy va xaqqoniy ravishda kelayapti.
- Mening moliyaviy holatim iqtisodiyotga bog'liq bo'lмаган xolda doimiy ravishda yaxshilanayapti.
- Men juda katta pullarga munosibman hamda ularni o'zimga va boshqalarga yordam berish uchun ishlataman.
- Men o'z ishimga juda katta kuch-quvvat sarflayman va bu menga yana ham kattaroq daromad beradi.
- Menda qanchalik katta pul bo'lsa, men yana ham katta miqdordagi pullarni o'zgalar bilan bo'lishishim kerak.
- Mening boyligim men nima qilayotganidan qat'iy-nazar, kun sayin ko'paymoqda. Mening hayotimda pullar doimiy harakatda va ular doimo ortiqchalikda.
- Men har kuni o'r ganaman va malakamni oshiraman, chunki bu mening dunyo uchun qimmatimni oshiradi.
- Men sarf qilayotgan har bir so'm iqtisodiyotni boyitadi va menga bir necha marta ko'proq bo'lib qaytadi.
- Mening boyligim kun sayin mustahkamlanadi va ko'payadi.
- Men ilgari qarab intilaman va shu tufayli mening boyligim hamda aqlim yanada ortadi.
- Men pullarni foydali uskuna sifatida ko'raman.

- *Menda qanchalik ko'p pul bo'lsa, men ularni o'zimga va boshqalarga yordam berish maqsadida yanada ko'proq ishlatishim kerak.*
- *Men doimo muvaffaqiyatga erishaman, chunki men insoniyatning hamda barcha tirik mavjudotlarning rivojlanishiga o'z xissamni qo'shishni judayam istayman.*
- *Men salbiy fikrlarni ijobiy fikrlar bilan almashtiraman.*
- *Men xozirning o'zida ko'tarinki kayfiyatdaman va optimistman.*
- *O'ylaymanki, hammasi yaxshi bo'ladi.*
- *Men ruhiy sokinlikni saqlayman.*
- *Men bezovta bo'lishdan qutulaman.*
- *Men o'zimning ruhiyatim sokinligini saqlayman.*
- *Men bezovtalikdan ozod bo'laman.*
- *Men o'zimni erkin va ozod inson sifatida xis qila olaman.*
- *Menda ijobiy va ijodiy yondoshuv mavjud.*
- *Men sog'-salomatman, o'zimni juda yaxshi xis qilayapman va bundan buyon ham o'zimni shunday va undan ham yaxshi xis qilaman.*
- *Men xozir baxtli bo'lishni afzal ko'raman!*
- *Men chin dildan xursandman va jilmayayapman.*
- *Har qanday holatda ham men yaxshi tomonlarni ko'raman.*
- *Hayot menga yoqadi va men undan lazzatlanaman.*
- *Men hayotning har bir lahzasini yaxshilik bilan o'tkazaman.*
- *Men o'zimni baxtli va hotirjam xis qilayapman.*
- *Men o'z taqdirimdan juda ham minnatdorman.*
- *Men tanqid qilishdan qo'rqish xissidan ozod bo'ldim.*
- *Men hech nimadan qo'rqlayman.*
- *Men o'zimni-o'zim hurmat qilaman.*
- *Men o'zimga ishonganman va barchaga yaxshi munosabatdaman.*
- *Men tanqidga nisbatan to'g'ri munosabatdaman.*
- *Menga o'z-o'zimga baho berishim juda ham muhim.*
- *Men rejalashtirilgan ishlarni bajarishni keyinga surmayman.*
- *Men darhol ishga kirishaman.*

- Men boshlangan ishimni davom ettirish uchun kuch-kuvvatga to 'liqman.
- Men eng asosiy ishlarni birinchi navbatda bajaraman.
- Men harakatchanman, mening maqsadim va doimiy intilishim mavjud.
- Men harakatga tayyorman.
- Men ishni boshlash va uni oxirigacha etkazishni yoqtiraman.
- Kun sayin mening omadim kelayapti.
- Men o 'z muvaffiqiyatimni o 'zim yarataman.
- Men har qanday ishda ham omadliman.
- Men baxt va omadga loyiqliman.
- Men omad keltiradigan imkoniyatlarni yanada yaxshiroq ilg 'ab olayapman.
- Mening hayot yo 'limda yanada ko 'proq omad keladi.
- Men baxtli insonman.
- Endi menga istagan narsamni so 'rash yanada osonroq.
- Men osongina savollar bera olaman.
- Menga so 'rash yoqadi.
- Men so 'ragan xolda o 'rganaman.
- Men so 'ragan xolda foydaga erishaman.
- Insonlar mening savolarimga javob berishni yoqtiradilar.
- Iltimoslar men munosib bo 'lgan narsalarni olishimga yordam beradi.
- Men ko 'tarinki kayfiyat xis qilayapman.
- Men ko 'tarinki kayfiyat va kuch-quvvatga to 'laman.
- Mening kayfiyatim juda yaxshi, o 'zimga ishonganman va ozodman.
- Men tabiiy intilish bilan to 'liqman.
- Men ajoyib xissiyotlar sohibiman.
- Menga o 'zimning tabiiy intilishlarimni ko 'rsatish yoqadi.
- Mening harakatchanligim mening rivojlanishimga yordam beradi.
- Menga mukofotlanishga bog 'liq bo 'lmagan xolda butun kuchimni safarbar qilish yoqadi.
- Savob qilish menga o 'z majburiyatimni bajarish xissiyotini anglatadi.
- Menga birov larga nimalardir berish yoqadi.

- Berish olishga nisbatan kattaroq baxtdir.
  - Men ekkan yaxshiliklarimning mevalarni olayapman.
  - Men boshqalarga ular kutganlaridan ko'ra qo'proq berishni yoqtiraman.
  - Boshqalarga nimalarnidir berish bilan o'zim ham mukofotlanishga loyiqman.
- \* \* \* \* \*

*Quyida hayot tarzingizni rejalashtirish va uni kerakli yo'naliшda boshqarish uchun mo'ljallanilgan va «hayoliy fil'm» deb nomlangan mashq keltiriladi. Bu ruhiy mashq vositasida siz o'zingiz uchun istalgan hayot tarzini rejalashtirishingiz mumkin:*

## **2.8. «Hayoliy fil'm» ni quyidagicha tartibda tomosha qilish kerak bo'ladi:**

*«Nokasdan sir berkit, tilingni bog'la,  
Ablahdan yashirin bo'lishni chog'la,  
Kishilar joniga o'z qilmishin ko'r,  
Sen ham shunga ko'z tut, shuni so'rogla».   
Umar Hayyom*

1. Uch marta chuqur nafas olishdan boshlang. Har bir olingan nafasni bir necha sekund chiqarmay turing va uni chiqarganda o'zingizga-o'zingiz «bo'shashgin, engillashgin» deb ayting. Bu ish miyani tinchlantirishga yordam beradi va siz o'z ongingizni ijobiy (pozitiv) fikrlarni, sezgilar va holatlarni osonlik bilan qayta programmalashtirishingiz mumkin bo'ladi.
2. Faraz qiling, siz kinozalda o'tiribsiz va u erda proektor, ekran va fil'm bor. Ular faqat siz uchun o'rnatilgan. Kimdir siz uchun kinoproektorni boshqarishi mumkin yoki bu ishni o'zingiz bajarasiz.
3. Xozirgi shart-sharoitni tavsiflovshi fil'm ekranga tushiriladi. Siz ushbu fil'mni va u bilan bog'liq shart-sharoitlarni yangi xissiyotlar bilan ko'rishingiz mumkin bo'ladi. Ko'rish paytida o'z fikrlaringiz va xissiyotlaringizni fikran kuzating. Tushungan va intuitiv ravishda sezgan barcha yangiliklarni fikran belgilab qo'ying. Siz barcha vaqt mobaynida holatni to'liq boshqara olasiz va shuning uchun ham istalgan vaqtda yoki istalgan joyda fil'mni to'xtatishingiz yoki istalgan fragmentni yaxshiroq tushunish uchun yana qaytarishingiz mumkin. Siz o'zingizni qulay xis qilasiz, siz yaxshi fikrlarni tushunishga ochiqsiz, ijobiy fikrlarni tushunish va qabul qilishga moslashgansiz. Siz ro'y berayotgan barcha jarayonlarga

o'qish-o'rganish va o'sish uchun bir imkoniyat sifatida qarayapsiz. Birinchi qismni ko'rayotganingizda, joriy holatni yaratgan qarorlar yoki ruhiy dasturlarni xis qilishingiz va aniqlashingiz mumkin. Bu yangiliklarni ochish uchun juda ko'p kuch sarflash xojat emas, chunki ular miyangizda paydo bo'lган vaqtida ularni fikran belgilab qo'ygansiz.

4. Kinoni ko'rib bo'lgandan so'ng, bobinani almashtiring, ya'ni, bir necha minut dam oling. Endi ekranga oxirgi natijani aks ettiruvchi ko'p o'lchamli fil'mni tushiramiz. Quvonch va ehtiros bilan kutilayotgan natijani xis qiling hamda u bilan yashashga intiling. Bu natija siz istagan yoki erishishga umid qilgan qandaydir mavhum narsa emas, balki bu natijaga erishish jarayoni boshlanayapti va siz mammunlik bilan ushbu jarayonda ishtirok qilayapsiz. Siz istalgan oxirgi natijani tasavvur qilgan xolda unda 30-60 sekund davomida to'xtalib turasiz. Fikriy kino tarkibiga kiring va uning ajralmas bir qismi bo'lib qoling. Erishilishi rejalashtirilgan ijobiy natijada bir obraz sifatida ishtirok etishga harakat qiling va bu natijalar bilan iloji boricha to'liq rohatlaning. Bu ruhiy jarayonda o'zingizning barcha sezgi organlaringiz – eshitish, ko'rish, sezish, xid bilish, ta'm bilish, xis qilish va iloji bo'lsa, intuitsyaning ham ishtirok etishiga harakat qiling. O'zingizda erishiladigan natijaga monand bo'lган ijobiy xissiyotlarni uyg'otishga harakat qiling. Ijobiy natijaga erishish tufayli mukofot tariqasida keladigan o'z-o'zingizga ishonch, qoniqish, ruhiy ko'tarinkilik va quvonchni xis qiling.
5. Endi oxirgi natijaning tasvirini ekrandan yo'qoting va o'zingizni erkin xis etgan xolda bo'shaning – bu bosqichda siz o'zingizni ruhiy dasturlashni nihoyasiga etkazdingiz. Ya'ni siz muvaffaqiyat urug'ini ekib bo'ldingiz. Endi fil'mning birinchi qismi yozilgan bobina saqlash uchun arxivga topshirilishi ham mumkin, chunki endi uni ko'rish shart emas. Ammo, agarda biror bir muammo chiqib qolsa, siz uni chuqurroq tahlil qilishni istasangiz, fil'mni yana bir bora ko'rib chiqishingiz mumkin bo'ladi. Ammo bu ishni kelajakda dasturlashda, hayoliy kino faqatgina istalgan natijani o'z

ichiga qamrab olishi kerakligini unutmang. Shunday qilib, siz o’z kuch-quvvatingizni muammoga emas, balki echimga qaratasisiz. Dasturlashga qancha ko’p xissiyot joylasangiz, seanslarni qaytarganeringizda siz shunchalik ko’proq ijobiy ehtiroslar his qilasiz va bu hislar yanada samaradorroq bo’lib boraveradi. Agar biz biror bir salbiy yoki ruhiy jarohat olgan bo’lsak, biz o’tmizga qaytishimiz va uni boshqacha tarzda hamda ijobiy ravishda butun hayotimiz davomiyligida qayta boshdan kechirishimiz mumkin. Ya’ni, biz o’z hayotimizni tom ma’noda boshqarishimiz mumkin. Xuddi shu tarzda ijobiy tajribalarni ham qaytadan boshdan kechirishimiz mumkin va ularni har galgi qaytarishda bo’shanilgan holatda bo’lishimiz darkor. Bunda biz pozitiv fikrlarga, obrazlarga va xissiyotlarga diqqatni qaratishimiz juda muhim. Ushbu qoniqish, quvonch va o’z-o’ziga ishonch xissiyotlarini istalgan vaqtda avtomatik ravishda qaytarish mumkin. «Hayoliy fil’m» bunday ijobiy xissiyotlarga berilish holatini keljakdagi turli xil sharoitlarda va holatlarda avtomatik ravishda qaytarish imkonini yaratadi. Ushbu uslubni qo’llagandan so’ng, siz bir qancha muddatdan keyin hech qanday kuch sarflamasdan turib, o’zingizda ijobiy xissiyotlar va ishonch paydo bo’lganini sezasiz. Agar siz o’zingizda ishonch va ijobiy holat xis qilsangiz, siz shashubhasiz turli xil holatlarda samaradorroq faoliyat ko’rsata olasiz. Bu esa sizning kuchingizga-kuch qo’shadi va siz o’z imkoniyatlaringizni yanada to’laroq ishlata olasiz. Agarda dasturlashtirish paytida sizga boshqa turdag'i chalq’ituvchi fikrlar kelsa, buni to’g’ri tuchuning – chunki bunday bo’lishi tabiiy holatdir. Bunday o’y-fikrlarni chetga surib qo’ying va fikran qaerda bo’lishni istasangiz, hayolan o’sha erga qayting. Bu amallarni har gal qaytarganeringizda siz unga yanada chuqurroq berilasiz va yanada kuchli bo’lgan xolda, jarayonni yanada yaxshiroq boshqarasiz (oxirgi ijobiy natijaga diqqatni qaratganeringiz va undan qoniqish, quvonch, ruhiy quvvat olganingiz sari sizning miyangiz yanada kamroq boshqa mavzu va xissiyotlarga chalq’iyotganini sezasiz. Ijobiy xissiyotlar esa sizga xozirgi

vaqtda eng muhim bo'lgan ishlargagina diqqatni jalg qilishga yordam beradi).

## **2.9. Ijobiy fikrlashni dasturlash**

*«Maxtumquli hargiz topmadni omon,  
Yomon tilning zahri tig'lardan yomon,  
Yomon til yonida zahri ko'p ilon,  
Chaqsada, bir chivin chaqqancha bo'lmas».*

Biz o'ylagan, ko'rgan, eshitgan yoki his qilayotgan barcha voqeal va xodisotlar bizning aqliy komp'yuterimizni dasturlashtirish kabi tushunilishi mumkin. Bizning o'ziga xos «bog'imizga» doimiy ravishda «urug'lar» ekiladi. Dasturlashtirish bilan quyidagi tarzda mashq qilishni taklif qilamiz:

*Har qanday mashq miyani tinchlantirishdan boshlanadi. Buni uch marta chuqur nafas olishdan boshlashimiz mumkin. Bunda har bir nafas olishni bir necha sekund davomida ushlab turamiz va asta-sekinlik bilan nafas chiqarib, o'z-o'zimizga «tinchlan» deb aytamiz. Miyani tinchlantirishni ko'zlarni ochgan yoki ko'zlarni yumgan tarzda amalga oshirishimiz mumkin. Ammo xozir sizga quyida keltiriladigan mashqlarni o'qich kerak bo'lgani uchun ko'zingizni ochib turganingiz ma'qul bo'ladi. Siz o'zingizning ichki tinchlanish va betashvishlik holatiga etganingizni xis qilganingizdan so'ng, quyidagi so'zlarni o'qiganingizda o'zingizni yoqimli, kuchli, nozik va tinchlantiruvshi ichki xissiyotni «eshitayotganday» xis qiling. Bu ovoz sizning rivojlanishingiz va o'sishingizni chin dildan tilayotganini xis qiling. Tayyormisiz? Endi o'qishni boshlang.*

Xozir siz o'zingiz xaqingizda eng yaxshi va sog'lom tasavvur paydo qilayapsiz. Siz o'zingizdagi yaxshilikni sezayapsiz va anglayapsiz. Bu sizda borgan sari ortib borishda davom etmoqda. Bu esa sizning hayotingizni yanada to'laqonli va yanada muhim qilmoqda. Ushbu mehribonlik boshqa insonlar hayotiga ham ta'sir qiladi. Kun sayin siz yanada bahtliroq bo'lmoqdasiz, chunki faqat sizgina bu dunyodagi o'z o'rningizni hamda kimligingizni anglay olasiz va boshqa hech kim sizday bo'la olmaydi. Siz o'zingizdagi ijobiy o'zgarishlarni anglay boshlaysiz va har qanday salbiy fikrlardan voz kecha boshlaysiz. Albatta siz hech qachon ideal inson bo'la olmaysiz (chunki hamma ham yanglishadi), ammo

siz kun sayin yanada yaxshiroq bo'la boshlaysiz. Albatta siz xatolarga ham yo'l qo'yishingiz mumkin, ammo ulardan xulosalar chiqarib, barcha vaqtinchalik muvaffaqiyatsizliklardan, baxtsizliklardan va mag'lubiyatlardan foydali xulosalar chiqarishga harakat qilasiz. Siz barcha imkoniyatlar, yangiliklar va tanbehlardan to'g'ri xulosalar chiqarasiz hamda bu orqali afzalliklarga ega bo'lasiz. Yoqimli yoki yoqimli bo'limgan tajribalardan to'g'ri xulosalar chiqarib, ulardan ham foydalanishga erishasiz. Siz hayotda muvozanatga erishasiz va bu ongingizning mo'tadilligiga olib keladi. Lekin eng asosiysi shuki, siz o'z-o'zingizga nisbatan mehribonlikka erishasiz. Kun o'tgan sayin siz o'z-o'zingiz bilan qulay va sokin munosabatda bo'la boshlaysiz va siz o'z-o'zingizga eng yaxshi do'st bo'lib bora boshlaysiz. O'z-o'zini chindan sevish va o'z-o'zidan qoniqish juda ajoyib xissiyotdir. Ushbu xissiyotning rivojlanishi bilan siz boshqa insonlarning ham shunday xissiyotlariga ahamiyat bera boshlaysiz va siz ularni yanada ko'proq qadrlashga, sevishga va ular bilan quvonishga erishasiz. Kun sayin siz o'z sifatlariningizni, bahoingizni va go'zalligingizni anglay borasiz. Har kuni siz o'zingizda potentsial imkoniyatlar kashf qilib, ulardan o'zingizga va boshqalarga yordam berish uchun foydalanasiz. Ich-ichingizda siz o'zingizni har qanday yosh bola singari shirin va go'zal deb xis qilasiz. Siz o'z ichingizdag'i bu yosh bolani sevasiz, uni o'sishga va rivojlanishga chorlaysiz. Siz o'zingizning eng yaxshi do'stingizga aylanasiz. Agar siz o'z-o'zingizga yaxshi do'st bo'lsangiz, u xolda sizga boshqalar bilan do'st bo'lish juda oson bo'ladi. Boshqalar ham siz bilan osonlikcha do'stlashadilar. Siz o'zingizni pozitiv, ijobiy va mehribonlik bilan bog'liq bo'lgan xissiyotlar bilan qondirasiz (*sevgi va muhabbatni xis qiling*). Siz o'zingizni xurmat qiladigan mehribon insonlar og'ushida ko'rasiz. Siz o'zingizni va o'zgalarni kechirasiz. Siz qaerda turganingizdan qat'i-nazar, sevgi va muhabbat xislarini taratasiz (*sevgi va muhabbatni xis qiling*). O'zingizga muhabbat bilan boqing, siz shundayligingiz bilan, bahtni his qilishingiz bilan rohatlanishga harakat qiling. Hayolan «*senga raxmat*» deng va bu so'zlarni aytayotib, o'zingizga nisbatan minnatdorchilikni his qiling. Siz fikran «*senga raxmat*» deyayotib, qachonlardir juda baxtli bo'lgan chog'ingizda o'zingizga nisbatan his qilgan

faxrlanish, qoniqish va ruhiy engillik tuyg'ularini yana bir marta tuyushingiz mumkin. «*Senga raxmat*» deya bu nima uchun aytilishidan qat'i-nazar, juda ham ajib tuyg'ularni xis qilishga intiling. Bu tuyg'u juda bo'limganda, siz mavjudligingiz uchun, sizning o'zligingizni taniganingiz uchun ham minnatdorchilik sifatida his qilinishi mumkin. Endi fikran «eshitilayotgan» ovozning asta-sekin yo'qolishiga imkon bering.

***Nihoyat yangi hayot boshlashga qaror qildingizmi? Agar shunday bo'lsa, ushbu yangi hayotinigz baxtli va siz istagandek ajoyib bo'lisihi uchun quyidagi stsenariyga asosan harakat qiling va maqsad sari intiling:***

## **2.10. YANGI HAYOT STSENARIYSI**

*«Davlatqa etib, mehnat ahlin unutma,  
Bu besh kun uchun o'zungnu asru tutma,  
Borg'anni kel emdi, yod qilmay ey do'st,  
Borish-kelishingni lutf etib o'ksutma.*

*Bobir*

Mening yangi hayotim \_\_\_\_\_ yil \_\_\_\_\_ dan boshlanadi.

Shu bugundan boshlab, men o'z boyligimni orttira boraman va \_\_\_\_\_ yil \_\_\_\_\_ kunida moliyaviy mustaqillikka erishaman.

Men ushbu moliyaviy mustaqillikni yanada mustahkamlayman va butun hayotim davomida ezgu maqsadlarim va istak-xoxishlarimni amalga oshirgan xolda yanada ko'proq muvaffaqiyatlarga erishaman.

Men o'z mulkimni aqlga muvofiq ravishda boshqaraman, o'zimga va boshqalarga yordam berishga harakat qilaman va bu dunyoda faqatgina yaxshilik qilishga intilaman.

Men doimo hayotdagi eng muhim narsalarni: oilamni, do'starimni, o'zimning ma'naviy va ruhiy boyliklarimni sidqidildan saqlayman.

Men xaqqoniylit orqali hamda insonlarga sifatli mahsulotlar va xizmatlar taklif qilgan xolda boy-badavlat bo'laman. Ushbu kitobdagi maslahatlardan doimiy ravishda o'z ijodiy imkoniyatlarimni rivojlantirish va o'z potentsial imkoniyatlarimni to'la namoyon qilish uchun foydalanaman.

Men uchun mehnat qoniqish va quvonch keltiradi, qilayotgan ishim esa menga xursandchilik keltiradi. Yangi hayotimning birinchi kuni men o'zimning boshlang'ish maqsadlarimni yozib olaman. Ya'ni, minimal tarzda bitta qisqa muddatli, bitta o'rta muddatli va bitta uzoq muddatli maqsadlarimni aniqlab olaman.

Men ushbu maqsadlarga erishish uchun o'z miyamni tinchlantirgan xolda kuniga kamida ikki marta fikriy dasturlash jarayonini amalga oshiraman (*har bir kun boshida va oxirida*). Men yozib qo'yilgan maqsadlarimni doimo o'zim bilan olib yuraman va kuniga bir necha martalab ularga nazar solaman.

Men barcha negativ va salbiy fikrlarni uloqtirib yuboraman va menga ularning o'mniga men uchun sevimli bo'lgan pozitiv fikrlar kelishadi.

## **2.11. Tadbirkorlikda muvaffaqiyatga erishish alifbosi**

*«Baland tog'lar, buyuklikda gerdyma,  
Xumchada suv bo'lgan zardek bo'larsan,  
Teran daryo, haybatingga kekkayma,  
Vaqting etsa, qurib yerdek bo'larsan».*

*Maxtumquli*

1. Tadbirkorlik faoliyatini atrof-muhitni, bozorni, tovar yoki xizmatlaringiz iste'molchilarini va siz muloqot qilayotgan insonlarni yaxshilab o'rganmasdan turib boshlamang. Aks xolda yaqin odamingizga ishonib, pand eb qolishingiz mumkin.
2. Tajribali mutaxassislarning maslahatlariga va sizni o'qitgan yoki o'qitayotgan ustozlarning o'gitlariga e'tibor bilan qarang. Chunki, bu ma'lumotlarda juda katta ma'no va muvaffaqiyatingiz kaliti yashirinib yotgan bo'lishi mumkin.
3. Insonlar bilan muloqot sirlari tug'ma bo'lmaydi, balki ular sizning bevosita ish jarayoningizda orttiriladi. Bunga bag'ishlangan turli xil adabiyotlarni diqqat bilan o'qib chiqing.
4. Agar siz o'z ishingizga dildan ishongan xolda biror bir kimsaga o'z fikringizni tushuntira va ishontira olsangiz, sizga albatta omad yor bo'ladi. Lekin buning uchun avvalo o'zingizni-o'zingizni ishontira olishingiz va komil ishonch bilan maqsad sari intila olishinigiz zarur.

5. Muvaffaqiyatsizliklarga falsafiy yondoshing, chunki siz bunday muvaffiqiyatsizliklarga tajribangiz yo'qligi uchungina duch kelgansiz. Ish tajribangiz ortgan sari, muvaffaqiyatingiz ham orta boradi.
6. Tom ma'nodagi muvaffaqiyat bir qancha omadsizlik va qoqilishlardan so'nggina keladi va demak, siz albatta muvaffaqiyatsizlik bosqichidan o'tasiz – bu sizni o'ziga xos tekshiruv jarayonidir.
7. Ish yuritayotganingizda faqatgina tajribali mutaxassislardan kerakli maslahat va ko'rsatmalarni oling, chunki o'rtoqlaringiz, qarindoshlaringiz va qo'shnilaringiz sizga yaxshi, sifatli va kerakli bo'lgan maslahatlarni bera olmaydilar.
8. Ba'zi-ba'zida maslahat so'rab turish bu tabiiy xol, lekin shuni esda tutingki, omadsizlar doimo va har kim bilan maslahat qilaveradilar, juda kamchilik xollarda qarorlar qabul qiladilar va o'z qarorlarini xayron qolarli darajada tezlik bilan o'zgartiradilar. Omadlilar esa buning aynan teskarisini qiladilar.
9. Birdaniga katta ish boshlayman va boy bo'lib ketaman demang, chunki katta va ko'rkm imoratlar ham birinchi g'isht qo'yishdan boshlanadi. Astasekinlik bilan va aql-farosat orqali ish yuriting.
10. Barcha yig'ilishlir, tadbirlar va majlislarga eng yaxshi va chiroyli kiyimingizda keling, o'z gaplaringiz va fe'l-atvorining bilan atrofdagilarda yaxshi taa'surot qoldiring hamda shunday qilish eng to'g'ri yo'l ekanligi xaqida do'stlaringiz va mehmonlarni ham ogohlantiring.
11. O'zingiz bilan birgalikdagi tadbirkorlik faoliyatiga faqatgina sizga yoqadigan hamda go'zal xulq-atvorli insonlarni jalg qiling.
12. Vaqtি-vaqtি bilan o'zingiz xurmat qiladigan insonlarga yordam va maslahat so'rab murojaat qiling, ammo ularning yoniga quruq bormang. Ularning fe'l-atvorini yaxshilab o'rganing va ular yoqtiradigan biror bir narsa olib boring.
13. Agar biror bir tadbiriga taklif qilingan bo'lsangiz, aslo kechikmang, chunki kechikish – insonning beburdligi deb baholanadi.

- 14.Tadbirkorlik faoliyatingizda zinhor yolg'onni ishlatmang va barcha sizni beg'ubor va rostgo'y inson sifatida bilsin va tanisin.
- 15.Tadbirkorlik faoliyatingizga juda ko'p mablag' tikmang va bunday qilganlarning ahvolini doimo ko'z o'ngingizda saqlang.
- 16.Chidamli va sobitqadam bo'ling, chunki ba'zilar o'z tadbirkorlik faoliyatlarini omad eshikni qoqqan fursatda, buni bilmagan va tushunmagan xolda to'xtatadilar.
- 17.O'z shaxsiy rejangizga tayaning va uni o'ziga xos mayoq sifatida qabul qiling, chunki sizning muammolaringizni sizdan boshqa hech kim aniq bilmaydi.
- 18.Faqatgina o'z cho'ntagingizdagi pulni xisoblang va boshqa yaxshi insonlarning katta pullar topa olishiga faqatgina xursand bo'ling.
19. Xasad bilan emas, xavas bilan yashang, chunki xasad insonning vujudi va ma'naviyatini kemiradigan bir yomon xislatdir.
- 20.Biror bir bilim va xislatga ega bo'lgan har bir komil insondan nimanidir o'rganishga harakat qiling, chunki bu ezgu amal sizning o'sishingiz va yanada komil inson bo'lisingiz uchun ko'mak beradi.
- 21.Mijoz va haridor doimo xaqligini zinxor yoddan chiqarmang va uni eng yaxshi mahsulot va xizmatlar bilan ta'minlang.
- 22.Ko'proq xizmat ko'rsating va biror narsa bering hamda hech qachon hech kimsadan biror bir narsa talab qilmang.
- 23.Tushuntiring, lekin qaror qabul qilishni muloqot qilayotgan insonning o'ziga xavola qiling, aks xolda aybsiz aybdor bo'lib qolishingiz mumkin.
- 24.Ishingizni oxirigacha etkazishga harakat qiling, aks xolda «*Nega bu ishni boshladim, maqsadim nima edi?*» deb, o'zingizga-o'zingiz savol bering.
- 25.Birovlar uchun xulosa chiqarmang, chunki har bir inson o'z sharoitini o'zingga yaxshi biladi va tushunadi.
- 26.Ikki stulda o'tirish juda ham qiyin va noqulay, shuning uchun ham bir vaqtda ikki ishni bajarish va ikki tashkilotda ishlashdan nariroq yuring. Aks xolda, uni ham, buni ham boy berishingiz mumkin!

- 27.Qat’iy va intiluvchan bo’ling: Ertalab «*Bugun o’z faoliyatimni rivojlantirish uchun nima qilmoqchiman?*» va kechqurun «*Bugun nimalar qildim?*» degan savollarni o’z-o’zingizga bering va natijalarni tahlil qilib, xulosalar chiqaring.
- 28.Javobgarni izlamang, chunki hech kim salbiy holatlar uchun javobgarlikni o’z zimmasiga olmaydi.
- 29.Kelajak qanday yorqin bo’lishini har doim tasavvur qiling, orzu qilishga o’rganing.
- 30.Bilmagan ishingizga va siyosatga aralashmang, chunki sizning maqsadingiz faqatgina moliyaviy mustaqillikka erishib, oilangizning farovonligini ta’minlashdir.
- 31.Muvaffaqiyat formulalarini doimiy ravishda qaytarib, yorqin kelajagingizni tasavvur qiling va shu bilan yashang hamda ishlang.
- 32.Orzu qilgan kelajagingizni yuqorida keltirilgan «hayoliy kino» tarzida har kuni ezgu niyatlar ila tasavvur qiling.

## 2.12. BOYLIKKA ERISHISHNING MAHFIY QUROLI

«*Muvavvaqiyat va omad – bir muvaffaqiyatsizlikdan keyingilariga yanada kattaroq g’ayrat bilan o’tishdir*». Winston Cherchill

Agar quyida keltirilgan mulohaza va ko`rsatmalarni dasturi amal qilib olsangiz, bu siz uchun boylikka erishishning o’ziga hos mahfiy quroli bo`lib xizmat qilishi mumkin: *Kim sizning taqidirngizni boshqaradi?* Faqat birgina inson sizning taqdiringizni boshqaradi – u ham bo`lsa, sizning o`zingiz! Shuning uchun hayotingizdagи har bir xolatni nazorat qilishga harakat qiling va buni faqat o’zingizning say’i-harakatlaringiz orqaligina amalga oshiring. Muhim qarorlar qabul qilishni esa faqat o’zingiz hal qiling – bu sizga ishonch va barqarorlik tuhfa etadi hamda siz o’z rejalarining amalga oshirish uchun qat’iy harakat qila boshlaysiz.

*“Boy inson” va “muvaqqiyatga erishgan inson” tushunchalari orasida qanday farqlar mavjud?*

“Boy inson” tushunchasi sizda ko’p pul borligini bildiradi, xolos. “Muvaffaqiyatga erishgan inson” tushunchasi esa siz nimani sevsangiz, o’sha ish bilan shug’ullanayotganligingizni, sizning atrofingizda o’zingiz sevgan insonlar borligini va siz o’zingizni qoniqtirgan darajada va miqdorda qandaydir ko’rinishda (moddiy, ma’naviy yoki pullar ko’rinishida) mukofot olayotganingizni anglatadi.

### ***Boylıkka erishishning oson va engil usullari bormi?***

Bu savolga faqat “**YOQ!**” deb javob berish mumkin. Boy bo’lish uchun vaqt, harakat, mehnat, aql, farosat, intilish, ishonch, bilim, sog’liq va kuch-quvvat kerak.

### ***Agar sizda ma’lum miqdorda pul bo’lsa, nima qilar edingiz?***

Pullar borligi o’z-o’zidan xech nimani anglatmayidi va xech qanday ijobiy natijaga olib kelmaydi. Muhimi – siz pullar bilan nima qilmoqchililingizdir. Nima qilmoq kerak: avvalo, agar boyib ketsangiz, siz nimalar qilishni rejalahtirganligingizning ruyhatini tuzib chiqing. Ushbu ruyhatga nimalarni istayotgan bo’lsangiz, o’haslarni kirit. Bular zeb-ziynatlar, uy-ro’zgor anjomlari, maishiy texnika anjomlari, mol-mulk, mashina yoki sizga yaratiladigan imkoniyatlar yoki turli xil qiziqarli va foydali tadbirlarda qatnashuv bo’lishi mumkin. Shu ruyhatning o’ziga sizning boy bo’lishga intilishingiz stimullari yoki o’ziga hos strategiyasi bo’lib xizmat qilishi mumkin.

### ***Boy bo’lish yo’lida aldovdan, firibgarlikdan, noto’g’ri maslahatlardan yoki zararli ko’rsatmalardan qanday himoyalanishigiz mumkin?***

Bu savolga javob juda ham g’ayri-oddiy – ko’proq o’rganing, kerarli bilimlar orttiring, o’z faoliyattingiz bilan bog’liq bo’lgan qonunlarni, shart-sharoitlani, texnikani, dastrularni, asbob-anjomlarni yahshilab o’rganing. O’zingizni-o’zingiz o’rganishni ham unutmang – ya’ni, o’zingizning kuchli va kuchsiz tomonlaringizni yahshilab bilib oling.

### ***Boylıkka erishish kaliti nima?***

Boylıkka erishishning kaliti – foydalilanigan bilimdir! Boylikka erishish va hayotda muvaffaqiyatli bo’lishning xali-hanuz yechilmagan biror bir muammosi mavjud emas. Bu yo’lda biror bir amalga oshirilmagan góyaning o’zi yo’q desa ham bo’laveradi. Zamonlar, makonlar va odamlar o’zgaraveradi, ammo

muvaffaqiyatga erishishning strategiyasi doimo bir xil bo'lib qolaveradi. Bu bilan bogliq bo'lган bilimlar majmuasi esa sizning uni izlab topishingizni va hayotda qo'llashingizni kutib, sizga intizor bo'lib yotaveradi. Bilimga bиринчи va eng to'g'ri yo'l – o'zingizga eng yaqin bo'lган kutubxonaga yoki kitob do'koniga borishdir. Agar bunday turdagи muassasalarga boirshga erinsangiz, Internet tizimiga kirib, qidiruv mashinalari yordamida (*masalan, Google yoki Yandex dan foydalangan xolda*) istalgan turdagи va ko'rinishdagi ma'lumotlarni topib olishingiz mumkin. Bular yana maxsus ma'lumot yoki bilimlar bazalari, chet el kutubxonalarini electron versiyalari, maxsus caytlar, Yahoo, Rambler kабilar bo'lishi ham mumkin. **Nima qilmoq kerak?** – degan asriy savolni hal qilish uchun, siz uchun tushunarli va qiziqarli bo'lган biror bir g'oyani toping (*biznes g'oya topish ham unchalik qiyin emas – buning uchun biznez g'oyalar yoki business ideas saytlariga kirishingiz yoki shu nomlardagi disklardan foydalanishingiz mumkin*) va u bilan bog'loq bo'lган barcha ma'lumotlarni bilib oling, ularni tirishqoqlik bilan va o'ta jiddiy xolda o'rganib chiqing, boshqa insonlarni o'z goyaningizga ishontiring – agar bu yo'ldan sobitqadamlik bilan borsangiz, sizning kattadan-katta muvaffaqiyatlarga erishishingiz aniq bo'lib qoladi. Esingizda tursin – siz biror-bir narsaga qancha ko'p kuch-quvvat va gayrat sarflasangiz, shuncha ko'p natijaga erishasiz.

### ***Qanday qilib o'z mahsulot va xizmatlaringizga o'zgalarni qiziqtirishingiz va ularni sotishnijadallashtirishingiz mumkin?***

Buning uchun yaxshi va yomon mahsulot yoki xizmat orasidagi farqni bilib oling, o'z mahsulot va xizmatlaringizdagi kamchiliklarni iloji boricha bartaraf qiling, ularning boshqalarnikidan ancha yaxshi va original bo'lishiga erishing. Sotuv va xizmat ko'rsatish jarayonida yaxshi kayfiyat va chiroyli jilmayish xukmron bo'lishiga erishing. Qanday qilib o'zingizni va sizning mahsulotingizni ajoyib reklama qilish mumkinligini o'ylab ko'ring. Tovar yoki xizmatlaringizni reklama qilishda Internet vositalaridan foydalanish yaxshi natijalarga olib keladi: masalan. Maxsus sayt tashkil qilish, uni ommalashtirish, interner serfing imkoniyatlaridan foydalanish, banner almashinuv dasturlarida qatnashish, electron

pochta va avtorassilkalardan foydalanish va xakozolar. Shunday qilingki, barcha sizning bilimingizni, intilishingizni va aql-farosatingizni tan olsin.

### ***Muammo ham ijobiy xolat bo'lishi mumkin!***

Ko'pchilik insonlar imkoniyatlardan foydalana olmaydilar, chunki ular faqatgina muammolarni ko'radilar, xolos. Shuni esdan chiqarmang, har qanday katta imkoniyt albabatta biror bir muammo bilan birgalikda vujudga keladi – bu sizni o'z g'oyangizga naqadar sodiqligingizning o'ziga xos bir tekshiruvi desa ham bo'laveradi. Shuning uchun ham diqqat-e'tiborni doimo imkoniyatlarga qarating, bu imkoniyatlarni amalga oshirishda va bu bilan bog'liq bo'lgan muammolarni hal qilishda qat'iylik va tirishqoqlik ko'rsating.

### ***Nega boy bo'lish uchun yahshi sotuvchi bo'lish muhim?***

Har qachon kimdandir siz uchun nimanidir qilishni so'rasangiz, biror bir mahsulot yoki xizmatni olishlarini istasangiz, loyihangizni qabul qilishlarini xoxlasangiz yoki g'oyangizni tushuntirmoqshi bo'lsangiz, demak siz ularni siz uchun kerak bo'lgan nimanidir qabul qilishlariga undaysiz, ya'ni siz ularga nimanidir sotishga harakat qilasiz. Yaxshi sotuvchi bo'lish uchun esa o'z ishingizga avvalo o'zingiz ishonishingiz kerak va bunga asos yaratishingiz zarur – faqat shundagina siz muvavvaqiyatli sotuvchi bo'la olasiz. Yaxshi sotuvchi sifatida o'z mahsulot va xizmatlarinigizni keng miqyosda sota olishingiz pirofard natijada sizga katta boylik va muvaffaqiyat keltiradi. Shuning uchun biror bir narsani sotishning har bir imkoniyatidan unumli foydalaning, sotuvchi bo'llib ishlab ko'ring, sotuvchilik ko'nikmalarini rivojlantiradigan mahsus kurslarga qatnang. Sotuvchilik ko'nikmalari sizning boylikka erishishingiz yo'lida juda katta ahamiyatga ega bo'ladi. Bularga qo'shimcha ravishda Internet tizimi orqali interfaol usullardagi sotuv malakalarini egallang, kim-oshdi savdolarida qatnashishni bilib oling, virtual magazinlar tashkil qilishni o'rganing, to'lov tizimlarida ishlashni mukammal egallab oling, virtual pullar va internet banklardagi muomala qoidalarini hamda moliyaviy bozor sirlarini yahshilab atroflicha o'rganib oling.

### ***Pul topishning birinchi siri nina?***

Agar siz qobiliyatli bo'lsangiz, o'z ishingizning ustasi bo'lган xolda unikal (*takrorlanmas va boshqalarnikiga o'xshamagan*) mahsulot yoki xizmat topsangiz (*bu ishni qanday qilib amalgalash oshirish yuqorida ko'rsatilgan edi*) hamda bu xizmat yoki mahsulot insonlar istagan narsa bo'lsa va ular buning uchun pul to'lashga tay'yor bo'lsalar, demar siz boylar mamlakatiga bilet sotib oldingiz deyish mumkin. Demak, boy bo'lishning birinchi siri - ijobiy ma'noda unikal va yodda qoladigan bo'lishdir.

### ***Pul topishning ikkinchi siri nina?***

Agar siz insonlarning hayotiga boylik, qoniqish, quvonch, sog'liq, baxt, sevgi yoki ularning bir maromdagи hayot tarziga qiziqarli vaqt qo'shish usullarini topsangiz, ular buning uchun sizni albatta munosib tarzda taqdirlaydilar. Demak, boy bo'lish uchun siz boshqa insonlarning hayotiga qandaydir ular uchun qummatli bo'lган narsalar qo'shishingiz kerak bo'ladi. Bunga erishish uchun sizning ishingiz yoki tadbirkorlik faoliyattingiz orqali insonlarning hayotiga qanday qilib qimmatli narsalar qo'shish mumkin ekanligi usullarining ro'yhatini tuzib chqishigiz (*maxsus adabiyotldan yoki kitoblardan foydalangan xolda, internet yordamida yoki qidiruv mashinalari va maxsus saytlarni jalg qilgan xolda*) va ular xaqida atroflicha mulohaza qilishingiz zarur bo'ladi. Agar buni uddalay olsangiz, boylikka erishdim deyavering – chunki ko'pchilik insonlar bu ishingizni albatta munosib taqdirlaydilar.

### ***Pul topishning uchinchi siri nina?***

Agar siz yahshi mahsulot yoki xizmatga uni yanada ko'paytirish usullarini (*richagni – leverage – tovar yoki xizmat ishlab chiqarish xajmi va uning sotilish sur'atini sezilarli ravishda oshirishga imkon beradigan usullar yoki vositalar*) qo'llasangiz, uning yordamida sizning daromadingiz va mukofotlanishingiz darajasi keskin ravishda ortadi (*buning uchun, masalan, sotuv va ishlab chiqarishga boshqa insonlarni jalg qilishingiz yoki korxonangizning filiallarini tashkil qilishingiz mumkin*). Aks xolda, agar siz pullarni yo'qotishga olib keladigan qandaydir richagni qo'llasangiz, bunda ushbu amal sizni xonavayron bo'lishga olib kelishi ham mumkin. Bundan xulosa shuki – richagni aql va farosat bilan ishlating.

### ***Kasal otlar so'yiob tashlanadi!***

Juda ko'pchilikning ajoyib va g'aroyib g'oyalarni yomon va o'ylanmagan tarzda hayotga tadbiq qilishlari natijasida ular yahshi natijalarga olib kelmaydilar. Shuning uchun g'oyangizni hayotga tog'ri tadbiq qilish va kerakli natijalarga erishish uchun reja tuzib oling va barcha ishingizni ushbu rejaga muvofiq ravishda olib boring. Agar sizga boshqa insonlar yordami zarur bo'lsa, ularni yahshilab o'qiting va o'rgating, ishingizga ularni ham qiziqtiring, kerakli paytda taqdirlang, ko'nikmalarini va bilimlarini rivojlantiring. Agar muvaffaqiyatga erishishni kafolatlamoqshi bo'lsangiz, doimiy ravishda o'z faoliyatingiz bilan bog'liq ma'lumotlarni o'qing va o'rganing, yangi kitoblarni mutolaa qiling, Internetdagi biznes yangiliklaridan bohabar bo'ling.

***Agar siz to'gri yo'lida bo'lsangiz va barcha ishingizda sizga omad kulayotganigan xursand bo'lsangiz, ishingiz yanada rivojlanib ketadi.***

Doimo qaerga ketayotganingizni biling, qilayotgan ishingiz to'griligiga amin bo'ling, noma'qul ishlardan nari yuring – shundagina hayotingiz engil, quvonchlarga to'la va qiziqarli bo'ladi. Hayotda o'z yo'lini topa olmayotganlarga to'g'ri yo'lni ko'rsating, nochorlarga yordam bering, ilm toliblarini qo'llang va sizga sodiq bo'lган insonlarni rag'batlantiring.

### ***Mos tushishlar va imkoniyatlar kuchi.***

Sizning miyangiz yaxshilab tashkillashgan g'oya va real voqe'likni farqlay olmaydi. Tabiat ham juda ajoyib bo'lган go'yani real voqelikdan farq qilmaydi. Sizning go'yalarining hayotga tadbiqi – go'yaning real voqe'lik bilan mos kelishidir. Agar shu xolat yuz bersa, tabiatning barcha yaratuvshi kuchlari sizning go'yangiz tomon yo'naltiriladi va bu xolat sizga imkoniyatlar, zahiralar, inson resurslari va mos tushish xolatlari beradiki, natijada sizning go'yangiz real vore'likka aylanadi. Demak, agar siz xushyor va diqqat-e'tiborli bo'lsangiz, mos tushishlarni o'z vaqtida payqab qolishingiz va shunga munosib tarzda hatti-harakatlar qilishigiz mumkin bo'ladi. Ammo agarda siz doimo bir xil ishlarni qila bersangiz, u xolda sizga xech qanday imkoniyat qolmaydi va siz umringiz

davomida bir xil natijalarga erishib yuraverasiz. Shuning uchun hayotingiz davomida turli xil ishlarni qilib ko'rishga harakat qiling va bunda juda ham xushyor bo'ling, chunki mavjud imkoniyatlarni bilish va ulardan samarali foydalanish o'ziga xos ziyraklikni talab qiladi.

### ***Qo'rmasdan ishga kirishing.***

Agar qo'rmasdam, shoshilmasdan va sobitqadamlik bilan ishga kirishsangiz, muvaffaqiyatga erishishingizni etarli darajada kafolatlagan bo'lasiz. Har qanday yahshi yoki yomon xodisa hayot yo'lingizning bir qismidir va siz bundan tegishli xulosa chiqarishingiz zarur bo'ladi.

### ***Qarz olmoqlik.***

Agarda rejalahtirilgan investitsiyangiz natijasida olinadigan foyda qarz olish uchun to'laydigan foiz yoki harajatlardan ko'p bo'lsagina, qarz oling. Aks xolda qarz olmaganingiz ma'qul. Qiymati o'sib boradigan aktivlarni sotib oling va ushbu qo'shimcha qiymatdan foydalanish yo'llarini yaxshilab oy'lab ko'ring.

### ***Investitsiya qilish qoidalari.***

Agarda siz pullarni sifatlari va qiymati doimiy ravishda o'sib boradigan real aktivlarga investitsiya qilish maqsadida jamg'arib bormasangiz, xech qachon boy bo'la olmaysiz. Boy odamlar avvalo pullarni maqsadga va aqlga muvofiq ravishda investitsiya qiladilar va undan so'nggina qolgan pullarni sarf-harajatlari uchun ishlatadilar. Aslo yodingizdan chiqmasin: daromad hayot tarzini anglatadi, boylik esa aktivlar bilan o'lchanadi! Agarda sizning olayotgan daromadlaringiz miqdori bir yildagi sarf-harajatlaringizdan anchagina ortib ketsa, demak, siz o'zingizni boyman desangiz bo'ladi. O'z daromadlaringizning taxminan 70% ga yashashni o'rganing, qolgan qismini esa yigib, ularga qimmatli aktivlarni sotib oling.

Investitsiya qilganda nimalarga ahamiyat berish kerak bo'ladi?

Investitsiya qilishning uchta asosiy tarkibiy qismi mavjud:

- Aktivlar qiymati vaqt o'sishi bilan ko'payishi kerak.
- Aktivlar dividend, ijara haqqi yoki foizlar shaklida daromad keltirishi kerak.

- Tavakkalchilik (risk) qancha miqdorga ega ekanligiga e'tibor berish kerak.

Ushbu uchta elementni bitta investitsiyada kerakli miqdorda amalgam oshirish mumkin emas. Agar kam tavakkalchilik darajasida daromadning tez o'sishiga harakat qilsangiz, u xolda daromadning o'sishi juda kam miqdorda bo'ladi. Agarda ko'p daromad olishni va o'sish miqdori katta bo'lishini istasangiz, u xolda katta tavakkalchilik darajasini tanlashingiz kerak bo'ladi.

### ***Tavakkalchiliksiz investitsiya qilish mumkinmi?***

Afsuski, buning iloji yo'q – tavakkalchiliksiz investitsiyalar mavjud emas. Lekin, investitsiya qilmasangiz xech qachon boy bo'maysiz. Qanchalik katta miqdorda daromad istasangiz – shunchalik ko'p darajada tavakkal qilishingiz kerak bo'ladi. Shuning uchun biror bir konkret aktivga investitsiya qilmoqchi bo'lsangiz, tavakkalchilik darajasi siz uchun ma'qulmi yoki yo'qligiga e'tiborni qaratishingiz kerak bo'ladi.

### ***Tavakkalchilikni (riskni) boshqarish qanday amalga oshiriladi?***

Birinchidan, o'zingiz tishunmagan ishlarga investitsiya qilmang. Investitsiya qilishdan avval, shu sohani yahshilab o'rganing va shunga asosan tegishli qarorlar qabul qiling. Investitsiyalaringizni turli xil yo'naliishlarda taqsimlang va uning bir kichikroq qisminigina tavakkalchilik (risk) darajasi katta bo'lgan investitsiyalarga yo'naltiring. Demak, agar investitsiyalar riskli bo'lsa, ularni yuqorida ko'rsatilgandek boshqarishga o'rganing.

### ***O'z xatolaridan xulosalar chiqarish.***

Shaxisy rivojlanish qonuniga ko'ra, agar siz biror bir qilingan xatodan so'ng tegishli xulosalar qilmasangiz, o'sha xatoni xulosa chiqarmagunga qadar davom ettiraverasiz. Shuning uchun, har bir qilgan xatoingizni yahshilab tahlil qiling va xatoingiz nimada ekanligini ahiqlab oling hamda bundan xulosa chiqarishga harakat qiling. Doimo orzular va imkoniyatlar orasidagi muvozanatni saqlashga intiling. Xatolar xaqida chiqargan xulosalaringizni boshqalar bilan o'rtoqlashing va ularning xolisona fikrlarini biling. Xatolaringizdan asabiy lashmang va bundan nimanidir o'rganishga harakat qiling.

### ***Fond birjasida ishlash xaqida.***

Fond birjasida ishlash sizning pullar birlab munosabatingizni to'la-to'kis aniqlashga imkon beradi. Bu bozor tezkor, rahmsiz, qahrli va ashaddiy o'qituvchi desa ham bo'ladi. O'z fikrlashingizdagi biror bir kichik xato yoki yanglishuv juda ham tezkorlik bilan kattalashib, juda yomon natijalarga olib kelishi mumkin. Bu ish sizning ochko'zligingiz yoki qat'iy emasligingiz tufayli ham ro'y berishi mumkin. Demak, siz ushbu bozorda ishlaganingizda tartibli bo'lishingiz, mulohazali bo'lishingiz hamda ilgari qarashga imkoniyat topishingiz lozim. Fond bozori investitsiyaning aniq rejasi bo'lgan, aniq maqsadga ega bo'lgan kompaniyalarni tanlagan, malakali boshqaruvga ega bo'lagan hamda bozorda yaxshi mavqega ega bo'lgan kompaniya aktsiyalari bilan ish olib boruvchi insonlarga katta imkoniyatlar yaratib beradi. Valuyta va Fond birjalarida ishlah nafaqat bevosita birjalarga borib, balki Internet tizimi orqali ham bemalol amalgalashirish mumkin. Uyingizda komp'yuterda o'tirib olib, birjalarda ishlash bo'yicha tajriba orttirish va yahshigina pul ishlash ham boy bo'lishning juda ajojib imkoniyatidir (*misol sifatida FOREX, binar ayktsionlar (bitcoinlar) yoki BetMarket larda ishlashni keltirishimiz mumkin*).

### ***Aktisiyalarga investitsiya qilish qoidalari.***

Agarda aktsiyalarga aql bilan investitsiya qilmoqshi bo'lsangiz, avvalo bu bozorni yahshilab o'rganing (*texnik tahili, analitik tahlil, sekyurimetrika, bozor segmentlari, qimmatli qog'ozlarning turlari, indekslari va boshqalar*) va undan so'ng quyidagi ko'rsatgichlarga ega bo'lgan kompaniyalarni tanlang:

- Bozorda unikal joyni egallagan va u erda mustahkam o'rnatishib olgan;
- Haridorlar sotib olishni istaydigan eksklyuziv yoki unga yaqin bo'lgan mahsulot ishlab chiqaradigan;
- Umumiy maqsadga yo'nalgan competent boshqaruvga ega bo'lgan hamda salvorli biznes rejasi bo'lgan;
- Sof foydasi va oboroti tezkorlik bilan ko'payotganligi ma'lum bo'lgan;

- Aktisiyalarining kattagina miqdori direktorlarning va menejerlarning qo'lida bo'lgan;
- Dunyo bo'yicha 500 ta eng katta kompaniyalar ruyhatiga kirgan;
- Zayem vositalar darajasi va foyiz bo'yicha to'lovlar miqdori kam darajada bo'lgan.

Demar siz pul topishning uchta qonuniga rioya qiladigan (*unikallik, qiymat qo'shilish va richag*), aktsiyalarga investitsiya qilishning uchta kalitiga ega bo'lgan (*o'sish, sifat, kam tavakkalchilik darajasi*) kompaniyalar aktsiyalarini sotib olishingiz maqsadga muvofiq bo'ladi.

### *Aktisiyalarning bahosini kuzatish.*

Bir boy inson bu borada bunday deb aytgan ekan: “*Men iloji boricha keyinroq sotib olib va iloji boricha ilgariroq sotib katta boylikka erishganman*”. Demak u aktsiyalarning bahosi ko'tarilgunga qadar kutadi va ularni sotib oladi, so'ngra ularning narxi tushmasidan avval sotib yuboradi hamda bu bilan yaxshigina foydaga erishadi. Siz ham xuddi shu qoidaga amal qilsangiz, fond bozorida katta mufaffaqiyatlarga erishishingiz mumkin bo'ladi.

Yuqorida aytilgan va ko'satilganlardan xulosa sifatida shuni aytish mumkinki, eng avvalo yaxshi bilim oling, boylikka erishish qonunlarini chuqur o'rganing, so'ngra orzuungizni toping va undan so'ng bu orzuni hayotga tadbiq qiling. Bu ishda sobitqadamlik va tirishqoqlik qilsangiz siz albatta va so'zsiz moliyaviy mustaqillikka erishasiz. Xech kimga va xech qachon sizga orzuungizga erishmaysiz deyishiga imkon bermang. O'zingizning shaxsiy boylikka erishish rejangizni tuzib oling. Bu ishni shu bugunoq boshlang, chunki ertaga qilaman deyilgan ish odatda xech qachon qilinmaydi. Rejalaringizni qog'ozga tushiring va bu rejaning bajarilishini doimiy ravishda kuzatib boring. “*Men o'z taqdirim uchun faqat o'zimgina javob beraman*” deb mashq qilishni ham unutmang! Ushbu qissamiz so'ngida shoir Masnaviyning quyidagi o'lmas misralarini keltirishni lozim topdik:

*Ilm aro gar vahidi davronsan,  
Amal qilmas esang, nodonsan.  
Topmog'ung donush ahli ichra hisob,  
Bir eshaksan, senga yuk o'ldi kitob.  
Bo'lmagay ul eshakka habar,  
O'tun ustidami yo daftar erur.*

### Foydalanigan adabiyotlar ruyhati

- 1. Boylik qonunlari. Abdullaev A.A. - Toshkent. “Yangi asr avlodi”, 2005 yil**
- 2. Muvaffaqiyt kaliti: ETIKET. - Toshkent. “Yangi asr avlodi”, 2004 yil**
- 3. Iztirob Asoratlari. Deyl Karnegi. - Toshkent. “VORIS” nashriyoti, 2006 yil**
- 4. Muomala sirlari. Deyl Karnegi. - Toshkent. “VORIS” nashriyoti, 2005 yil**
- 5. Baht va Boylik siri. - Toshkent. “Yangi asr avlodi”, 2007 yil**
- 6. Bo'lajak millionerlarga maslahatlar. - Toshkent. “Yangi asr avlodi”, 2005 yil**
- 7. Tadbirkorlik madaniyati yoki biznes etikasi asoslari. – Toshkent: «Kamalak » nashriyoti, 2007.**
- 8. Muloqot madaniyati. - Toshkent, «Kamalak» nashriyoti, 2007.**
- 9. Millionerlarning 21 sir-asrорlari. – Toshkent, «Kamalak» nashriyoti, 2007.**
- 10. Brayan Treysi. 100 absolyutnix zakonov uspexa v biznese. Minsk: Izdatel'stvo «Popurri», 2003**
- 11. Spenn Piter. Iskusstvo obreteniya bogatstva i protsvetaniya. Moskva: RIPOL Klassik, 2005**
- 12. Robert Kiosaki. Bogatiy papa, bedniy papa. M., 2004**
- 13. Bill Geyts. Biznes so skorostyu misli. M., 2006**
- 14. Yuriy Moroz. Biznes posobie dlya geniev. M., 2005**
- 15. Og Mandino. Velichayshiy v mire torgovets. M., 2007**
- 16. Alimov R.X., Ayupov R.X., Alimov Q. Tadbirkorlik marketingi. T.: «FAN» nashriyoti, 2004**
- 17. Karimov F.Sh. va boshqalar. Biznes boshqaruvi. 1- va 2-qismlar. T.: TMI, «Iqtisod-Moliya» nashriyoti, 2010**
- 18. Ayupov R. X. va boshqalar. Marketing asoslari. T.: TDIU, 2011**

Umringiz samarali va go'zal o'tishini tilagan holda siza ushbu misralarni hadiya qilamiz:

*Kimki befoyda umrin o'tkazdi,  
Hech harsa olmasdan, oltin ketkazdi!  
Sa'diy Sheroziy*

**AYUPOV RAVSHAN HAMDAMOVICH,  
BOLTABOEVA GUZAL RAVSHANOVNA  
«Boylik va qashshoqlik falsafasi»,  
Toshkent, 2018 yil, - 84 бет**

Agar siz ushbu kitobni diqqat bilan o'qib va o'rganib chiqqan bo'lsangiz, undagi hayotiy tajribalar va maslahatlarga amal qilishingiz uchun yurtimizning ulug' bir mutafakkir-shoiri Ahmad Yassaviyning quyidagi misralaridan ham saboq olishingiz maqsadga muvofiq bo'lar edi:

*Amal qilsa olimlar dinu o'yin yoruqi,  
Ko'rsa bo'lur alarni rangi-ro'yi ko'rkini.  
Amal qilmay qol ilmin, o'quy bilmay qolganlar,  
Orqasiga ko'tarur qirq eshakni yukini.  
Xojimen deb lof urma, ushbu dunyo bepoyon,  
Bilamen deb aytma, sen, ko'ngildagi chirkini.*

## **Adabiyotlar ruyhati**

1. **Boylit qonunlari.** Abdullaev A.A. - Toshkent. “Yangi asr avlodi”, 2005
2. **Muvaffaqiyt kaliti: ETIKET.** - Toshkent. “Yangi asr avlodi”, 2004 yil
3. **Iztirob Asoratlari.** Deyl Karnegi. - Toshkent. “VORIS” nashriyoti, 2006
4. **Muomala sirlari.** Deyl Karnegi. - Toshkent. “VORIS” nashriyoti, 2005
5. **Bahit va Boylik sirlari.** - Toshkent. “Yangi asr avlodi”, 2007 yil
6. **Bo'lajak millionerlarga maslahatlar.** - Toshkent. “Yangi asr avlodi”, 2005 yil
7. **Boylikka erishish yuriqlari.** – Toshkent: 2010 yil.
8. **Тадбиркорлик маданияти ёки бизнес этикаси асослари.** – Ташкент: 2009 yil.
9. **Мулоқот маданияти.** – Тошкент: 2008
- 10.Одамийлик мулки.** Тоҳир Малик. Тошкент: “Шарқ”, 2012 йил



*Муаллиф: Аюпов Равшан Хамдамович*, фан доктори, профессор, 1950 йилда  
Тошкент шаҳрида туғилган, дарслик, монографиялар, ўқув ва илмий-  
оммабоп қўлланмалар тайёрлаган ва нашр қилган.



AYUPOV RAVSHAN HAMDAMOVICH

AYUPOV RAVSHAN HAMDAMOVICH